Bu haqda Qarorning 2-bandida Konsepsiya va uni amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yunalishlaridan biri etib “Yoshlarda Vatanga sadokat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish” [1] ta'kidlangan.

Bu davlatimizning yoshlar tarbiyasiga yondashishda maqsadli innovasion yondoshuv bo‘lib, tarbiya jarayonini ilmiy asosga qurilishini va milliy tarbiya masalasida uning ijtimoiy-psixologik indikatorlari ishlab chiqishimizni talab qiladi.

Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash ketayotgan bir vaqtda, eng katta sarmoya farzandni yaxshi ta'lim va tarbiyasiga tiktikilayotganligi bu albatta yaxshi holat hisoblanadi.

Bugungi zamon va makon shaxsning eng asosiy ichki resurslaridan biri bo‘lgan tarbiya masalasiga, yangicha talablarni qo‘yayotgani biz soha vakllarini doim diqqat markazimizda bo‘lishiligi lozim. Zero, shiddati vertualashish jarayoni kuchaytgan bir davrda ta'lim-tarbiya masalasiga aniq, ilmiy asoslanga, qat'iy talablar bilan yondashish juda muhim ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi.




Biz maqolamiz uchun yoshlarni milliy tarbiya masalasiga munosabatlari va daxldorlik darajalarini bilish uchun ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma o‘tkazdik, ularni tahlili qildik va quyidagicha empirik ma'lumotlarni qo‘lshga kiritdik.

Talabalarga “Sizdagi tarbiyaning shakllanishiga ko‘proq qaysi omil ta'sir ko‘rsatgan?” degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo‘lga kiritildi.


Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turbidiki bugunki kunda yoshlar tarbiyasini shakllanishida eng ko‘p ta'sir omili bu ommaviy axborot vositalari (40%) ekan. Keyingi ta'sir omillarini oila (27%), ta'lim (18%), mahalla (15%) tashkil etgan. Demak biz yoshlar tarbiyasi bo‘yiyaa targ‘ibot ishlarini ommaviy axborot vositalarida kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan.

Talabalarga “Sizda shakllangan xarakter va fazilatlarni ko‘proq qismini kimdan o‘rgangansiz?” degan savolga quyidagicha empirik natijalar qo‘lga kiritildi.




Demak yoshlar tarbiya ishlarida otaning (60%) roli va o‘rnini ko‘proq yo‘qlashdsh. Demak oilada farzand tarbiyasi bo‘yicha targ‘ibot ishlarida otaning tarbiya ishlar bilan shug‘ulanishi bo‘yicha ko‘rsatmalarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Keyingi savol “Sizningcha tarbiya nechi yoshdan boshlab shakllanadi?” deb nomlandi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi.




Respondentlarning 60% ona qorniligidan, 22% 3 yoshdan va 18% aniq bilmayman degan javobni bergan. Bizni tarbiya borasidagi ishlarimizni kemtik joylarini aynan 18% respondent aniq bilmayman degan javob ko‘rsatib berdi. Qolaversa talabalarning 22% ham tarbiyani 3 yoshdan boshlanadi deb javob berishyapti bu ham xavotirli javob aslida. Chunki tarbiya ishlariga 3 yil kechikiliyapti.

Navbatdagi savol “Sizningcha tarbiyada kimlarni roli ko‘proq bo‘lishi kerak?” dagan ma'noda bo‘ldi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi.




Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, tarbiyada ota-onaning roli ko‘proq ekan. Shunday ekan jamiyatda milliy tarbiya masalasida, oilada farzand tarbiya masalasida ota-onaning rolidan unumli foydalanish kerak. Ota-onalarni tarbiyaning milliy va zamonaviy metodlari bilan ta'minlash kerak. Mahallalarda maqsadli va manzilli seminar-treninglar tashkil etib ota-onalarni tarbiya metodlari bo‘yicha bilimlarni oshirish maqsadga muvofiq.

Navbatdagi savol “Milliy tarbiyani ko‘proq nimlardan o‘rganasiz?” ma'nosida berildi va quyidagicha natijalar qo‘lga kiritildi.



Yoshlarimiz milliy tarbiyani eng ko‘proq jamiyatdan (50%) o‘rganishayotgan ekan. Demak tarbiya ishlarida jamiyatimizda jamaotchilik nazoratini kuchaytirishimiz kerak ekan.

“Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga quyidagicha javob beroishdi.



“Ota-onalaringizni sizga yaxshi tarbiya berishi uchun nima halaqit berayapti deb o‘ylaysiz?” deb berilgan savoliga 28% ota-onalar tarbiya metodlarini yaxshi bilmaydi, 18%i tarbiyadagi oilaning mas'uliyatini anglamaydi deb, 22% i farzandi bilan muloqot qilmasligi deb javob berishgan bo‘lsa 32%i mazkur savolga bilmayman deb javob bergan, bu ko‘rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tibor borasida masalani jiddiy o‘ylab ko‘rishlarini taqazo qiladi.

Navbatdani savollar “Ota-onangiz siz bilan tarbiya mavzusiga bir kunda qancha vaqt ajratadi?” deb nomlandi.

Tekshiriluvchilarni 58% bir kunda ota-onasini tarbiya mavzusiga 5-10 minut ajratishlarini ta'kidlashgan, 20% 15-30 minut va eng og‘riqligi 12% bir xafta davomida 10-15 minut suxbatlashiladi va yana 10% tekshiriluvchilar tarbiyasizlik qilib qo‘ygan vaziyatlarimda bu mavzuga vaqt ajratiladi deb javob berilgan. Dkmak yuqoridagi ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki ota-onalarimiz o‘z farzandlariga ko‘proq vaqt ajratishlari maqsadga muvofiq. Zero bu tahlikali va ochiq axbort asrida bizni farzandalarimizga tarbiya beradigan buzg‘unchi va vayronkorlik ruhidagi muxolifatlar ham yo‘q emas.

Yuqoridagi empirik natijalarda tarbiya ishlari va metodikasi bilan bog‘liq ishlarimizgi nisbatan e'tiborsizlik holatlari yaqqol ko‘zga tashlandi. Zero buyuk vatandoshimiz Imom G‘azzoliy quyidagi fikrlaridan ham bilishimiz mumkin, ya'ni mutafakkirimizni ta'kidlashicha “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning sa¬vobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi”.

Bugungi kunda yoshlarni axloqiy masalalariga e'tiborsizlik yer yuzida qanchadan-qancha ma'naviy tahdid va illatlatlarni keltirib chiqarayotganligi hech kimga sir emas.

Yuqoridagi so‘rovnomalardan ayon bo‘ldiki, ota-onalr farzand tarbiyasida ma'rifatli bo‘lishlari talab etiladi, zero bugun har bir ota-ona pedagog bo‘lishi lozim tarbiya metodlarini puxta o‘zlashtirmog‘i lozim, chunki farzand ta'lim-tarbiyasiga tikilgan sarmoya eng foydali va eng kafolatli sarmoyadir.

Mazkur masalada pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov “Bugungi har bir ota-ona pedagog bo‘lishi kerak” deb ta'kidlaydi. Jumladan olimni ta'kidlashicha farzand tarbiyasidagi eng ta'sirchan metod bu- o‘rgatish metodi. Chunki uning ichida tushuntirish ham bor, suhbat ham bor, ko‘rsatish ham bor, aytish ham bor, namuna ham bor [3, c.320].

Biz bugungi zamonaviy ota-onalarga ota-bobolarimiz qo‘llagan va yaxshi samara bergan quyidagi milliy tarbiya metodlarini qo‘llashlarini tavsiya qilgan bo‘lar edik. Ular quyidagilar:

- Ayblamoq - bolani qilgan gunohi, xatosi uchun adolatli ravishda aybli deb topmoq, ayb qo‘ymoq va bolaning buni anglashiga erishmoq.
- Arazlamoq - qilgan salbiy qilig‘i uchun bolani aybsitib, undan o‘pka qilib yurmoq yoki tarbiyaviy maqsadda vaqtincha yuz o‘girmoq.
- Baholamoq - bola xulqiga uning ahamiyati, qadr, qiymati haqida ijobiy yoki salbiy fikr bildirmoq.
- Bahslashmoq - o‘quvchi bilan(maktabda), o‘g‘il-qiz(farzand) bilan maktabda, uyda ilmiy, adabiy, ahloqiy, milliy-mafkuraviy mazmunda munozara qilmoq.
- Begona qilmoq - bolaning yolg‘on gapirganligi aniqlangach, qo‘polligi muhokama qilingach va h.k. undagi vijdonni junbushga keltirish, qilgan ishi uchun pushaymon qilishi uchun o‘qituvchi, yoki ota-ona, yoki ona uni o‘zidan vaqtincha uzoq tutib yurishi.
- Biriktirmoq - odob-ahloqda, biror hunarda ko‘pchilikka namuna bo‘lgan ustoz tarbiyasiga bermoq. O‘tmishda qo‘shni ko‘rgan ota-onalar farzandlarining hayotini, odamlar,

begonalar bilan muomala qilishni o‘rgansinlar deb o‘g‘illarini choyxonachiga xizmatkorlikka bergan ekanlar.

- Bitim – bolaning hayotiga, o‘qishiga, kelajagiga oid jiddiy masalani uning o‘zi bilan muhokama qilib, o‘zaro ijobiy kelishuv, to‘xtam, qarorga kelmoq.
- Buyurmoq - vaziyatning taqozosi bilan tarbiyaviy maqsaddan kelib chiqqan holda bolaning o‘zi uchun, jamoa, millat, Vatan manfaatlarini ko‘zlab buyruq bermoq.
- Va'da olmoq - bolaning o‘z so‘ziga sodiqligini, so‘zi va ishi birligini sinash maqsadida undan biror ishning, majburiyatning bajarilishi haqida so‘z olmoq.
- Girgitton bo‘lmoq - mehribonlik bilan, “aylanay”, “o‘rgilay” so‘zlarini ishlatib, ismiga “jon”, “xon” qo‘shib bolani erkalash.
- Yorilmoq - bolaning sizdan noo‘rin xafaligini bilgach, tanho qoldirib, asl maqsadingiz – uning muvaffaqiyati ekanligini aytishingiz. Xayrixohlik, samimiylik bu usulga muvaffaqiyat keltiradi.
- Inoqlashmoq - bola bilan yaqin, do‘stona munosabat bog‘lamoq, ahillashib ketmoq.
- Kafil bo‘lmoq - bola bilmay, adashib xatoga yo‘l qo‘ygan chog‘da uning yaxshiligi haqida boshqalar (o‘qituvi, o‘quvchilar)ni ishontirib, bola uchun mas'uliyatni o‘z ustiga olmoq.
- Kengashmoq - bola sinf jamoasi oldida turgan muammoni birgalikda muhokama qilmoq.
- Koyimoq - jazo berishning yengil turi. Bolaga tanbehlovchi so‘z aytmoq, tanbeh bermoq, urishib qo‘ymoq.
- Kuzatmoq - sinf ahlining, har bir bolaning xulq-atvorini zimdan qarab, tekshirib turmoq, ko‘zdan kechirmoq, qayd qilmoq. Ko‘rsatmoq - bolaga, bolalarga o‘rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat e'tiborlarini jalb qilish.
- Maqtamoq - bolani uning o‘ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko‘rsatib gapirmoq, yaxshi qilib ko‘rsatmoq.
- Nasihat - sokin, xayrixohlik vaziyatda bolani yaxshi yo‘lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o‘git.
- Ovutmoq - bolaning, uning oilasining boshiga biror kufat tushganda unga tasalli berib yupatmoq, ovuntirmoq, yo‘g‘lashdan to‘xtatmoq.
- Odatlantirmoq - odob me'yorlarini mashq qildirish. Masalan, salomlashish, murojaat qilish, mehribonlik ko‘rsatish va hokazolarga odat paydo etmoq, o‘rgatmoq.
- Oqlamoq - shunday vaziyatlar bo‘ladiki, bola yil bo‘yi ajoyib xulq-atvor, o‘qit namunalarini ko‘rsatib keladi-yu, bilib-bilmay bir xatoga yo‘l qo‘yadi. Masalan, birov bilan urishib qoladi; hasharga kelmay qoladi va h.k. Shunday holda o‘qituvchi - sinf tarbiyachisi uni (oldingi namunali xulqi hurmati) oqlamog‘i kerak.
- So‘ramoq - bolaning ilmiy va axloqiy bilimlari haqida ma'lumot olmoq, tekshirmoq, norasmiy imtihon qilmoq. Talab - tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qa'iyat bilan so‘rab turish.
- Tasalli bermoq - muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolani yupatish, ko‘ngil ko‘tarish uchun gapirmoq, ish-harakat qilmoq.
- Ta'birlamoq- bolada. Sinf ahlida, jamoat ahlida uchrab turuvchi hatti-harakatlarni sifatlamoq.
- Ta'kidlamoq - bolalar bilan o‘tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan ahloqiy mazmunni uqtirib, tayinlab bermoq.
- Taqdirlamoq - o‘quvchini, farzandni qadrlamoq, munosib baholamoq, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirmoq.
- Taqiqlamoq - tarbiyaviy maqsadda bolaga, o‘quvchiga biron narsani ma'n etmoq.

▪ Tahsinlamoq - o‘quvchini, farzandni “balli”, “ofarin” kabi so‘zlar bilan qarshi olmoq, maktab yuksak baholamoq.

▪ Tenglashmoq - bola, o‘quvchi biror taqsinga sazovor ish qilganda uning hatti-harakatini eng hurmatli, aziz kishilar hulqiga qiyoslash, yomon ish qilganida esa o‘z qishlog‘i, mahallasi, hududidagi “yomon” deb nlm qozongan shaxs hulqiga o‘xshatmoq, taqqoslamoq.

▪ Tergamoq - vaqti-vaqti bilan bolaga yetarli davrajada qattiqqo‘llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo‘ya hatti-harakatlari uchun koyib “yo‘li”dan qaytarib turish.

▪ Uyaltirmoq - noma'qul qilig‘i uchun bolaga o‘ta noqulaylik tug‘dirish, hijolat, andisha, nomus qildirmoq.

▪ Shavqlantirmoq - bolaning xulqi, o‘qishidagi muvaffaqiyatlari. Kelajagiga g‘oyat mamnunlik hissi bilan berilmoq, ruhiy ko‘tarinkilik bilan qiziqmoq, zavqlanmoq va zavqlantirmoq, qanoatlantirmoq.

▪ Erkalatmoq - o‘g‘il bolani “qo‘zichog‘im”, “she'rim”, qiz bolani esa “oppog‘im”, “onajonim” deya silab-siypalamoq, suymoq.

▪ Yalinmoq - agarda boshqa xil usul kor qilmasligiga ko‘z yetsa, bola qalbida mehrni yangilash, uyg‘otish maqsadida uni biror narsaga ko‘ndirish uchun iltimos qilmoq; o‘tinib so‘ramoq.

▪ Yarashtirish – oilada, sinfda ba'zan uchraydigan o‘zaro urush-janjalni to‘xtatish, urishmaslikka ahd qildirmoq, munosabatni yaxshilamoq, totuvlashtirmoq.

▪ O‘ynamoq - bola bilan unda ijobiy sifatlarni rivojlantirish, salbiy sifatlarni yo‘qotish maqsadiga yo‘naltirilgan ma'lum qoida va usullar bilan ijro etiladigan o‘yinlarni birga o‘ynash usuli.

▪ O‘rgatmoq - bolaga biror ish harakat (masalan, choy damlashni, turli joy, vaziyatlarda o‘zini tutishni, gapirishni va h.k.) bajarish usulini, yo‘l-yo‘rig‘ini tushuntirmoq, bildirmoq va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilmoq.

▪ O‘qitmoq - yozilgan narsani yoki matnni undagi belgilar, harflar vositasida aynan aytib, eshittirmoq.

▪ Qaytarmoq - bola, o‘quvchi jahli chiqib, qizishib biror kor hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko‘rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo‘ya ishdan, hatti-harakatdan o‘zini tutishga undamoq, tiymoq.

▪ Qiziqchilik qilmoq - o‘quvchi, bola bilan munosabatda rasmiyatchilikni, psixologik tanglikni bartaraf qilish maqsadida mavzuni burib yuborish, ermak, hazil qilish, bolani kuldirish.

▪ Sovg‘a berish – bolaga bayram, hayitlar munosabati bilan imkon darajasida tuhfalar qilib, uning mehrini yangilab, oshirib turish.

▪ Homiylik qilish – bolaga biror sohaga qiziqib, berilib shug‘ullansa, bu ishda unga yordam, madad berish, muhofaza etish.

Quyida sharhlanayotgan milliy tarbiya metodlari xalqimizning o‘g‘il-qizlarga madaniy, mehrli-talabchan munosabatini, bola shaxsiga hurmatini saqlab qolib, oilada va maktab tarbiyasida qo‘llash imkonini beradi.

Masala bo‘yicha o‘rganishlarimizdan ayon bo‘layaptiki, har bir ota-ona o‘z farzandining sog‘lom va baxtli bo‘lishini istaydi. Shunga qaramay, ba'zan o‘zimiz bilib-bilmay bunga qarshi ish qilamiz.

O‘rganishlarimiz bolaga tarbiyaviy ta'sir o‘tkazishning salbiy usullari ham mavjud. Amaliyotda bartaraf qilish uchun ular ham tahlil qilinib, o‘rganilmog‘i kerak. Bu, ayrim o‘qituvchilar, ota-onalarda uchrab turadigan pedagogik-psixologik xatolarni tuzatib olishlariga yordam beradi. Ular quyidagilarni tashkil etadi:

- Aldamoq - yolg‘on-yashiq gaplar bilan, va'dalar bilan avramoq, laqillatmoq; Bachkanalashmoq - o‘qituvchi, ota-onaning kattalarga, ulug‘larga nomunosib qiliklar, hatti-harakatlar qilishi;
- Vaysamoq- bolalarni, o‘quvchilarni tomonlarga bo‘lib, bir-biriga qarshi oyoqlantirib, tezlab, ular orasidagi ziddiyatni kuchaytirmoq; nizoni avj oldirmoq, olqishlamoq;
- Gina qilmoq - o‘quvchiga, bolaga nisbatan dilda xafalik, kek saqlamoq ;
- Yomonlamoq - bolaning oldida yoki orqasidan uni yomonlab, yomonga chiqarib, qoralab gapirmoq;
- Zarda qilmoq - bolaga, o‘quvchiga hadeb zarda, jahl qilaverish;
- Zorlanmoq - bolalar qoshida biror narsadan, vaziyatdan nolimoq, shikoyat qilmoq, hasad qilmoq, nochorlikni namoyon qilmoq;
- Majbur qilmoq - hech bir asossiz o‘quvchining, sinfning munosabati bilan hisoblashmay, amr, zo‘rlik bilan yoki biror narsa taqozosi bilan bir ishni qilishni buyurish, ko‘r-ko‘rona talab;
- Nizo – o‘qituvchi va o‘quvchi, bola va ota-ona orasida o‘zaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik, adovatli munosabat, ixtilof, nifoq hosil qilish;
- So‘kmoq - bolani yomon, uyat so‘zlar bilan urishmoq, haqorat qilmoq. (odatda bu usul so‘kiluvchining so‘kuvchiga behrligiga olib boradi);
- Ho‘mraymoq - farzandga, o‘quvchiga, qovog‘ini solib tikilmoq, yomon ko‘z bilan qaramoq;
- Qarg‘amoq - farzandga, bolaga yomonlik, baxtsizlik yoki o‘lim tilab koyimoq; yomon niyat tilamoq.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarda milliy fazilatlarni tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari bugungi asrning eng dolzar masalaridan biri hisoblanadi. Bu masalada ota-onalarning, tarbiyaga mas'ul shaxslarning milliy tarbiya, milliy xarakter, milliy fazilatlar va ularning shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini bilmasdan turib ularni barkamol qilib tarbiyalashning imkoni yo‘q. Qolaversa bugungi yoshlarimiz real voqelikdan ko‘ra, vertual voqelik ta'siriga ko‘proq tobe bo‘lib borayotgan bir vaqtda tarbiya masalasidagi ishlarimizni yangicha, zamonaviy yo‘nalish va yondashuvlarda tashkil etishimiz juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1.Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrь 1059-sonli Qarori.

2. X.Jabborov. “Milliy tarbiya - ijtimoiy-psixologik, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida”. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya. ISSN: 2181-1776. “Bilig – ilmiy faoliyat” nashri http://bilig.academiascience.or. Jild: 03 | nashr: 02 | fevral 2022. 108-118

3. M.Quronov. “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” Toshkent «Ma'naviyat» 2013. 320 b.

4. Jabborov Xazrat Xusenovich. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.

Qosimov Ubaydulla Axrorovich,

Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi «Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari » kafedrasi mudiri ps.f.n., dotsent



TASAVVUF TA'LIMOTINING ZAMONAVIY O’QUVCHI SHAXSINI MA’NAVIY RIVOJLANISHIDA VA ULAR ONGIDAGI QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASIDAGI ROLI

Annotatsiya. *Qadriyatlarimizning durdonasi bo‘lmish tasavvuf ta'limotining inson ma’naviyati, ma'rifati va madaniyati rivoji uchun xizmati beqiyos, albatta. Chunki inson shaxsining ijobiy, ibratli ma'naviy muhitda taraqqiy qilib, kamol topishiga, tasavvufning yuksak insonparvarlik g‘oyalari o‘zini o‘zi anglash, takomillashtirish, samarali boshqarish va taraqqiy ettirish g‘oyalari yosh avlodni smarali shakllantirishda ahamiyatlidir. . Barkamol avlod tarbiyasi ustivor yo‘nalish bo‘lgan hozirgi kunda inson shaxsini samarali taraqqiyotiga, kamolotiga xizmat qiladigan ta'limotlarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish va ulardan oqilona foydalanish davr talabidir.*

Kalit so’zlar: *tasavvuf ta'limoti, ma’naviy rivojlanish*

Аннотация. *Служение психологии суфизма, являющейся шедевром наших ценностей, безусловно, может послужить развитию человеческого просвещения и культуры. Это несравнимо ни с чем. Потому что в эффективном формировании подрастающего поколения важное значение имеет развитие и взросление человеческой личности в позитивной, поучительной духовной среде. Высокие гуманистические идеи психологии суфизма активизируют самореализацию и совершенствование, а также эффективное управление и развитие. . В настоящее время, когда воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом, велением времени является глубокое изучение, анализ и рациональное использование учений, служащих эффективному развитию и совершенствованию человеческой личности.*

Ключевые слова: *мистика, духовное развитие.*

Abstract. *The service of the psychology of Sufism, which is a masterpiece of our values, can certainly serve the development of human enlightenment and culture. This is incomparable with anything. Because in the effective formation of the younger generation, the development and maturation of the human personality in a positive, instructive spiritual environment is important. The high humanistic ideas of Sufism’s psychology, activates self-realization and improvement, as well as effective management and development. . At present, when the upbringing of a harmoniously developed generation is a priority, the imperative of the time is a deep study, analysis and rational use of the teachings that serve the effective development and improvement of the human personality.*

Key words: *mysticism, spiritual development*

Inson tabiat va jamiyatni bezatuvchi, belgilovchi, asrovchi, takomillashtiruvchi qudratli kuch sifatida ularning taqdirida hal qiluvchi vazifa bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun inson omili, uning kamoloti hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi va bu borada ijtimoiy-tarixiy dalillarga, real materiallar (ashyolar)ga, qo‘lyozma hamda ilmiy ta'limotlarga murojaat qilish, izlanish, tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Yuksak milliy qadriyatlarimizning durdonasi bo‘lmish tasavvuf ta'limotining inson ma'rifati va ma’naviyati, madaniyati rivoji haqida gap borganda, biz —mana shu qutlug‘

zaminimizda tug‘ilib voyaga yetgan muborak nomlari butun dunyoda cheksiz ehtirom bilan tilga olinadigan Xoja Abduholiq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Vali, Mahdumi A'zam-Ahmadi Xojagon kabi piri komillarimiz ko‘z oldimizda gavdalanadi.. Ma'naviy hayotimizni mana shu ulug‘ nomlar bilan bog‘laymiz. Biz bu mutafakkirlarimizning bebaho merosidan butun xalqimiz, jumladan yoshlarimizning ham bahramand bo‘lishiga, ularning mana shunday ijobiy, ibratli ma'naviy muhitda taraqqiy qilib, kamol topishiga, tasavvufning nafaqat yuksak insonparvarlik g‘oyalari balki o‘zini o‘zi anglash, takomillashtirish, samarali boshqarish va taraqqiy ettirish psixologiyasi yosh avlod yuragidan ham joy olishiga davlatimz tomonidan yuksak e'tibor berilmoqda va shart-sharoit yaratilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasi ustivor yo‘nalish bo‘lgan hozirgi kunda inson shaxsini samarali taraqqiyotiga, kamolotiga xizmat qiladigan ta'limotlarni chuqur o‘rganish, tahlil qilish va ulardan oqilona foydalanish davr talabidir.

Shaxs taraqqiyoti va uning pirovard natijasi bo‘lmish komil inson muammosiga alohida e'tibor qaratgan ta'limotlardan biri tasavvufdir. Qaysi mamlakatda shaxs taraqqiyoti, komil insonni shakllantirish, u haqida g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, o‘sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik mutlaq xalq yo‘lida xizmat qiluvchi yuksak ma'rifat, madaniyat va rivojlanish ro‘yobga chiqadi.

Nasafiyning “Xoji Ahmad Yassaviy” risolasida islom dinida «So‘fiylik oqimi, payg‘ambar zamonasidayoq vujudga kelgan», deyiladi. Abulhakim Shar'iy Juzjoniy «Tasavvuf ta'limotining ildizlari» («Muloqot», 1995, № 1—2) maqolasida tasavvuf so‘zi «...«so‘f», yani kiyimni kiymoq, so‘fiy bo‘lmoq va shuningdek haq yo‘lidan yuruvchi bo‘lmoq va darvishlar tariqasi ma'nolarida qo‘llanadi. Tasavvuf so‘zi bir istiloh(atama) sifatida uning payrovlari aqidasiga binoan nafs(ichki dunyo)ni pokizalash natijasida inson qalbida haqiqat yog‘dusi porlay boshlaydi» deydi. Uning fikricha, tasavvuf va irfon tushunchalari bir-biriga yaqindir, shu tufayli har ikkala so‘z bir ma'noda ham ishlatiladi. Ba'zilarning fikricha, tasavvuf irfonning bir bo‘limi va uning ko‘rinishlaridan biridir, ya'ni tasavvuf yo‘l-yo‘riq va tariqat sifatida irfondan ajralib chiqqan. Irfon esa umumiyroq tushuncha bo‘lib, tasavvufdan boshqa yo‘l-yo‘riq va mazhablarni ham o‘z ichiga oladi.

Tasavvuf ta'limotida inson kamoloti va barkamollik masalasi qator olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Tasavvuf ta'limotiga oid bo‘lgan fikr-mulohazalar, uning mohiyati xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Shayh Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Muhiddin ibn al-Arabiy, Yahyo Suhravardiy, Nasimiy, Mashrab, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hoja Ahror Valiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning asarlarida o‘z aksini topgan. Tarix tajribasi va buyuk bobokalonlarimiz madaniy-ma'rifiy me'roslari bugungi kundagi ma'naviy islohotlar asosiy zamini bo‘lib hizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ma'naviy islohotlarni amalga oshirish va hayotga tadbiq etish borasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda va risolalar chop etilmoqda. Mustaqillik yillarida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo‘nalishi bugungi kunga kelib o‘zining sifat darajasiga ko‘tarilmoqda. Hozirgi kunga qadar tasavvuf ta'limotining tarixi va mohiyati to‘g‘risidagi va shahs ma'naviyatiga xizmat qilayotgan ko‘plab maqolalar, kitoblar chop etilmoqda, hamda keng hajmda ilmiy-tadqiqot ishlar olib borilmoqda. Taniqli tasavvufshunos olim va tarjimon Najmiddin Komilovning -”Tasavvuf yoki komil inson axloqi (1996) asari va birinchi, ikkinchi -”Tasavvuf (t: 1999) kitobining chop etilishi o‘zbek tasavvufshunosligida jiddiy voqyea bo‘ldi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ilmiy-ijodiy faoliyatini alohida ta'kidlab o‘tish lozim. Uning -”Buyuk siymolar, allomalar, o‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar” to‘plami, “Bahouddin

Naqshband va uning ta'limoti haqida”(Toshkent, 1995-yil), “Markaziy Osiyoning eng yirik so‘fiy tariqatlari” asarlari diqqatga sazovordir.

Mazkur ishlar qatorida M.Boltaev, R.N.Nosirov, A.Zohidiy, M.Xayrullaev, Ibrohim Haqqul, Sultonmurod Olim, Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf va chet el olimlaridan Bertels, Yurgan Paul, turk olimlaridan Mahmud As'ad Jo‘shon, Usmon Turar kabi bir qancha olimlar izlanishlar olib borganlar. Tasavvuf ta'limoti tarixi mohiyati borasida juda ko‘p ilmiy izlanishlar olib borilgan va borilayotgan bo‘lsada, uning psixologiyasi, psixologik jihatlari talqini borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borish ehtiyoji mavjud(U.A.Qosimov-“Tasavvuf psixologiya shaxs taraqqiyotida muhim omil”, Toshkent “IJOD PReSS” 2019-y, 200 bet). Tasavvuf ta'limoti psixologiyasida shaxs taraqqiyoti, barkamol insonni shakllantirish, nazariyasi va amaliy mexanizmlari bosh masala hisoblanadi.

Inson ma'naviy, intellektual va axloqiy taraqqiyotining yuksak bosqichi komil insonlar yuksak insoniy fazilatlar bilan jilolangan, zohiri va botinida benuqson maqomga ega bo‘lgan zotlardir. Shayx Fariduddin Attor rivoyatlariga ko‘ra shayx Abul Xasan Xoragoniy bunday degan ekanlar: «Koshki barcha xalqning o‘rnida men o‘lsaydim, o‘shanda xalq uchun o‘lim bo‘lmasdi. Koshki, barcha xalqning hisob-kitobi mendan so‘ralsaydi, o‘shanda qiyomat kuni ular uchun so‘roq bo‘lmasdi. Koshki, barcha xalq o‘rnida meni jazolashsaydi, o‘shanda ularni do‘zaxga olib borishmagan bo‘lardi». Sa'diy Sheroziy bu borada aytadiki: «Toat-ibodat tasbeh tutib, jundan eski libos kiyib, namoz o‘qib yashash bilan bo‘lmaydi, u Xoliq va xalqning xizmatidan boshqa narsa emas».

Tasavvufdagi ana shu bosh g‘oyani psixologik jihatlarini tushunmas ekanmiz, o‘tmish tariximizda o‘tgan, haqiqatan ham mavjud bo‘lgan ulug‘ zotlar, avliyo va anbiyolarning mohiyati va bugungi kunda uning ahamiyatini tushunib yeta olmaymiz. Tasavvuf ta'limoti aqidasining asosi yagona dunyoviy va botiniy haqiqat-man etilgan ishlardan saqlanishdir. So‘fiylar fikricha, yuksak ilohiy ishq har qanday g‘arazli manfaatlardan holi bo‘lishlik hisoblanadi. Tasavvuf ta'limotiga ko‘ra, borliqdagi hamma xilqatlarda, xususan, odamzodda ham ilohiy buyuk Koinot zarralari bor. So‘fiyning maqsadi ko‘nglidagi shu zarralarni uzoq va mashaqqatli poklanish orqali buyuk Koinot bilan birlashishdir. Aytish joizki, din Qur'oni Karimning zohiriy ma'nolari, ya'ni ko‘pchilikka tushunarli ma'nolari doirasida amal qiladi. tasavvuf Qur'oni Karimning botiniy ma'nolari, ya'ni faqat xos, alohida kishilargagina tushunish nasib etadigan ichki nozik ma'nolari bilan ish ko‘radi. Doktor Javod Nurbaxsh «So‘fiylar behishtida» asarida buyuk mashoyihlarning so‘zlariga ko‘ra tasavvufni so‘z bilan ifodalab bo‘lmasligini, so‘z bilan ifodalanuvchi narsa tasavvuf emasligini yozadi. Uning fikricha, «tasavvuf — ishq ozuqasi va tahdid yo‘li bilan haqiqatga olib boradigan tariqatdan iborat».

Yuqoridagilardan xulosa chiqarish joizki, har bir olim tasavvufni o‘z dunyoqarashiga muvofiq tariflagan. Tasavvuf har bir mutasavvufning ichki olamidagi ruhiy jarayon bo‘lib so‘fiy hol va maqomiga ko‘ra tasavvufning ma'lum jihatini bayon etadi. Bir so‘fiyning tasavvuf haqidagi ta'rifi boshqasidan farqli bo‘lishi tabiiydir.

Ingliz tasavvufshunos olimi J. S. Trimingem Markaziy Osiyoda tasavvuf ilmining rivojida ikki buyuk mutavassuf nomini alohida hurmat bilan tilga oladi. Bularning birinchisi — Abul Hasan Ali al-Xoroqoniy (milodiy 1034 yili 80 yoshida vafot etgan) bo‘lsa, ikkinchisi- Abu Ali al-Farmadiy (1084 yili vafot etgan)dir. Farmadiyniig ikki shogirdi tasavvuf ilmida shuhrat toptan. Bu avvalo Axmad al-Razzoliy (1122-yilda vafot etgan) bo‘lsa, ikkinchisi Abu Yusuf al-Hamadoniydir. Tasvvuf tariqatining ko‘p silsilasi ana shu ikki shogirddan boshlanadi. “Xojagon”, Naqshbandiya”, “Yassaviya” tariqatlari shular jumlasidandir. Yurtimizda buyuk yetti pir nomi bilan mashhur Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy, xoja Orif ar Rivgariy, xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy, xoja Azizon ar Rometaniy, xoja Bobo as Somosiy, xoja Said mir

Kulol, xoja Bahouddin Naqshbandiy mutasavvuflarning “xojagon-naqshbandiya” ta'limoti xoja Abu Yusuf al-Hamadoniy tasavvuf ta'limotlaridan unib o‘sgandir.

Hozirgi davrda qator ulug‘ ajdodlarimizning ta'limotlari yanada chuqur ilmiy tadqiq etilib, ularning asarlarini nashr qildirishga ko‘rsatma berilishi ularning qadamjolari qaytadan rekonstruksiya qilinayotganligi jahonshumul ahamiyat kasb etadi. Bu o’z navbatida o’sib kelayotgan zanonaviy yoshlkartimiz ma’naviyatini rivojlantirishga salmoqli hissa qo’sha oladi. Jumladan Davlatimiz rahbarining 2018-yil 16-fevralida Buxoro viloyatiga tashriflari chog‘ida dunyoda “yetti pir” nomi bilan mashhur tasavvuf ta'limotining buyuk namoyandalari qadamjolarini obod qilish va ularni bog‘lovchi turizm yo‘nalishini tashkil etish borasida ko‘rsatmalar, hamda 2019- yilning 29-martida Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi xojagon naqshbandiya tasavvuf ta'limoti asoschisi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy maqbarasiga tashrifi chog‘ida allomalarimiz ma'naviy merosini to‘g‘ri va chuqur o‘rganish, xalqimizga yetkazish borasida topshiriqlar berilganligi, 2020-yilda tasavvufning buyuk namoyandalari Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning tavalludining 915 yilligi va Bahouddin Naqshbandning tavalludining 700 yilligini nishonlash borasidagi ilmiy-amaliy ishlar ijtimoiy qiymat va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy psixologik hodisalar o‘tmish qadriyatlarima’naviyati bilan hozirgi davr ma’naviyatini uyg‘unlashtirish hamda ajdodlar bilan avlodlar vorisligini o‘rnatish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. ”Ma'rifat” gazetasi 2019-yil 30-mart 24-soni(9193)
2. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya.-T.: Universitet, I kitob, 2002. -236 bet.
3. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya.-T.: Universitet, I,II kitob, 2002. -238 bet.
4. G‘azzoliy Abu Homid Ihyou ulumid-din-T., Movarunnahr, 2003.-230 bet.
5. G‘azzoliy A. H. Mukoshafatul qulub-T. , Adolat, 2002.- 510 bet.
6. G‘ijduvoniy A. Maqomoti Yusuf Hamadoniy-T., Yangi Asr avlodi, 2003.-86 bet.
7. G‘ijduvoniy A. Vasiyatnoma, - T. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.-15 bet.
8. Qosimov U. Xoja Abdulxolik G‘ijduvoniy Xufiya zikri-Buxoro, 2003.-42 bet.
9. Qosimov U. Tasavvuf psixologiyasi shaxs taraqqiyotida muhim omil-Toshkent, Ijod press nashriyoti, 2019-200 bet



Olimov Laziz Yarashovich,
Buxoro davlat universiteti, Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti

SUD PSIXOLOG EKSPERTI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI PSIXODIAGNOSTIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog‘liqligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.*

Ключевые слова: *судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.*

Abstract. *This article discusses the study of the manifestation and development of factors of socio-psychological competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.*

Key words: *forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.*

Jahonda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentligining psixologik jihatlarini o‘rganish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish omillarini tadqiq etish, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarini baholash, ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga mo‘ljallangan maxsus tizimlashtirilgan psixologik usullar majmuini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, sud psixolog ekspertlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda sudlov va huquq-tartibot organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud psixolog ekspertlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

“Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida sud ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu qonunda ko‘rsatib o‘tilgan bunday muhim vazifalarni bajarishda sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy sifatlariga xos bo‘gan xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion va rivojlantiruvchi usullar orqali ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish dolzarb muammo sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 17-martdagi PF-89-son “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 13-dekabrdagi 705-sonli “Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2023-yil 21-fevraldagi 73-sonli “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida sud-psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligining yuqori bo‘lishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Zamonaviy psixologiyada sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentligi namoyon etilishi va rivojalanishi muammosini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, ulardagi kasbiy va ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga aloqador bo‘lgan ko‘plab psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga alohida e’tibor qaratdik. Bir qancha ilmiy adabiyotlarning tahliliga asoslanadigan bo‘lsak, ijtimoiy-psixologik kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘ishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik jarayoni nafaqat ijtimoiy va tatbiqiy psixologiya, balki ko‘pgina psixologiya fanlarining ham amaliyotda qo‘llanilishida ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shunday kategoriya ilmiy adabiyotlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, kasbiy faoliyat samaradorligiga faqat kompetentlik vositasi sifatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlik mezoni sifatida baholash uchun mukammal darajadagi yagona ilmiy metodologik ishlanma hali qabul qilinmagan.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan kuzatishlarimiz va tadqiqot muammosiga aloqador bo‘lgan fundamental adabiyotlar tahlili ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammolari bilan shug‘ullanuvchi olimlarning qarashlariga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi deganda - sud psixolog ekspertining shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki, bunda yetarlicha yuqori darajada

amaliy kasbiy faoliyat, kasbiy muomalani amalga oshira olishi nazarda tutiladi. Ayni paytda, sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi uning kasbiy bilim va malakalari, boshqa bir tomondan esa kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlari mutanosibligi bilan baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste'dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda "qobiliyat" tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'ramiz.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I.Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari doirasida o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta'lim jarayonidir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo'ysunadi:

– yaxlitlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;

– ob'ektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, ob'ekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;

– sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;

– turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, kompetentlik faqatgina individual psixologik xususiyat bo'libgina qolmasdan, balki hissiy-irodaviy sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Agarda mana shu hissiy-

irodaviy sifatlar bo‘lmaganida edi, sud psixolog eksperti o‘z kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil qila olmas edilar.

M.Kyaerst tadqiqotlarida kompetentlikning mohiyati va uning asosi sifatida (qobiliyatlar, iqtidor, bilim), inson faoliyati jarayon sifatida (ta’riflar, tavsiflar, alomatlar), faoliyat natijalari (ish natijalari, faoliyat ob’ektidagi o‘zgarishlar) kabi komponentlar kiritiladi. Muallif kompetentlik mazmuniga quyidagi tavsiflarni kiritgan:

– lavozimda ishlayotgan shaxs(xodim)ga majburiy bo‘lgan masalalarga intellektual mosligi;

– mutaxassis tomonidan shakllantirilgan va hal etilgan masalalarning asosiy ishdagi miqdori va sifati;

– asosiy masalalarni hal etishdagi muvaffaqiyat;

– muammoli masalalar yechimining samaradorligida namoyon bo‘luvchi shaxsning xususiyatlari. Bu yerda olim kompotentlik tushunchasiga ko‘proq insonning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib yondashgan.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko‘nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya’ni insonlar bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish malaka va ko‘nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo‘nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo‘lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to‘laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta’kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi, faoliyatda qanaqadir turg‘unlik bo‘lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o‘ziga xos bo‘lgan me’yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tajribasi, ya’ni ko‘nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o‘zaro ta’sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo‘lish holatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekpertizasi jarayonida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali qo‘llash sud psixolog ekspertidan o‘zini-o‘zi idora qilish va o‘zini-o‘zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlar ma'naviyatini yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'naviyat,o'smir,axloq, milliy qadriyatlar,shaxs shakllanishi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются особенности воспитания духовности подростков.*

Ключевые слова: *духовность, подросток, нравственность, национальные ценности, формирование личности.*

Abstract. *This article discusses the specific features of raising the spirituality of teenagers.*

Key words: *spirituality, teenager, morality, national values, personality formation.*

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma’naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Ma’naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Mavzuning dolzarbligini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, bizning jamiyatimizga yot bo‘lgan kuchlar: terroristlar, diniy aqidaparastlar, transmilliy, kiberjinoyatchilik va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarni tashuvchilar asosiy e’tiborni o‘smirlar va yoshlarni o‘z tomonlariga ag‘darib olishga harakat qilmoqdalar. Sababi ma’naviyatga qilingan tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishini mumkinligini ular juda yaxshi anglashadi. yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta’lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish.shu munosabat bilan o‘zbekiston globallashuv va axborotkommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – bmtning yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o‘z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarish bo‘yicha qat’iy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak”. hammamizga ma’lumki, 2018-yil 12-dekabr kuni bmt bosh assambleyasining yalpi sessiyasida o‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan “ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” to‘g‘risidagi rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi. biz ana shu ikki omil yoshlar tarbiyasi masalalariga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun ularni aytib o‘tmoqdamiz.

Shuning uchun o‘smirlarni zo‘ravon va tajovuzkor kuchlarning qo‘liga berib qo‘ymaslik vazifasi ham ularning ma’naviyati shakllanishiga, bu jarayonning psixologik jihatlarini tadqiq etishga birinchi darajali vazifa sifatida yondashishni taqozo etadi.

O‘smirlar ma’naviyatini yuksaltirishda qadriyatlarning o‘rni muammosining psixologik jihatlarini, ayniqsa yoshlar va o‘smirlar ma’naviyati shakllanishi va rivojlanishining

psixologik jihatlarini o‘rganish naqadar muhimligi va ayni paytda mazkur muammo bo‘yicha maxsus o‘tkazilgan tadqiqotlarning yo‘qligi ham mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Buyuk nemis faylasuflaridan yana biri I.Kant ma’naviyatni o‘zini o‘zi anglash sifatida cheklab izohlamagan. Uning talqinida ma’naviyat “Insonni harakatlantiruvchi, jonlantiruvchi” tamoyildir. O‘zining “Sof aqlni tanqid” asarida ma’naviyat haqida shunday yozadi: “Ichki tuyg‘uning predmeti sifatida bu unsur nomoddiylik tushunchasini beradi; oddiy unsur sifatida mustahkamlik, butunlikni anglatadi; intellektual unsur sifatida shaxsni anglatadi; bularning barchasi birikib ma’naviyat tushunchasini vujudga keltiradi”.

Ma’naviyatni inson tabiatining o‘ziga xos xususiyati sifatida talqin qilish bilan birga, Kant insonning mohiyati ma’naviy taraqqiyotga intilishda namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlagan edi.Inson umri davomida ma’naviy komillik sari intiladi,bu narsa uning ma’naviy taraqqiyotiga sabab bo’ladi.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma’naviy qiyofamiz, muqaddas ma’volarimizni anglash, davlatchilik an’analarimizni tiklashga, xalqimizning istiqbol to‘g‘risidagi asriy orzularini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. O‘z qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi, buyuk ishlarga qodir ekanini his qiladi, istiqlolini omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg‘uradi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatning yangilanishiga xizmat qiluvchi ma’naviy omil hisoblanadi.

Mustaqillik davrida milliy ma’naviyatni tiklash va yuksaltirishga qaratilgan olamshumul ishlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin ma’naviyatni shakllantirish qadriyatlar asosida yuzaga kelishi nafaqat falsafa va boshqa ijtimoiy gumanitar fanlarning, balki ijtimoiy siyosatning ham markaziy masalalaridan biriga aylandi.

G‘arb va Sharq mutafakkirlarining ma’naviyatni shakllantirish to‘g‘risida bildirgan fikrlari tahlili shundan guvohlik beradiki, ularning ko‘pchiligi ma’naviyatni hayotiy qadriyatlar bilan bog‘lab izohlashgan. Shundan kelib chiqib, hayotiy qadriyatlarning mohiyatini aniqlash ma’naviyatning tub negizini anglashda yordam beradi, deb aytish mumkin.

Falsafa va aksiologiya fanlarida qadriyatlarning uchta asosiy belgisiga e’tibor qaratiladi:

1. Ular ijtimoiy ong tomonidan yaratilgan ijtimoiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi, ularda ijtimoiy hayotning turli jabhalaridagi narsa-hodisalarning komillik atributlari ifodalanadi. Bu qadriyatlar umuminsoniy, shaxsiy, tarixiy, adabiy,milliy va h.k. bo‘lishi mumkin;

2. Ular ma’naviy va moddiy madaniyat asarlari shaklida yoki insoniy xulq-atvor ko‘rinishida obyektivlashishi mumkin. Muayyan ijtimoiy ideallar (axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy va h.k.) da namoyon bo‘lishi mumkin.

3. Ijtimoiy qadriyatlar individ dunyoqarashi va psixikasi prizmasi orqali shaxsning psixologik tuzilmasiga kirib boradi va unda shaxsiy qadriyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu qadriyatlar uning xulq-atvorini belgilaydigan motivatsiyaga aylanadi.

Har bir inson o‘zining shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasiga ega. Bu qadriyatlar jamiyatning ma’naviy madaniyati vaa shaxsning ma’naviy olami o‘rtasida bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Shaxsning qadriyatlar tizimi uning faoliyati jarayonida jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyat asarlarida obyektivlashgan qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayonida shakllanib boradi. Shaxsning qadriyatlari ko‘pincha yuqori darajada anglangan bo‘ladi, ular shaxs ongida qadriyatlarga yo‘nalganlik tarzida namoyon bo‘ladi, hamda shaxs xulq-atvorining ijtimoiy munosabatlar bilan uyg‘unlashishi, tartibga solinishini ta’minlaydi.

Shaxs qadriyatlari ham, jamiyat qadriyatlari ham ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari ta’sirida o‘zgarib boradi, ularga hukmron mavqega ega bo‘lgan axloqiy konsepsiyalar ham kuchli ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun ham, universal xususiyatga ega bo‘lgan, davrlar o‘tsa ham o‘zgarmaydigan qadriyatlarni topish juda qiyin.

XX asrning so‘nggi choragida psixologiya fanida insonni bir butunlikda kompleks o‘rganish paradigmasi vujudga keldi. Insonni bir butunlikda o‘rganish ham ma’naviyatni tadqiq etishni talab etar edi.

Psixologiya fanida asosiy kategoriyalar hisoblangan shaxs, psixika, ong tushunchalari ma’naviyat bilan aloqada o‘rganila boshladi. Lekin, jamiyatda materialistik mafkura hukmron bo‘lgani uchun ma’naviyatga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar yo‘q darajada edi. Psixologlar ma’naviyatni ko‘pincha inson psixikasi, ongi, tanasi, asab tizimiga bog‘lab o‘rganishlariga to‘g‘ri kelar edi. Psixologiyada o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar ham psixika va ma’naviyatning inson jismi bilan tutashgan nuqtalarida o‘tkazilar edi. Mana shunday tadqiqotlarning o‘zi ham ongni, psixika va ma’naviyatni tadqiq qilish imkoniyati paydo bo‘lganidan dalolat edi.

“Ma’naviyat” shaxs motivlari tizimida ikki fundamental ehtiyojning individual ifodalanishi: 1) bilishga bo‘lgan ideal ehtiyoj; 2) “o‘zgalar uchun” yashash va harakat qilishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj. Ma’naviyat kategoriyasi bilan insonning dunyoni, o‘zini, o‘z hayotining mazmuni va mohiyatini anglashga bo‘lgan ehtiyoj mos keladi.Ma’naviy ehtiyoj insonning insonligini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi.Insonda faqatgina hayotiy ehtiyojlar bo’lsa edi hayvondan farqi bo’lmasdi. Ma’naviy ehtiyoj insonni jonzotlardan ajratib turadigan ehtiyoj hisoblanadi.

Ma’naviyatning yana bir muhim elementi inson tomonidan o‘zining axloqiy mavqeini baholash, o‘zining xulq-atvorini axloqiy me’yorlar bilan qiyoslash hisoblanadi. Ma’naviyat nuqtai nazaridan, axloq etiketning me’yorlari, qoidalarini bilishgina emas, balki ma’naviy qadriyatlarni o‘zining shaxsiy tajribasi, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni solishtirish va shu orqali o‘zining ma’naviy qadriyatlarini yaratish jarayonidir. Bu jarayonda xatolar, adashishlar bo‘lishi tabiiy, lekin insonda haqiqiy axloqiy qadriyatlarga intilish mavjudligi muhimdir. Bayon qilinganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, ma’naviyat tayyor me’yorlar va qoidalarning yig‘indisi emas, balki ma’naviy qadriyatlarni yaratishga yo‘naltirilgan ijodiy jarayondir.

Qadriyatlar inson hatti-harakatlari uchun dasturga aylanar ekan, shaxs va jamiyatning farovonligi sharti bo‘lgan ularning o‘zaro uyg‘unlashuviga intilishini ta’minlab turadi. Bu holatni barcha individlar ham anglayvermaydi, lekin insoniyat ma’naviy madaniyatni shakllantirib va yuksaltirib borar ekan, uni anglab, mustahkamlab boradi.

Ma’naviyat tarkibidagi estetik komponent hayotni qadriyat sifatida idrok qilish, shu qadriyatdan lazzatlanish; atrof-voqelikdagi go‘zallikni idrok qila olish qobiliyati, bu qobiliyatga ko‘maklashuvchi estetik his-tuyg‘ular, estetik idrok qilish tajribasi asosida va shakllangan mezonlarga tayanib estetik baho berish hamda shaxsning faoliyatidagi estetik did va ustanovkalardir.

Ma’naviyatning estetik komponentini shakllantirishda insonning ma’naviy jihatdan o‘zini o‘zi takomillashtirishida muhim rol o‘ynaydigan madaniyat va san’at katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, ma’naviyat murakkab tuzilmaga ega hodisa bo‘lib, o‘z ichiga juda ko‘p elementlarni qamrab oladi, bu elementlarning o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi ma’naviyatning rivojlanishida ulkan ahamiyatga ega bo‘ladi.

Estetik, bilish qadriyatlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lar ekan, ma’naviyatning qirralarini tashkil etadi. Shaxsning atrofdagi voqelik bilan o‘zaro faol ta’siri uning ma’naviy shakllanishidagi muhim shartdir, chunki ma’naviyatning mohiyati ijodga, voqelikni oliy

qadriyat mezonlari asosida o‘zgartirishga yo‘naltirilgandir. Shunday qilib, ma’naviyat shaxsni yaratuvchilikka, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga, insoniyat tomonidan yaratilgan qadriyatlar olamini bilishga, bilish axloqiy, estetik qadriyatlarni yaratishga yo‘naltirilgan ma’naviy-ijobiy faoliyatdir. Ma’naviyatning eng muhim komponentlari bilish va estetik sohalardir. Ular ma’naviyat tuzilmasidagi alohida sohalar bo‘lish bilan birga, inson faoliyatining turli jabhalari bilan ham, shuningdek, uning boshqa odamlar va qadriyatlar bilan bog‘liqligini ifodalaydi.

Ma’naviyatning komponentlarining har birini baholashda N.A.Koval quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1) umuminsoniy qadriyatlarga moslik;
2) shaxsning umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga intilishi;
3) yangi ma’naviy qadriyatlarni yaratishda ishtirok etishi;
4) yangi yaratilgan ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishdagi roli;
5) barqaror shaxsiy maqomni shakllantirishdagi roli;
6) ma’naviy qadriyatlarni tanqidiy o‘zlashtirishdagi roli.

Mazkur mezonlar qadriyatlarni bilish, o‘rganish uchun zarur, chunki ular ma’naviyatning tarkibiy qismlari tadrijini kuzatish va ulardan har birining shakllanishiga odamlarning e’tiborini tortish uchun zarurdir.

Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish va takomillashtirish uchun, avvalo, uni tashxislash talab etiladi. Chunki, yoshlardagi ma’naviyat tarkibiy qismlarining har biri qay darajada rivojlanganini aniqlamay turib, ma’naviyatni rivojlantirish bo‘yicha samarali tadbirlar ishlab chiqish ham, mabodo, ishlab chiqilsa, uni amaliyotga tadbiq qilish ham mushkuldir. Ma’naviyat tarkibidagi har bir komponent aniq tashxislangandan keyingina uni qaysi yo‘nalishda, qanday sur’atlar bilan va qanday vositalar yordamida rivojlantirish bo‘yicha reja tuzish va amalga oshirish mumkin. O‘smirlik davrida shaxs o‘zining ma’naviy yuksalishida hal qiluvchi qadamlarni qo‘yadi. Shu holatning o‘zi ham o‘smirlarni ma’naviy tarbiyalash va bu jarayonga ta’sir o‘tkazuvchi barcha omillarni, jumladan, psixologik mexanizmlarni tadqiq qilish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishidan guvohlik beradi. O‘smirlarni ma’naviy tarbiyalash ularning o‘zlarini o‘zlari tarbiyalashga yo‘naltirish bilan qo‘shib olib borilgandagina yuqori samarali bo‘lishi mumkinligi haqidagi faraz ham o‘z tasdig‘ini topdi.

Adabiyotlar:


1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. –T.: O‘zbekiston NMIU, 2016. – 56 b.

2. Muxsieva A.Sh. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nomzodi: 13.00.06 / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPU. – T., 2005. 14-bet.

3. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

4. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O‘smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

Xasanova Shoira Jumayevna,
Buxoro pedagogika kolleji boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi



OILA BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ER-XOTIN MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oila,uning barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *oila, er-xotin munosabatlari, egoistik qarashlar, tushunmovchilik, oilaviy nizolar.*

Аннотация. *В данной статье говорится о социально-психологических характеристиках семьи, обеспечивающих ее стабильность.*

Ключевые слова: *семья, супружеские отношения, эгоистические взгляды, непонимание, семейные конфликты.*

Abstract. *This article talks about the social-psychological characteristics of the family, ensuring its stability.*

Key words: *family, marital relations, egoistic views, misunderstanding, family conflicts.*

Nikoh − er bilan xotin hayotidagi bir davrdir, chunki aslini olganda, ularga alohida holda nikoh kerak emas. Nikoh oilani tashkil etib, uning muhim vazifasi farzandlar ko‘rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar davomiyligi bilan yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta’minlash, muqaddas urf-odatlarni saqlash va uni avloddan-avlodga o‘tkazishdek vazifalarni amalga oshiradi.

Bizningcha, oilada ana shunday vazifalarni amalga oshirish uchun insonparvarlik psixologiyasining asosiy prinsipini quyidagicha ifodalasa bo‘ladi. Farovon turmush va oilaviy baxt-saodatga erishish uchun oilaning asosini tashkil etuvchi er-xotin zarur insoniy sifat va fazilatlarni egallagan, har tomonlama barkamol, baxtli-saodatli, farovon turmushni ta’minlashga qodir (tayyor) kishilar bo‘lishi kerak. Ushbu tamoyil er-xotin va oilaning boshqa a’zolari munosabatlari uchun g‘oyat muhimdir. Real hayotdagi oilaviy munosabatlar va ularning barqarorligiga qanday ta’sir etuvchi omillar mavjud? Barqarorlikni ta’minlashning zarur shart-sharoitlari nimalar? . . . degan qator savollar yuzaga keladi. Biz tadqiqotlarimizda oilaning insonga yo‘nalganligi xususiyatidan kelib chiqqan holda, o‘zbek milliy-madaniy muhitidagi oilaviy munosabatlarni insonparvarlashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qator izlanishlar o‘tkazdik. Dastlab oilaviy o‘zaro (er-xotin misolida) munosabatlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omillar o‘rganildi. Ilmiy manbalarni o‘rganish va olib borilgan tadqiqotlarning tasdiqlashicha, oilaviy shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirish imkoniyatlari qator iqtisodiy, ijtimoiy, milliy-madaniy, shaxsiy-psixologik omillarga bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Oiladagi muammolar jamiyatning rivojlanish xususiyatlariga qarab o‘zgarib boradi. Ayniqsa, oila buzilishi «yangi nikohning boshlanishi» qanchalik ayanchli, hayajonli so‘z bo‘lishiga qaramay bugungi kunda oddiy bir holatga aylanib bormoqda. Bunga ko‘plab yosh oilalarning arzimas sabablarga ko‘ra, nikoh-oila munosabatlariga nisbatan yengiltaklik munosabati yoki turmush qurishga psixologik jihatdan tayyor emasliklari deb qarash mumkin.

Psixologlarning fikricha, oilada er-xotinni egoistik qarashlari, bir–birini tushunmaslik yoki tushunishni istamaslik, steriotip bo‘lib qolgan hayotlarini o‘zgartirishga harakat qilmaslik, yangi tashvishlarni birga yengishni istamaslik oqibatida, o‘z istak va qiziqishlarini

majburiy bo‘ysindirishlari orqali nizolar kelib chiqadi. Ko‘pincha bunday oilalar inqirozga uchraydi. Chunki, bunday holatlar yillar o‘taverishi bilan murakkablashib, jiddiylashib oxir oqibatda, ular ortiq birga yashay olmaydilar yoki yashashni istamay qoladilar, natijada oila buziladi. Bu ayniqsa, ko‘proq ajralishgan ayollarda oilaning iqtisodiy muammolari bilan birga yolg‘izlik hamda qayta oila qurish kabi salbiy asoratlarni keltirib chiqaradi. Ko‘pincha yosh oilalar qadimgi urf-odatlarni me’yoriga yetkazib nikohni rasmiylashtirishga ulgurishadi-yu, lekin qonuniy nikoh shartnomalarini tuzishni unutib qo‘yishadi. Natijada ajralish holati yuzaga kelganda ko‘proq oilaviy-mulkiy muammolar ko‘tarilib ajralishmagan oilalar ham ajralib ketmoqda.

Muammoning dolzarbligi: Dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida nikohlanuvchilarning ijtimoiy - huquqiy holatini hamda mulkiy munosabatlarini shartnomaviy asosda kafolatlash odatiy holga aylanib borayotgan bo‘lsada, xalqimiz nikoh shartnomalari haqida ozmi-ko‘pmi xabardor bo‘lgan bir vaqtda, hatto, qadim davlatchilik tarixida nikoh munosabatlari shartnomasi bugungi kunga qadar ham nikoh bitimi muhim ahamiyat kasb etganligi ta’kidlansada, biroq bizda shartnomaning ushbu turi milliy xususiyatlarimiz sabablimi jamiyatimizda hali u qadar ommalashib ketgani yo‘q(1).

Ajralayotgan oilalar birgina muammoning yechimidan xolos bo‘laman deb, o‘nlab yangi tashvishlarni vujudga keltiradilar. Natijada ajralishganlarni ko‘p qismi yolg‘izlik xasratida, afsuslanish kabi tuyg‘ular va iqtisodiy qiyinchiliklar girdobiga kirib qoladi.

Metodika: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ajralish salbiy asoratlarining eng yuqori ko‘rsatkichlari ayollarga aniqrog‘i qishloq ayollariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Quyidagi jadvalda so‘rovnomalar yordamida olingan natijalar o‘z ifodasini topgan. Natija ko‘rsatkichlari qishloq va shahar hududlarida istiqomat qilayotgan o‘zbek va rus ayollarining fikrlari bilan taqqoslangan. Bunda qishloq ayollari ko‘rsatkichlari, shahar ayollari va rus ayollari millatiga mansub ayollargga nisbatan, hududiy omillarning ajralish oqibatlariga ta’siri xususiyatlarini tahlil qilish yuqoriligini ko‘rish mumkin. Bunday farqlarning namoyon bo‘lishi bir qator omillarga bog‘liqdir: qishloq ayollari yashash muhitining shahar ayollarinikiga nisbatan o‘zgachaligi - oila qurish, yoshi o‘rtasidagi farqlar, ma’lumoti, saviyasi, psixologik savodxonlik darajasi pastligi va muloqot doirasining torligi, ota-onalarning farzandlar xohish-istaklariga ta’sir kuchining kattaligi, umuman, qishloq oilalarida oilaviy munosabatlarning an’anaviy shakllari ko‘proq saqlanib qolganligi, shu bilan birga, qishloq ayollari ajralishganidan so‘ng shaharlik ayollarga nisbatan og‘irroq vaziyatlarga tushib qolishi va boshqalar.

Olingan natijalarning korrelatsion tahlili ko‘rsatadiki, shahar ayollarining ruhiy holatiga ajralishning salbiy ta’siri qayta oila qurish qiyinchiliklari vujudga kelishida (r(0,70), (r(0,001) namoyon bo‘ladi. Qishloq ayollarining ajralishi oqibatida sevgi-muhabbat hislaridagi tushkunlikning ortishi ham yolg‘izlikni ko‘proq his qilishga sababchi ekanligini (r(-0,51), (r(0,01) tabiiy hol deb hisoblash mumkin. Bunda ham etnik xususiyatlari ya’ni, qishloq muhitining o‘ziga xos tomonlari yaqqol sezilib turibdi.

Metodika natijalari: Quyidagi jadvalda hududiy omillarning ajralish oqibatlariga ta’siri xususiyatlarini tahlil qilish orqali ajralishning ayollarga salbiy ta’siri ko‘rsatkichlari keltirilgan (ballar hisobida n=120).

t/r	Ajralishning salbiy asoratlari	Qishloq ayollari Mx±m1	Shahar ayollari Mx±m1	t-ning qiymati
1	Ruhiy holati, asabiga	3.0 ± 0,14	3.0 ± 0,10	-
2	Oilaning iqtisodiy holatiga	3.0 ± 0,14***	2.4 ± 0,11	3,52
3	Oilaviy baxtga	3.2 ± 0,14***	2.7 ± 0,16	3,57
4	Qayta oila qurishga	3.5 ± 0,16***	3.0 ± 0,16	2,27
5	Farzand tarbiyasiga	2.9 ± 0,12	2.9 ± 0,10	-
6	Sevgi-muhabbat hislariga	0.2 ± 0,16***	3.0 ± 0,16	1,25
7	Ota-onasi bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlariga	2.4 ± 0,18***	0.9 ± 0,16	6,25
8	Sog‘ligiga	2.2 ± 0,10	2.0 ± 0,11	1,66
9	Yolg‘izlik hislarining yuzaga kelishiga	2.3 ± 0,14	3.1 ± 0,15***	4,0

Izoh: **M_x**-o‘rtacha qiymat * - $p < 0,05$
m_1-statistik xato ** - $p < 0,01$
p-farqlar ishonchliligi *** - $p < 0,001$

Xulosa: Ajralishganlar yillar davomida bo‘lib o‘tgan yaxshi, yomon voqealarni eslashadi, juda qattiq qayg‘uradilar, ba’zilari uzoq vaqt davomida sobiq turmush o‘rtog‘idan nafratlanib yuradilar. Shu vaqt mobaynida inson o‘zini xuddi ikki o‘t o‘rtasida qolgandek his etadi, o‘z-o‘zidan g‘azablanadi, atrofdagilar uchun zararli kishi deb biladi va o‘ziga talablarni kuchaytiradi. Bundan o‘zi siqiladi va azob chekadi. Bunda salbiy holatlarning oldini olishda ajralish istagidagi ayollarga bir nechta maslahatlarni berishni lozim topdik:

- oila buzilishidan oldin his-tuyg‘ularga berilib ketmasdan mukammal uylab ko‘ring. Xayolingizni bir joyga to‘plab, bolalar uchun turmushingizni saqlab qolarsiz. Yolg‘izlikni yengib o‘tish juda qiyin sinov ekanligini yodda tuting;

- g‘am- alamlardan chiqishingiz uchun psixologlarga murojat qilish yoki ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq qilish yaxshi samara beradi. «Qalbaki ajralish» metodini qo‘llab ko‘ring. Bir uyda yashab turib xo‘jaliklaringizni alohida yuriting. Gohida bir-biringizdan alohida yashab ko‘rishga, dam olishga harakat qiling, bir–biringizni, ayblamay xafa bo‘lmay o‘ylab ko‘rib, taroziga soling balkim boshqa yechim toparsiz. Psixologlar hisoblashicha bu butun oila uchun ham yaxshi turtki bo‘lib xizmat qilishi mumkin;

- turmush o‘rtog‘ingizdan voz kechishga shoshilmang, unga hohlagan paytda ulgirasiz.

Siz unga o‘z qarashlaringizni moslashtirishga harakat qiling, uning hamda do‘stlarini va qarindoshlarini hurmatini joyiga qo‘ying, garchi ular sizga yoqmasa ham;

- turmush o‘rtog‘ingiz hohishlari va qiziqishlari bilan hisoblashing janjal, nizo chiqarmaslikka harakat qiling. Aql-idrokni ishga soling;

- o‘z muammolaringizni yechilishini birgalikda axtaring, bir-biringizga gapirgan gaplarni o‘ylab ko‘ring. Agar bahslaringiz oxiri salbiy tugashini sezsangiz gapni boshqa yoqga burgan ma’qul. Muammolaringizni keyinroq hal qilsa ham bo‘ladi;

- bir-biringizning kayfiyatlaringiz bilan hisoblashib, kayfiyati yomon bo‘lgan turmush o‘rtog‘ingiz janjal ko‘tarmoqchi bo‘lsa ham siz o‘zingizni qo‘lga oling. Ayrim masalalarni, mustaqil hatti-harakatlaringizni bajarishga o‘rganing. O‘z yaqinlaringizga muammolaringiz to‘g‘risida aytib bering, tinchlanishga harakat qiling;

- turmush o‘rtog‘ingiz qo‘polligiga qo‘pollik bilan javob bermang, uning muammolariga o‘z qiziqishingizni ko‘rsata biling.

- uzoq vaqtgacha bir biringizdan xafa bo‘lib, o‘ch olishga urinib payt poylab yurmang. Yomon fikrlar kelganda o‘zingizni yaxshi xotiralarni yodga olish bilan boshqara biling. Kek saqlamang. Axir siz majburiy nikohdan o‘tmagansiz;

- turmush o‘rtog‘ingizning hurmatini qozonishga sazovor bo‘ling, bir-biringizning o‘zaro munosabatlaringizdan quvonch, iliqlik tarqamasligiga harakat qiling. Kichik bazm, o‘tirishlar tashkillashtirib bir-biringizga diqqat va e’tiboringizni qarating.

- oilada bo‘lib o‘tayotgan muammolarga, qiyinchiliklarga juda ham o‘zingizga zarur foydali maslahatlarni so‘rashdan oldin o‘zingizdan so‘rab ko‘ring. Men nimaga erishmoqchiman, qanday yo‘l tutishim kerak? O‘shanda ziddiyatlarni kamaytirgan bo‘lasiz. O‘zingizga talabchanlikni oshiring va xatolaringizni tan ola biling;

- bir-birlaringizni xaqoratlamang turmush o‘rtog‘ingizni faqat yaxshi jihatlarni ko‘rishga harakat qiling. Har bir insonning yaxshi jihatlari bor va shu yaxshi jihatlari haqida do‘stu qarindoshlar gapirishlari kerak. Sezib qolgan kamchiliklari to‘g‘risida emas, qarindoshlaringiz bilan g‘ururlaning bu o‘zingizni ishonchingizni oshiradi. Bir-birlaringizni qo‘llab-quvvatlang.

Oila muqaddas, uni asrash esa mas’uliyatligini his etgan holda ajralishni ham, uning salbiy oqibatlarini ham oldini olish mumkin. Buning uchun sizdan hayotiy tajriba, sabr-toqat va aql-idrok, keng falsafiy, psixologik bilimlar talab etiladi. Bundan tashqari, oilada bir necha vaqt davomida so‘zlashishning ko‘rsatilgan qoidalarga asoslanib yashashga odatlanish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Алешина Ю. Индивидуалъное и семейное психологическое консулътирование. М.: Класс, 2004.

2. Oila psixologiyasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / Shoumarov G`.B. tahr. ost. – Toshkent, 2009.

3. Saribayeva U.S. Oila barqarorligiga jinsiy-psixologik mutanosiblikning ta’siri: Psixol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 2007.

4. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – Toshkent, 2000.

Ro'ziyeva Munisa Zubaydulloyevna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi



O'QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA TA'LIM-TARBIYANING O'ZIGA XOS O'RNI

Annotatsiya. *Maqolada ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va uning o'quvchilarni ma'naviy yuklaltirishdagi o'rni haqida bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, mafkura, g'oya, o'zlikni anglash, mafkuraviy immunitet.*

Аннотация. *В статье описаны специфические особенности образования и его роль в духовном развитии учащихся.*

Ключевые слова: *образование, идеология, идея, самосознание, идеологический иммунитет.*

Abstract. *The article describes the specific features of education and its role in the spiritual development of students.*

Key words: *education, ideology, idea, self-awareness, ideological immunity.*

Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalo, yoshlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni also unutmasligimiz lozim.

Istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni, qadriyatlarimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini, milliy qadriyatlarini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Vatanimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, hayotimizning barcha jabhalarida "qadriyatlar", "milliy g'oya", "o'zlikni anglash", "milliy tiklanish", "ijtimoiy adolat", "milliy ong", "milliy g'urur", "milliy iftixor", "vatanparvarlik" kabi atamalar paydo bo'ldi. Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me`yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. Mustaqillik yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e`tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta`lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda. Umuminsoniy qadriyatlar davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Uning asosiy maqsadi–o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko'p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslarni, xususan, yoshlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Ochiq axborot tizimi sharoitida jahon miqyosida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborot-psixologik xavfsizligi bilan bog'liq global muammolarni hal qilishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bugungi informatsion kurashlar, mafkuraviy va g'oyaviy jarayonlar keskinlashgan tahlikali va murakkab davrda g'oyaviy qarashlari bir qadar beqaror yoshlarni

turli mafkuraviy xurujlardan asrash, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tazyiqlarga qarshi izchil kurashishga undash, ularda jamiyat va uning a’zolariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, sodir bo‘layotgan voqealarga daxldorlik hissini qaror toptirish, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[1].

Bugungi global axborot makonida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, yoshlar ongi va qalbida milliy qadriyat va ona Vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdirish, inson manfaatlarini eng oliy va ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish, ma’naviyatimiz va amaliy hayotimizda ro‘y berayotgan mafkuraviy jarayonlarda sobit g‘oyaga va mustahkam qarashlarga ega bo‘lgan yangi davr kishisini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilab olindi.

Mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud bo‘lgan bunyodkor g‘oyalar ta’sirida tarbiyalanadi. Muayyan qarashlar va g‘oyalarni o‘z e’tiqodiga singdiradi, o‘z navbatida, yangi g‘oyalarni yaratadi va targ‘ib qiladi. Milliy g‘oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi tamoyillarning ma’no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Ma’lumki, g‘oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikrdir. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotida shakllangan milliy g‘oyani, milliy qadriyatlarni keng targ‘ib etish, uning hayotbaxsh, adolatli, rivojlantiruvchi jihatlarini yoshlar ongiga singdirish, bunda eng qulay ta’lim-tarbiya usullari, metodlari, texnologiyalaridan foydalanish, shu jarayonda fikrlar va yondashuvlar rang-barangligiga alohida e’tibor qaratish yoshlarda yuksak ma’naviyat va mafkuraviy sobitqadamlikni shakllantiradi. Jamiyatimizning asosiy rivojlantiruvchi kuchi hisoblangan yoshlarni yagona g‘oya atrofida birlashtirish ma’naviy ta’lim-tarbiya ko‘lamini kengaytiradi, yoshlarning manfaatlari va orzu-umidlarini ifodalaydigan, ularni yagona maqsad sari jipslashtiradigan va rivojlanishlari uchun keng yo‘l ochadigan yoshlar jamoalarining faoliyatini uyg‘unlashtiradi, yoshlarni o‘zbek xalqining milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda sharqona demokratiya prinsipi asosida tarbiyalash va bu jarayonning uzluksizligini ta’minlash, ularni turli manfaat, maqsad va intilishlarini ifodalovchi g‘oyalarga munosabat bildira olishga o‘rgatadi. Bugun globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir sharoitda ijtimoiy-ma’naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasiga alohida e’tiborli bo’lish vazifasi bugungi kunda har qachongidan ham ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarga asoslangan holda yoshlarga milliy g‘oya, milliy qadriyatlarning umummilliy mafkuraga aylanishini tushuntirish; turli mafkuralarning milliy qadriyatlar rivojlanishiga ta’siri va o‘zaro bog‘liqligini aniq misollar yordamida yetkazish; jamiyatning rivojlanish jarayonida milliy qadriyatlarning tarbiya konsepsiyasiga aylanishi haqida ma’lumot berish; ularni milliy mafkuraning o‘zbek xalqi va O‘zbekiston jamiyati taraqqiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini anglatish pedagogik-psixologik ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor maqsadlaridan biriga aylanishi kerak, degan xulosani beradi.

IX asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o’zining “Qutadg’u bilig” nomli shoh asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini bayon qiladi. U odamzotning Olloh tomonidan yaratilishini aytadi hamda uning kelajakda qanday inson bo’lib voyaga yetishi uning kelib chiqishiga, hayotda shug’ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog’liqligini aytib “Kimning nasli otadan boshlab toza bo’lsa, undan elga

yaxshilik, ko’p manfaatlar keladi”, deb hisoblaydi. Yusuf Xos Hojib "Qutadgu bilig" dostonida til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo’ylik va halollik kabi masalalar bo’yicha hikmatli so’zlarni bayon qiladi, kishining yurish-turishi, o’zini tutishi haqida o’git beradi.

Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy–zabardast o’zbek olimi, arabshunos, shoir va yozuvchi. Zamaxshariy o’zidan kattalarni hurmatlash, bolani tarbiyalash va unda ota-onaning vazifalari haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, ota-ona bolani xushxulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo, uni me’yoridan ortiq erkalamasligi, doimo nazoratda tutishi kerak. “Hayvonni qashlasa, shodlanib egasin tepadi, odam bolasi erkalansa ota-onasini azobga qo’yadi”, degan fikrlarni bildirgan.

Abdurahmon Jomiy bolalarning tarbiyasi haqida bir qancha asarlar yaratadi. Bunday asarlar jumlasiga “Bahoriston”, “Xirodnomayi Iskandariy”, “Guxfatul axror”, ‘Silsilatus zahab” va boshqa asarlarini kiritish mumkin. Bu asarlarda ta’lim–tarbiya tanlash, yaxshi xislat, adab egallash borasida qator ta’limiy va uslubiy fikrlar bayon etiladi. Jomiy tarbiya orqali insonni o’zgartirish, aqliy qobiliyatini o’stirish mumkin, deyishi bilan birga, bola tarbiyasi bilan juda ham yoshligidan boshlab shug’ullanish lozim, chunki go’dakligida kishi hech qanday nuqsonsiz, yaxshi-yomon odatlardan holi bo’ladi, deydi. Jomiy o’zining nasl-nasabini maqtab, ota-onasining davlatiga ishonib qilib yuradigan yoshlarni qattiq tanqid qiladi.

Milliy ma’naviyatimiz dahosi, g’azal mulkining sultoni Alisher Navoiy asarlarida oila va unda farzandlar tarbiyasi, oilaviy munosabatlar haqida juda ko’p fikrlarni uchratish mumkin. Navoiy inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, ua’ni tarbiyalab yetuk inson qilib kamol toptirishdan ko’ra xayrli va lazzatli narsa yo’qdir, deb hisoblaydi. Shuning uchun farzand ko’rgan har bir kishi uni sevishi va tarbiyalashi kerak. Navoiy bolaning rivojlanishida unga beriladigan to’g’ri tarbiyaning ahamiyatiga alohida to’xtaladi.

Tarbiya orqali bolaning kelajakda foydali va mukammal kishi bo’lib yetishishiga ishonadi. Alloma bolani yoshligidan kamol toptirishda ota-onalarning roliga alohida to’xtalib, ularning o’z farzandlari ta’lim-tarbiyasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillariga, jumladan, oilaviy munosabatlar tizimiga alohida e’tibor berishlari lozimligini ta’kidlaydi. Insonning xulq-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, madaniy-ma’naviy qiyofasi, uning ta’biricha, ijtimoiy muhitga, uni o’rab turgan insonlarga bog’liq. Inson ijtimoiy muhit mahsuli sifatida shakllanib, kamolga erishib boradi.

Navoiyning oila va undagi shaxslararo munosabatlar haqidagi fikrlarining umuminsoniy ahamiyatga ega bo’lgan muhim jihatlaridan biri – farzandlar tomonidan ota-onalarni hurmat qilishlari haqidagi masaladir. U ota-ona xizmatini bajo keltirish, ulardan birini ikkinchisidan ortiq-kam bilmaslik farzandlar uchun saodat keltirishini alohida ta’kidlab shunday deydi: “Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish; buni bajarish farzand uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo’lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoning obod bo’lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! ... Birisini oy deb bil, ikkinchisini – quyosh. Ularning so’zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma” kabi fikrlar orqali milliy tarbiyamizning o’ziga xos jihatlaridan biri ota-ona hurmatini o’rniga qo’yish va xizmatida bo’lish qadriyati singdiriladi.

Jahon madaniyati tarixida o’chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o’zining badiiy asarlarida komil inson obrazini yaratib, ta’lim–tarbiya to’g’risidagi fikrlarini ifodalagan bo’lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo’llari, usullarini bayon etgan. Navoiy o’z asarlarida tasavvurlaridagi bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug’ullanib namuna uslubida foydalanishni tavsiya etadi. Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya ota-ona hamda o’qituvchi tomonidan olib borilishi lozim, deb ta’kidlaydi. Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki, xushmuomalalik bilan

muomalada bo'lishni tavsiya etgan, lekin shu bilan birga Navoiy o'qituvchini talabchan bo'lishga ham undagan, ammo har ikkalasida ham ma'lum me'yorni bilishi zarurligini uqtirgan. Navoiy tarbiya haqida gapirar ekan, "qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf", deb ta'kidlaydi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini va talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik talabini asos qilib oladi.

Yoshlarda sog'lom e'tiqodni qaror toptirish murakkab jarayon bo'lib, u bir qator moddiy hamda ma'naviy omillar ta'sirida vujudga keladi. Yoshlarda sog'lom fikrlashni shakllantirish muammosida ijtimoiy munosabatlar mazmun jihatdan chuqurlashib va murakkablashib borayotgan bir sharoitda quyidagi omillar yetakchi o'rinni egallaydi:

- ✓ yoshlarning moddiy ta'minoti;
- ✓ yoshlarning vaqtdan unumli foydalanish borasidagi tajribaga egaligi;
- ✓ yoshlarning maishiy turmush darajasi;
- ✓ yoshlarning fiziologik va psixologik xususiyati;
- ✓ yoshlarning qiziqishi bilan ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik;
- ✓ yoshlarning ijtimoiy kelib chiqishi va hayotiy faoliyati o'rtasidagi mutanosiblik;
- ✓ ota-ona ruhiy xususiyatlarining bir-biriga uyg'un kelishi;
- ✓ farzandlar tarbiyasini tashkil etishda yagona yondashuvning qaror topishi;
- ✓ oilada mehnat taqsimotining adolatli qaror topishi;
- ✓ oila a'zolarining diniy ma'lumotlilik darajasi;
- ✓ oila a'zolari o'rtasidagi yagona hayotiy maqsadning mavjudligi.

Hozir dunyoda hukm surayotgan mafkuraviy bo'ron mustaqillik yillarida bizning yurtimizga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Fuqarolarimiz ongidagi g'oyaviy sarosimalik holatidan foydalangan bir qancha siyosiy ekstremistik guruhlar o'zlarining yovuz maqsadlariga erishish uchun O'zbekistonga nisbatan g'oyaviy xuruj boshladilar. Bu ishda esa ekstremistlarning asosiy diqqat e'tibori yoshlarimiz ongini yovuz g'oyalar bilan zaharlashga qaratildi. Bugungi kunda ham yoshlarimiz ongini zaharlashga bo'layotgan urinishlar davom etmoqda. Bunday salbiy hodisalarning oldini olish uchun yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shunga asoslangan holda sog'lom e'tiqodni tarkib toptirish alohida ahamiyatga ega. Zero, mafkuraviy immunitetning mavjudligi yoshlarimizning turli yovuz g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligiga zamin bo'la oladi [2].


Mafkuraviy immunitet bu inson ongining tashqaridan kirib kelgan milliy taraqqiyot yo'limizga zid bo'lgan har qanday g'oyalarga qarshi tura olish qobiliyatidir. Shu o'rinda masalaning bir muhim jihatiga e'tibor berish zarur deb hisoblaymiz. Oilada yoshlarimiz ongi va qalbini egallash uchun tashqi kuchlar tomonidan bo'layotgan kurash asosan diniy yo'nalishda ekanligi ma'lum. Shuni hisobga olib yoshlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishda ota-onalarning g'oyaviy, tarbiyaviy, diniy bilimlarni oshirish, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan siyosiy ong, ilmiy dunyoqarashni o'stirishga katta e'tibor berishimiz zarur. Chunki ota-onalarda aynan siyosiy ong, ilmiy dunyoqarashdagi ayrim muammolar tufayli siyosiylashgan turli diniy, mentalitetimizga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan vayronkor g'oyalar jamiyatimizga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Ota-onalarning o'zlariga dinning kelib chiqishi, milliy qadriyatlarimizning inson hayoti va jamiyatda tutgan o'rni, uning asl mohiyati, pirovard maqsadi va vazifalari, jahondagi mavjud dinlar, umumbashariy qadriyatlar, ularning o'zaro umumiyligi va farqi, hozirgi kunda diniy ta'limotlardan qanday maqsadlarda foydalanish zarurligi haqidagi chuqur ilmiy asoslangan bilimlarni berish kerak.

Oila sog'lom e'tiqodni shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir. Chunki, avlodlarimiz tajribasidan ma'lumki, oila jamiyatning negizi bo'lib hisoblangan va ko'p asrlik


mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Bu tayanch tajribalar, albatta, oilada asta-sekinlik bilan, asosan, bobolar o’giti, momolar maslahati, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Bizga ma’lumki, yoshlarda sog’lom e’tiqodni to’liq shakllantirilsa, albatta, ularda jamiyat, inson manfaatlari to’g’risidagi ijobiy fikr va g’oyalar o’z samarasini beradi. Bunda ota-onalarning g’oyaviy tahdidlarga bo’lgan munosabatini o’rganish va uni ijobiy tomonga o’zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlarning tarbiyasi bilan qiziqmagan, yetarlicha g’amxo’rlik ko’rsatmagan ota-onalar O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi Kodeksning 47-moddasi bilan ayblanadilar.

Kogon tumanidagi 20-son umumta’lim maktabining 60 nafar sinaluvchilarini, ya’ni 5 va 9-sinf o’quvchilarini tanlab oldik. Ulardan olingan metodikaning natijalarini qayta ishlashdan qo’lga kiritilgan ko’rsatkichlarni quyidagi 1.1-diagrammada yanada yaqqol ko’rishingiz mumkin:

1.1-diagramma. Qadriyatlar tizimi ierarxiyasi ko’rsatkichlarining diagramma ko’rinishi (maqsadli qadriyatlar asosida)



1.2-diagramma. Qadriyatlar tizimi ierarxiyasi ko’rsatkichlarining diagramma ko’rinishi (maqsadli qadriyatlar asosida)



Ushbu tadqiqot ishida nega aynan 5 va 9-sinf o’quvchilari tanlab olindi, degan savol tug’iladi. Bunga sabab 5-9 sinf o’quvchilarining yosh ko’rsatkichlari ontogenez taraqqiyoti davrlari bo’yicha aynan o’smirlik davriga to’g’ri kelishidir. Biz tadqiqot ishimizda o’smir yoshidagi o’quvchilarning qadriyatlar yo’nalishlari bo’yicha ko’rsatkichlarini o’rganishni va o’smirlikning boshlang’ich hamda so’nggi bosqichlaridagi qadriyatlar yo’nalishlari ko’rsatkichlari bo’yicha ikkala bosqich orasida kuzatilishi mumkin bo’lgan tafovutni o’rganishni maqsad qildik. O‘smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng xarakterli davrlaridan biridir. Bu davr psixologik pedagogik adabiyotlarda “o‘tish davri”, “og‘ir davr”, “inqiroz davri” kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-9-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oraligida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, o‘smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda) 9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17 yoshlargacha davom etishi mumkin. O‘smirlik davrida bolada bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan turli xil holatlar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi ”bola” emas va shu bilan birga hali ”katta” ham emas. Uning o‘z ko‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalganligi qaytadan shakllanadi, o‘z-o‘zini anglashi, o‘z-o‘zini baholashi, qadriyatlari tizimi o‘zgaradi. Uning uchun o‘z ”men”i va shu ”men”ning ahamiyati ortadi. Biogenetik nazariyaning yirik namoyondalaridan biri, “rekapitulyatsiya qonuni”ning asoschisi amerikalik psixolog S.Xoll bu davrga “bo‘ron va tazyiqlar”, ichki va tashqi nizolar (konflikt)dan iborat bo‘lib, kechishi davomida odamda “individuallik tuyg‘u”si vujudga kelish davri deya baho beradi. O’quvchilardan olingan o’rtacha umumiy ko’rsatkichlardan qadriyat yo’nalishlari motivasiyasi ularda turli darajalarda shakllanganligi ko’rsatadi. Jadvalda keltirilgan har bir raqam yuqori sinf o’quvchilarida ma’lum qadriyat yo’nalishlari asosida shakllanayotgan munosabat motivasiyasi haqidagi o’rtacha umumiy ko’rsatkichlar ko’lamiga asoslangan. Jumladan, maqsadli qadriyatlar sirasiga kiruvchi oliy nufuzga ega bo’lish bilan bog’liq shaxsiy istiqbol qadriyatlari motivasiyasida yuqori ko’rsatkichlar darajasi 5-sinf o’quvchilarida 46,6% ni va 9-sinf o’quvchilarida esa 56,6%ni tashkil qildi. Yuqori moddiy ta’minlanganlik deb ataluvchi qadriyat motivatsiyasiga munosabat ko’rsatkichlari 5-sinf o’quvchilarining 40% da, 9-sinf o’quvchilarining esa 43,4% da yuqori natijani ko’rsatdi. Maqsadli qadriyatlarning har bir yo’nalishi bo’yicha qo’lga kiritilgan natijalarning umumiy miqdorlari shundan dalolat berib turibdiki, o’quvchining yoshi ulg’aygan sari barcha qadriyat mezonlari: ijodkorlik, faoliyatga ijtimoiy munosabat, o’z ustida jiddiy ishlash, yutuqlarga qat’iy yo’nalganlik, faoliyat maqsadidan ruhiy, ma’naviy qoniqish, o’zlikni saqlash kabilar biroz takomillashib, barqarorlashib, o’smir faoliyatida yoxud faolligida tobora o’sib borish tendensiyasi kuzatildi. Ijodkorlik qadriyat yo’nalish ko’rsatkichlari bo’yicha 5-sinf o’quvchilari orasida 50 foizgacha 9-sinf o’quvchilari orasida 46,6% ko’rsatkich qayd etildi. Faoliyatga ijtimoiy munosabat ko’rsatkichi bo’yicha 53,4% dan (5-sinf) 63,3% gacha (9-sinf), o’z ustida ishlash ko’rsatkichi bo’yicha 50 % dan (5-sinf) 66,7 % gacha (9-sinf), yutuqlarga yo’nalganlik ko’rsatkichi bo’yicha 53,4 % dan (5-sinf) 66,7 % gacha (9-sinf) ko’tarilganligini ko’rishimiz mumkin. Olingan bu ma’lumotlarga asoslanib, o’smirlik davrida maqsadli qadriyatlarning faol-ijobiy munosabatlar tizimida tobora o’sib borish xarakteri mavjudligi haqida tegishli tasavvurlarga ega bo’lish mumkin.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, agar biz o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalamoqchi bo’lsak, ya’ni komil insonni voyaga yetkazishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ygan bo’lsak, ularni har tomonlama o’rganishimiz lozim. Ularning

xatti-harakatlarini psixologik tahlil etish va ularga amaliy jihatdan ko'mak berish, mazkur yo'nalishda hech bo'lmaganda sodda va bajarilishi oson bo'lgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishimizni talab etadi. Har bir oilada tarbiyalanayotgan bola avvalo oila taftini, milliy ruhni o'zida mujassamlashtirishi shart. So'ng atrof muhitdagi boshqa millat vakillarining milliy xususiyatlarini o'rganishi orqali o'z ilmiy dunyoqarashini psixologik jihatdan rivojlantiradi va boyitib boradi. Bu unda tafakkur operatsiyalarining shakllanishiga, ularni analiz, sintez qilishiga va taqqoslab chiqishiga imkoniyat yaratadi. Oilada ota-ona, maktabda o'qituvchilar bolani ma'naviy boyitish maqsadida unga har tomonlama ta'sir o'tkazib borsa, ya'ni gap so'zlari, kiyinishi-yu, o'zini tutishi kabi holatlarga alohida ahamiyat bersa, bolada o'zligini anglash va o'z "norma"sini yaratib olish tuyg'usi shakllanadi. Bola tug'ilganidan boshlab oilasida o'ziga xos "norma"ni shakllantirar ekan, u boshqa millatning milliy xususiyatlarini, urf-odat, an'analarini, ma'naviyat va madaniyatini "ikkinchi qatlam" deya qabul qiladi yoki uni o'z milliy xususiyatlari bilan solishtirib, taqqoslab o'rganadi. Hozirda har bir millatning milliy xususiyatlari asosida tarbiyalanayotgan bola, kelajakda dunyo miqyosida o'z o'rnini egallashda katta qiyinchiliklarni ham yengib o'tadi.

Adabiyotlar:

1. S.Otamurodov. Globallashuv va millat. –T.: 2008-yil.
2. M.Inomova. "Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar". –T.: 1995-yil
3. B.Umarov, Sh.Jabborov–"Globallashuv va ma'naviy-axloqiy tarbiya"–Toshkent: 2010-yil.
4. B.M.Botirov – "O'zbek milliy xarakteri shakllanishiga qadriyatlar ta'sirining psixologik xususiyatlari". Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishi avtoreferati – Toshkent: – 2011 yil.
5. B. Ziyomuhammadov, F.Ismoilov–"Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari" – Toshkent: 2011-yil.



Raximova Xurshida Davlatshoyevna,
Kogon tumani 1-umumta'lim maktabi o'quv tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

YOSHLARGA MAFKURAVIY TA'SIR KO'RSATISHNING G'OYAVIY PSIXOLOGIK USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan diniy ekstremizm va terrorizm mafkuralarining ta'sir ko'rsatish usullari xususidagi ilmiy qarashlar ilgari suriladi. Shu bilan birga turli xil diniy e'tiqodlarni aholi ongiga singdirish orqali siyosiy, mafkuraviy maqsadlarga erishishning pedagogik-psixologik yo'llari haqida ilmiy mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *diniy ekstremizm, terrorizm, g'oya, mafkura, bunyodkor g'oya, yot g'oya, mafkuraviy immunitet.*

Аннотация. *В данной стате говорится об идеологических методах воспитания молодёжи на основе андижанских событий. Даётся описание методов и способов, действуюших на сознание молодежи идеологами религиозного экстремизма и терроризма.*

Ключевие слова: *религиозниё экстремизм,терроризм, сознание, молодеж, идеологический иммунитет.*

Abstract. *The article presents scientific views on the methods of influence used by religious extremism and terrorism, which are considered to be one of the pressing problems of the present day. It also reflects on the pedagogical ways of achieving ideological and political aims through inflicting various religious views on people's minds.*

Key words*: religious extremism, terrorism, idea, ideology, constructive idea, alien ideas, ideological immunity.*

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham yot g'oyalar yoyilishining oldini olish, tarqalishini to'xtatish, zararsizlantirish, din masalalarini tushuntirishda xolislikni ta'minlash, turli niyatlar bilan buzib talqin qilishlarning oldini olishga qaratilgan ma'rifiy ishlar tizimi yaratildi. Zero, respublikamizda e'tiqod erkinligini ta'minlash masalasida barcha imkoniyatlar yaratib berilgan bir paytda, makkor va qo'poruvchi, nayrangboz kuchlar, diniy mutaassib guruhlar o'z qabih rejalarini amalga oshirish yo'lida xalq ichida, xususan, yoshlar orasida buzg'unchi g'oyalarni tarqatishga urinishdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ451-sonli qarori va O'zbekiston Respublitkasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish" to'g'risidagi PQ-3160-son qarori, hamda 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi PF-4947-son Farmoni [6], 2017-yil 8sentabrdagi "Bolalarni ularning sog'ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2014-yil 6-fevraldagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2124-sonli qarori, O'zbekiston Prezidentining 2016-yil 24-sentabrdagi O'RQ 406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, 2016-yil 14-yanvardagi 9-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisini zamonaviy axborot texnologiyalari hamda internet tarmog'i orqali ko'rsatilayotgan axborot va mafkuraviy xurujlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi"i hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Turli xil diniy e’tiqodlarni aholi ongiga singdirish orqali siyosiy, mafkuraviy maksadlarga erishish XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi davrning o‘ziga xos xususiyatiga aylanib bormoqda. O‘zgacha e’tiqodni “tarbiyalash” orqali ta’sir o‘tkazish jarayonlari odamlar ongi, dunyoqarashini o‘zgartirish va pirovard natijada ularni ma’naviy manqurt – zombiga aylantirib, qurbon qilish bilan yakun topmoqda. Shunday ekan, dunyoda yoshlar ongini zaharlab ularni zombi qilish mexanizmi qanday tarzda namoyon bo‘lishi, bu jarayon qay tarzda kechishi, diniy ekstremizm va terrorizm o‘z maqsadlariga erishish uchun qanday usullardan foydalanayotganliklarini o‘rganish va ularni zararsizlantirish – har bir pedagogning kasbiy burchidir. Qolaversa, bu – ijtimoiy-pedagogik profilaktika samaradorligining asosiy shartlaridan biridir.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, diniy ekstremizm va terrorizm o‘z g‘oyalarini singdirish uchun aynan yosh, o‘smir yigit-qizlarni tanlaydilar. Chunki yoshlar har bir mamlakatning ertangi kuni, kelajagi, mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi qatlamdir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi kuchli bo‘ladi? Bu savolga, aholisi intellektual nuqtayi nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo‘lib, unib-o‘sayotgan davlat, deb javob qaytarish mumkin” [1;420]. Ushbu fikrda yoshlarimizda qaysi fazilatlar yetakchi bo‘lishi aniq ko‘rsatib berilgan.

Siyosiy hokimiyat uchun kurashayotganlar kimni mafkuraviy qaram qilish yaxshi natija berishini yaxshi biladilar. Xuddi saylov davrida bo‘lgani kabi hayotdagi mafkuraviy kurashlarda ham shunday – kim ko‘p ovoz yig‘moqchi bo‘lsa, ko‘pchilikni tashkil qiladigan va shu bilan birgalikda har qanday yangilikka o‘ch bo‘lgan qatlamni o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Shu ma’noda, turli mafkuraviy xurujlarning yoshlar ongini egallashga qaratilgani ham tabiiy holdir. Bu esa O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lgan – o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining ongi va qalbini diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasidan himoya qilish masalasining naqadar muhimligini ko‘rsatib turadi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini asosan o‘smir yoshidagi 15-18 yoshli o‘g‘il-qizlar tashkil etadi. Ma’lumki, o‘smirlar tashqi ta’sirlarga ham ko‘proq moyil bo‘lib, hayotdagi orzu-maqsadlarga mustaqil erishish harakatlarining hamma vaqt ham amalga oshavermasligi oqibatida o‘zlariga hamfikr axtaradilar. Ular o‘zlarining maqsad va intilishlarini tushunadigan kishilarni izlay boshlaydilar [2;59]. Ana shunday paytda ularga to‘g‘ri yo‘l va yaqin kelajak sari oliy maqsadni va’da qiluvchi odam avliyodek bo‘lib ko‘rinadi.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy aloqador bo‘lib, davrlar almashinuvi bilan yangilik tomon o‘zgaradi. Bunday o‘zgarishlar qadimdan turon va turkiston mintaqasi deb nomlangan, bugungi kunda uning markazi hisoblangan hozirgi O‘zbekiston hududida yuz bergan jarayonlarga ham tegishlidir.

O‘smirlikni pedagoglar bolalikdan kattalikka “o‘tish davri” deb ataydilar. Bu yoshda ularda intizomning, o‘qishga qiziqishning susayishi, xarakterida dag‘allik paydo bo‘lishi kuzatiladi. Tez jahli chiqadi. Ota-onaning gaplariga ilgari so‘zsiz qo‘shilgan bo‘lsa, endi tanqid qiladi. Birovlardagi kamchiliklarni bo‘rttirib ko‘rsatadi. O‘spirinlik – “ota-onam ko‘p narsalarni bilmaydi” deydigan davr. Bu davr – orzular davri. Sirdosh do‘st, ideal qidirish davri [3;42-49].

Ayni paytda, jiddiy mas’uliyatdan ozod bo‘lgan o‘smirlar uchun shaxsiy tajribaning yetishmasligi xosdir. U soddadillik va xayolparastlik bilan yonma-yon keladi. Shu bilan birga, yoshlar nazdida atrofda kuzatilayotgan adolatsizlik natijasida yuzaga keladigan zo‘riqishni yo‘qotishda faqat birgina yo‘l – “buyuk g‘oya”ni o‘zida mujassamlashtirgan yetakchi bilan

hammaslak bo‘lishni tanlashga moyillik yuzaga keladi. Bu yo‘l o‘smirni diniy mutaassib oqimlarning domiga tortilishiga olib kelishi mumkin [2;60]. Chunki oqimlarning vakillari ham o‘z maqsadini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaydi. Avval ezgu ishlar qilmoqchi kishi bo‘lib ko‘rinadi. Uning maqsadini bir qarashda anglash qiyin, ayniqsa, o‘zini qahramon qilib ko‘rsatish vaqtida yoshlarga bu ayni muddao bo‘ladi. Shuning uchun ham, diniy ekstremistik tashkilotlarga kirganlarning aksariyatini yoshlar tashkil qiladi.

Diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasiga qarshi profilaktika jarayonining pedagogik xususiyatlarini aniqlash uchun bu buzg‘unchi tashkilot va oqimlar yoshlarga ta’sir ko‘rsatishning qaysi shakl, usul va vositalaridan qanday foydalanayotganini aniqlash zarur bo‘ladi. O‘rganilgan adabiyotlar va ekspertlar xulosalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ular asosan o‘z yovuz maqsadlarini yashirib, ezgulik himoyachilari bo‘lib ko‘rinishga harakat qiladilar. Hal qiluvchi vaziyatda esa ochiqchasiga terrorizmga, zo‘ravonlikka majbur qilishadi. Masalan, islom ekstremizmining “otaxoni”ga aylangan, asli misrlik bo‘lgan, o‘tgan asrning eng yirik ekstremistik tashkilotlaridan biri “Musulmon birodarlar”ning asoschisi Hasan al-Bannoning yozishicha, “Davlat tepasiga faqat shafqatsiz kurash, jihod yo‘li bilan kelish mumkin va maqsadga erishish yo‘lida har qanday to‘siqlarni yengish kerak” [4;43]. “Birodarlar”ning hujjatlarida “agar boshqa usullar foyda bermasa, kuch ishlatish kerak” deb ta’kidlangan. Shuning uchun ham, amalda ular terrorizm va boshqa qo‘pol usullarni keng va doim qo‘llashadi. Shu sababli, bunday tashkilotlarning yoshlar ongini zaharlab, o‘z domiga tortishi va manqurtga aylantirib, o‘z vataniga qarshi qurol o‘qtalib, kurashga kirishga o‘rgatishi eng xavfli jihatidir. Mana shu ishlarning o‘zi ham o‘smirlarda vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashning naqadar muhimligini ko‘rsatib beradi.

Diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan ongni dasturlashtirish, ya’ni xohishni ong osti tuzilmalariga singdirishda ustalik bilan foydalanmoqda. Istalgan odam yoki hayvonda biror bir narsa yoki hodisaga maylni yuzaga keltirishning pedagogik-psixologik mexanizmi o‘ta oddiy bo‘lib, bir jins, bir xil mazmun yoxud shakldagi narsa yoki informatsiyani ketma-ket uch martadan ko‘p ko‘rsatish va eshittirish oldindan rejalashtirilgan, kutilgan natijalarni beradi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, diniy ekstremist va terrorchilar, umuman, barcha buzg‘unchi mafkuralar targ‘ibotning pedagogik-psixologik usullaridan o‘zlarining yovuz maqsadlari yo‘lida foydalanishadi.

Shunday ekan, bu holat diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi pedagogik profilaktikaning qarshi kurash metodikasini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu metodika diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi profilaktik ishlarning nafaqat texnik va texnologik (jismoniy xavfsizlik) jihatlarini, balki eng muhim jihati – mafkuraviy jihatini hal qilishni o‘z ichiga oladi. Bu esa g‘oyaviy profilaktika ishlarining g‘alabasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 28-iyuldagi «Ma’naviy – ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish»to‘g‘risidagi PQ-3160-son Qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. Farmon 07.02.2017-yil PF-4947-son, kuchga kirish sanasi 08.02.2017 Manba: «Xalq so‘zi», 2017 y., 28 (6722)-son; O‘R QHT, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Karimov I.A. “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” PQ-451-sonli Qarori 2006-yil 25-avgust.-B.50.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 420b.

Davlatova Rushana Askar qizi,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi



O‘SMIRLARDA XAVOTIRLANISH VA DEPRESSIYA - YOLG‘IZLIK HOLATINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smir yoshida yolg‘izlik muammosi va yolg‘izlik holatini keltirib chiqaruvchi omillar, xavotirlanish va depressiya kabi psixik holatlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yolg‘iz, yolg‘izlik, negativ emotsiyalar, xavotir, depressiya, sabr-toqatli, ruhiy tushkunlik va b.*

Аннотация. *В данной стате изложени проблеми одиночества и его фактори, а также характеристика их различних уровней.*

Ключевые слова: *одиночество, негативние эмотсии, депрессия, терпение, напряженност и т.д.*

Abstract. *The article outlines the problems of loneliness and its factors, as well as the characteristics of various levels of them.*

Key words: *loneliness, negative emotions, depression, patience, tension.*

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimiz ertangi kunini, o‘z zurriyodlarining baxtu istiqbolini istaydigan xar bir odam - u kim bo‘lishi, qanday lavozim egasi ekanidan qat’iy nazar, farzandlarimizning ma’naviy, g‘oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi va qad ko‘taradi. Boshqacha aytganda ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala.

O‘smirlik yoshi – inson rivojlanishining eng murakkab davrlaridan biri. Mazkur yosh davrida xavotirlanish va depressiya ko‘plab sabablarga ega va kutilmagan oqibatlarga olib keladigan o‘ta murakkab hodisadir. Ushbu yoshda depressiv holatning vujudga kelishi qator sababli omillar natijasida ro‘y beradi. Afsuski, mazkur holat o‘ta og‘ir holatga o‘tmaguncha uni anglash, sezish nihoyatda qiyin. Ko‘plab olimlar va faylasuflar eramizdan avvalgi davrdayoq “depressiv holat” deb nom olgan holatdan qutilish borasida ko‘plab tavsiyalarni berishgan.

Zamonaviy bolalar o‘zining rivojlanish tendensiyalari va mazmuni jihatdan murakkab olamda yashaydi. O‘smir bolalarning ruhiy holati har doim maktab psixologlari, o‘qituvchilari, ota-onalarning diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Ruhiy tushkunlik holatidagi bolalarda stress holatiga kuchli reaksiya holati kuzatilib, ular nihoyatda emotsional shuningdek, hamma narsani ko‘ngliga yaqin oladi, oqibatda ularning depressiya holatiga zaifligi kuchayib boradi.

Shaxs uchun turli narsalar haqida tashvishlanish xususiyati xosdir, bu esa uning hayotga nisbatan befarq munosabatda emasligidan dalolat beradi. Biroq bu tashvishlanish ba’zida noadekvat shaklda bo‘ladi, ya’ni shaxs asoslanmagan holda bu holatni boshidan kechiradi, ya’ni xavotirlanish yuzaga keladi.

Xavotirlanish – bu odamning doimo o‘zini tashvishli his etishi, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishiga moyilligidir. Xavotirlanishning boshdan kechishi ham individual xususiyat bo‘lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo‘ladi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo‘lishi odatda faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq-atvori bilan birga kechadi. Odatda xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi vaziyat bilan bog‘liq ikki turi farqlanadi. Shaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va uzoq davom etadigan noxush muloqot bilan bog‘liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan va undan tashqarida namoyon bo‘lmaydigan tashvishli holatdir.

Ma’lumki, inson qanchalik ko‘p vaziyatli xavotirni his qilsa, uning shaxsiy xavotirlanishi shunchalik barqarorlashadi. O.P.Yelesiyev, Y.Strelyau, V.S.Merlin tadqiqotida shaxsiy xavotirlanish reaktiv xavotirlanishning pasayishi bilan barobar rivojlanib borishi mumkinligi ta’kidlangan. Shunday qilib, jiddiy xatar oldida faollik va shaxsiy xavotirlanish ortadi. Buning natijasida vaziyatli sust reaktiv xavotirlanish pasayadi. Inson tashqi tomondan anchagina tinch, chidamli bo‘ladi.

Shu tariqa xavotirlanishni tushunishda psixologiyada quyidagi nuqtayi nazarlar yuzaga keladi: Xavotirlanish – bu ichki xavotirning psixik holati, xavotirni his qilishdagi taranglik; yomon hislar, xatarni kutishni subyektiv his qilish; emotsional diskomfortni his qilish; nevrotik reaksiya (avtonom nerv tizimi faolligining oshishi bilan kechuvchi emotsional reaksiya); salbiy emotsiyalar: qo‘rquv, jahl va g‘amginlik kompleksi (ba’zilar bunga qiziqishni ham kiritadi); murakkab psixik holat, kognitiv emotsional va operatsional tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi, emotsionalni dominantligida; shaxs tuzilishida deffektlarni paydo bo‘lishi ular turli kasalliklarning kelib chiqishidir; shaxs faol harakatini tabiiy va majburiy xususiyati shaxsning o‘zini mukammallashtiruvchi stimul sifatida namoyon bo‘ladigan holat.

Xavotirlanish – bu murakkab psixik holat bo‘lib, ma’lum vaziyatga reaksiya sifatida, o‘ziga kognitiv, emotsional harakat, fiziologik komponentlarni birlashtiradi; emotsional diskomfortni his qiluvchi individ sog‘ligi va harakatiga zarar keltirishi mumkin; emotsional jabhada ham faoliyatga yo‘naltirilgan ichki kuch va samaradorlikni stimullashtiradi.

Metodika: O‘smirlik davrida xavotirlanish holatining depressiya bilan aloqadorligini tekshirish maqsadida sinaluvchilar guruhida kuzatish, suhbat va V.Zunganing “Depressiv holatlarni differensial diagnostika qilish” metodikasi hamda “Egotsentrizm ko‘rsatkichini aniqlash” metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikalar sinaluvchilar guruhida o‘tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

V.Zunganing “Depressiv holatlarni differensial diagnostika qilish” metodikasi bo‘yicha respondentlarga 20 ta tasdiqdan iborat va xar bir tasdiqqa 4 ta javob varianti mavjud. Respondentlarga so‘nggi paytda o‘zini qanday his qilayotganidan kelib chiqib 4 ta javobdan birini belgilashlari so‘raldi. Savollar ustida ko‘p o‘ylamasliklari, sababi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblar yo‘qligi, o‘zlariga mos variantni tanlashlari aytildi.

V.Zunga shkalasi 20 ta tasdiqdan iborat. Ularning har biriga 4 ta javob varianti to‘g‘ri keladi. Tahlil va so‘rovnoma o‘tkazishi uchun 20-30 daqiqa vaqt yetarli bo‘ladi. Quyidagi formula orqali depressiya darajasi aniqlanadi.

DD(t.g‘.(t.s.)

	1	**2**	**3**	**4**
To‘g‘ri tasdiqlar	1	2	3	4
Teskari tasdiqlar	4	3	2	1

To‘g‘ri tasdiq javoblariga 1 – 4 gacha ball va teskari tasdiq javoblariga 4 – 1 gacha ballar berib boriladi. Natijada DD 20-80 ball oralig‘ida bo‘ladi.

DD – (50 ball depressiyadan holi holat

DD – (50 ball va (59 ball (vaziyatli va nevrotik genezisga ega yengil depressiya holati

DD – 60 – 90 ballar oralig‘ida bo‘lsa – sinaluvchida subdepressiv va niqoblangan depressiya holati, kayfiyatning sezilarli pasayishi.

DD – 70 va undan yuqori bo‘lsa, haqiqiy depressiv holat

Belgilangan raqamlar soni aniqlanib quyidagicha hisoblandi va interpretatsiya qilindi. Olingan javoblar bo‘yicha quyidagicha natijalar olindi.

O‘smirlik davrida xavotirlanish va depressiya holatining o‘zaro munosabati (o‘rtacha ko‘rsatkich bo‘yicha)

Jadval № 1.

Sinaluvchilar soni	Xavotirlanish	Depressiya
50 nafar	35	15

Jadval natijalaridan ko‘rinadiki, sinaluvchilar guruhida xavotirlanish 35 nafarni tashkil qiladi. Bu tajribada ishtirok etgan sinaluvchilarning umumiy ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori darajani tashkil qiladi. Shuningdek xavotirlanishning ortishi o‘smir shaxsida emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi xavotirlanishning ortishi depressiya holatining ortishiga ham sabab bo‘ladimi? Ta’kidlash joizki, tajriba natijalariga ko‘ra o‘smirlar guruhida xavotirlanish bo‘yicha natijalarni yuqorililigi depressiya bo‘yicha ko‘rsatgichlarni yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra sinaluvchilar guruhida depressiya holati 15 nafarni tashkil qilganligi ma’lum bo‘ldi. O‘z navbatida depressiya holati o‘smir shaxsi uchun ustuvorligini izohlash mumkin. Chunki ularda jismoniy va psixologik o‘zgarishlarga muvofiq ravishda o‘z-o‘zidan qoniqmaslik atrofdagilardan alohida bo‘lish, ya’ni mustaqillikka intilishning kuchliligi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu bois o‘smirlik davrida emotsional o‘zgarishlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday emotsional holat ikkinchi bir emotsional holatni rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois har qanday emotsional holatni ortib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

O‘smirlik yoshida depressiyaga sabab bo‘luvchi yana bir omil bu-egotsentrizmdir.O‘smir shaxsining egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida “Egotsentrizm ko‘rsatkichini aniqlash” metodikasidan foydalandik va unda 65 nafar o‘quvchi ishtirok etishdi. Egotsentrizm indeksini quyidagicha aniqladik: O‘quvchilar tomonidan to‘ldirilgan gaplarda(anketa) kishilik olmoshlari “men”, “menga”, “meniki”, “men uchun” va xokazo) qo‘llangan bo‘lsa o‘z-o‘zini anglashi hamda egotsentrik xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi va bu gaplarni hisobga olib biz quyidagi jadval bo‘yicha aniqladik.

Ushbu metodika bo‘yicha olingan natijalar

Jadval № 2.

Tadqiqot obyekti	“Yoshlarning o‘z-o‘zini anglashi va egotsentrik yo‘nalishlari”ni darajalari				
	Juda past	Past	O‘rtacha	Yuqori	Eng yuqori
5-sinf	0-1	2-7	8-22	23-30	31-40
7-sinf	0-1	2-7	8-22	23-29	30-40

Jadval № 3.

Tadqiqot obyekti	“Yoshlarning o‘z-o‘zini anglashi va egotsentrik yo‘nalishlari”ni darajalari				
	Juda past	Past	O‘rtacha	Yuqori	Eng yuqori
5-sinf	-	2	4	12	5
7-sinf	-	6	12	4	3

Sinaluvchi to‘plagan ballar qayta ishlab chiqildi. Hududiy yashash joyiga ko‘ra o‘sishlari bo‘yicha o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi va standart miqdorlari me’yoriga qiyoslangan “EGO” ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Olingan natijalarning bunday ko‘rinishiga ega bo‘lishi shundan darak beradiki, bu sinaluvchilar shaxsining o‘z-o‘zini anglashi va egotsentrik yo‘nalishlarini boshqa o‘rganilgan tengqurlarning o‘z-o‘zini anglashi va egotsentrik yo‘nalishlarini aniqlashga qaraganda ularning o‘z “Men”iga bo‘lgan yo‘nalishining yuqori darajada shakllanganligi aniqlandi. Bu yoshlarning shaxs xususiyatlari va muloqot sifatlarining xudbinlik darajasi, shuningdek, depressiya darajasi yuqori va ularda shaxslararo munosabatlarda muammolarni keltirib chiqarishini anglatadi.

Yuqori darajali egotsentrizm egalari o‘z maqsadlarini amalga oshirish maqsadida boshqa odamlardan “unumli” foydalanadi. Egotsentrizmning yuqori darajada rivojlanganligiga sabab, ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlarini ko‘r-ko‘rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga intilishlari bo‘lib, oddiy yutuqlaridan quvonish, o‘zaro munosabatlarda erkalatish va erkalanish odatga aylanib qolgandir.

Egotsentrizmning past darajada rivojlanishiga sabab; qattiqqo‘llik, bola ehtiyojlariga juda befarqlik, yoki ota-ona bolaning xulqini, kun tartibini qattiq nazorat qilishi, uning bor-yo‘qligini go‘yoki sezmaslik kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Xulosa. O‘smirlarda yuzaga keladigan yolg‘izlik holatlarini o‘rganishga tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, quyidagi xulosalarni berish maqsadga muvofiqdir:

shaxsdagi yolg‘izlik holati xavotirlanish va depressiya hamda hissiy zo‘riqish holatlari bilan bog‘liq bo‘lishi;

o‘smir shaxsidagi emotsionallik ularda yolg‘izlikni yuzaga keltiruvchi omillardan sanalishi;

o‘smirlik davrida o‘quv faoliyati va kundalik tashvishlarning ko‘payishi ularda depressiya holatlarini keltirib chiqarishi;

o‘smirlik davrida o‘quv faoliyatidan qoniqmaslik, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaslik, o‘quv topshiriqlarini me’yoridan ortib ketishi ularda depressiyani va undan keyin yolg‘izlik holatlarini keltirib chiqaradi;

o‘quv faoliyatidagi turli ziddiyatli holatlar, darsga tayyor emaslik, o‘qituvchi bilan bo‘ladigan munosabatlardagi noxushliklar ularda yolg‘iz qolish istagini yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin;

- o‘smirlik davrida o‘z kuch va imkoniyatlarini anglab yetmaslik ularda xavotirlanish, qo‘rquv, hissiy zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi va bu o‘z navbatida yolg‘iz qolish istagini yuzaga keltiruvchi omillardan sanaladi.

Keltirilgan xulosalarga muvofiq ota-onalar, tarbiyachilar, o‘qituvchilar va shaxs tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarga quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir:

o‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik, fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olish;

o‘smirlar bilan ishlashning individual uslubini ishlab chiqish;

o‘smirlarda muomala madaniyatini shakllantirish;

o‘smirlar bilan hissiy emotsional sohalarini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha trening mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

o‘smirlarning kundalik faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil qilishga e’tibor berish lozim;

o‘smirlarning o‘quv faoliyatlarida hissiy zo‘riqishlarining oldini olish maqsadida ular bilan jamoaviy tadbirlarni tashkil qilish lozim.

Adabiyotlar:

1. Адлер А. Понят природу человека – СПб.: Академический аспект, 2007.
2. Абрамова Г.С. Возрастная психология. – Екатеринбург, 2010.
3. Берк Л. Развитие ребенка. – 6-е изд. – СПб: Питер, 2015.
4. Nishanova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. – T., TDPU, 2004.

Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g‘li,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi



BO‘LAJAK MUHANDISLARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIK OMILLARI BILAN EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING NAMOYON ETILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligini shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari hamda unga ta'sir qiluvchi omillarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligini shakllantirish, ularning shaxsiy fazilatlarini ro‘yobga chiqarish, psixokorrektsion usullar orqali faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi shaxslilik omillari imkoniyatlarini ko‘rsatish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi. Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi islohotlar davrida bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligiga aloqador omillarni tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *psixologik salomatlik, "Men-kontseptsiya", ijtimoiy idrok, aks ettirish, stress, tajovuz, altruizm, tajovuz, ijtimoiy jasorat, ijtimoiy etuklik, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования психологического здоровья будущих инженеров, а также роль и значение факторов, влияющих на него. Созданы возможности для углубления научных исследований в направлении формирования психологического здоровья будущих инженеров, реализации их личностных качеств, показа возможностей личностных факторов, непосредственно влияющих на эффективность труда посредством психокоррекционных методов. Подводя итог, можно сказать, что исследование факторов, связанных с психологическим здоровьем будущих инженеров, остается одной из актуальных проблем современной эпохи реформ.*

Ключевые слова: *психологическое здоровье, «Я-концепция», социальное восприятие, рефлексия, стресс, агрессия, альтруизм, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность.*

Annotation. *This article reveals the scientific and theoretical foundations for the formation of the psychological health of future engineers, as well as the role and significance of the factors influencing it. Opportunities have been created for deepening scientific research in the direction of forming the psychological health of future engineers, realizing their personal qualities, showing the possibilities of personal factors that directly affect labor efficiency through psycho-corrective methods. Summing up, we can say that the study of factors related to the psychological health of future engineers remains one of the urgent problems of the modern era of reforms.*

Keywords: *psychological health, "I-concept", social perception, reflection, stress, aggression, altruism, aggression, social courage, social maturity, socio-psychological competence.*

Jahonda yoshlarning psixologik slomatligini mustahkamlash, kelajak hayotga tayyorlash hamda ularning psixologik salomatligiga oid amalga oshirilayotgan tadqiqotlar doimiy e'tiborni tortib kelmoqda. Ayni paytda, Butunjahon sog‘liqni saqlash assambleyasi tomonidan «...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo‘lmaydi» tamoyiliga asoslangan harakatlar strategiyasini amalga oshirayotganligi ushbu muammoning dolzarbligidan darak bermoqda.

Xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ularni psixologik jihatdan yuksaltirish talab etiladi. Jumladan, psixologik salomatlik tizimini bugungi zamonaviy usullar asosida yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida psixologik salomatlik muammolarini o‘rganish bo‘yicha juda ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, YUNECKO tashkiloti qoshidagi xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychological Science) Tomonidan 2016-2021-yillarga mo‘ljallangan psixologik salomatlik kontseptsiyasi yaratildi. Bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligi va uning pedagogik-psixologik komponentlari bilan bog‘liqligini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligini o‘rganish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan kontseptsiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shuningdek, bo‘lajak muhandislarning psixologik muhofaza va emotsional-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ularga pedagogik-psixologik ta'sir etish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni o‘rganish esa tobora dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda yosh avlodni ruhiy va jismoniy jihatdan barkamol voyaga etishida psixologik salomatlikning o‘rni hamda uning muammolari tadqiqi aloxida ahamiyat kacb etmoqda. Bu borada , «...psixologik salomatlikni keng targ‘ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko‘nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta'sis etish» masalasi ustuvor hisoblanib, bo‘lajak muhandislarning pcixologik salomatligini o‘rganish jarayonini yangi innovatsion ucullar bilan ta'minlash orqali o‘smirlarga har jixatdan psixologik yondashuv tamoyillarini yanada mukammalroq tarzda takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Psixologik salomatlik va uni shaxs takkomillashuvida muhim omil ekanligini belgilaydigan g‘oyalar zardushtiylikning qadimgi manbai «Avesto», sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston», «Minerologiya», Abu Ali Ibn Sinoning «Tadbiri manzil», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Alisher Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarlarida ilgari surilgan. Tahlil ko‘rsatadiki shaxsning psixologik salomatligi jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan muhim omillardan biri sanalgan, jamiyat va shaxs ijtimoiylashuvning ta'siri muhimligi e'tirof etilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan R.A.Abdurasulov V.M.Karimova, B.R.Qodirov, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.S.Samarov, Z.G.Gapparov, D.Orziqulov, M.Mamatov, F.E.Gaziyev, G.Berdiyev, Z.Fayziyev, Dj.Nasirov, F.E.Gaziyeva va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida psixologik salomatlik hamda sportchilardagi psixologik tayyorgarlikning faoliyat samaradorligiga ta'siri muammolari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakati olimlari I.P.Volkov, D.A.Dontsov, N.B.Stambulova, A.B.Alekseyev, V.F.Sopov, L.S.Vigotskiy D.A.Leontev, A.B.Petrovskiy, R.M.Zagaynov, V.N.Lebedev, A.M.Stolyarenko, V.N.Tomalintsev, M.Sh.Magomed-Eminov, L.A.Kitayev-Smik, V.I.Medvedev va boshqalarning sport psixologiyasi bo‘yicha olib borgan zamonaviy tadqiqotlarida sportchilarning psixologik salomatligiga ta'sir etuvchi omillarning pedagogik-psixologik tamoyillari ochib berilgan.

Xorij olimlaridan G.Olport, A.TS.Puni, A.Adler, Byuler, A.Maslou, B.Bratus, Z.Freyd K.Rodjers R.Plutchik, V.Rudik o‘z tadqiqotlarida psixologik salomatlikka ta'sir qiluvchi omillar va komponentlarni ilmiy tadqiq etishgan.

Tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda bo‘lajak muhandislarda psixologik salomatlikni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilishiga qaramay, aynan, sportchilarda psixologik salomatlik omillarining pedagogik-psixologik asoslari va uning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Metodika: Bu borada bo‘lajak muhandislarni psixologik salomatligini shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, bo‘lajak muhandislarni psixologik psixologik salomatligini shakllanishiga ta'sir qiluvchi hissiy-emotsional holatlarni aniqlash maqsadida Ayzenkning «O‘z-o‘zining ruhiy holatini baholash» metodikasi qo‘llanildi(1-jadval). Ma'lumki bo‘lajak muhandislar shaxsida qo‘rquv, xavotir kabi psixologik xususiyatlar uning faoliyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Chunki bu kabi salbiy holatlar ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarga, moslashuvning qiyin kechishiga, psixofiziologik resursni keragidan ortiq, behuda safarbar bo‘lishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa, bo‘lajak muhandislarda travmatik vaziyat (vaziyatli tashvish) yoki ko‘p sonli ijtimoiy tashvish, e'tiborining kuchayishi natijasida kelib chiqadigan qo‘shimcha stressli omillarga duch keladi. Yuqoridagi holatlar bo‘lajak muhandislarni psixologik holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi, diqqatni zaiflashtirishi va yakuniy sport natijasini pasaytirishi mumkin. Demak, salbiy-ruhiy holatlar(xavotir, qo‘rquv. agressivlik) bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligiga ta'sir qilib, ularning faoliyat samaradorligini pasayishiga sabab bo‘luvchi omillardan bo‘lishi mumkin ekan.

Jadval № 1.

Bo‘lajak muhandislarda "O‘z-o‘zining ruhiy holatlarni baholash" (Ayzenk) metodikasidan olingan natijalar

Mezonlar	1-kurs bo‘lajak muhandislar (bal)	4-kurs bo‘lajak muhandislar(bal)	Manna – uitni o‘rtacha ko‘rsatkich	R-ahamiyatlilik darajasi
Qo‘rquv,xavotir	9,85	8,42	4190,5	0,11
Agressivlik	14,60	12,00	3566,5	0,00
Rigidlik(qotib qolganlik)	9,06	11,02	3872,5	0,02
Frustratsiya	10,50	11,51	3,54	0,32
11,02 11,2 0,01 ** - farqlar p<0,01 ahamiyatlilik darajasida muhimdir**				

Endi bevosita jadval natijalariga o‘tamiz. «Qo‘rquv,xavotir» omili bo‘yicha 1-kurs bo‘lajak muhandislar 9,85 balni qo‘lga kiritdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, demak ushbu talabalarda nafaqat tananing tuzilishidagi, fiziologik jarayonlardagi sezilarli o‘zgarishlar bilan, balki hissiy-qo‘zg‘aluvchanlik, impulsivlik, hayajonning tormozlanishdan ustunligi, kayfiyatning tez o‘zgarishi bilan izohlash mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki ba'zi hollarda tashvish bo‘lajak muhandislar faoliyatini samaradorligini oshirishga yordam beradi. «Agressivlik» omili(14,60-12,00) yuqori bo‘lgan bo‘lajak muhandislar aksariyat holatlarda faoliyat jarayonida tajang va qo‘zg‘aluvchanligi yuqori darajada bo‘lib, ular uzoq va monoton mashg‘ulotlardan qochishadi. Bunday bo‘lajak muhandislar doimiy ravishda o‘z imkoniyatlarini oshirib borsalarda, qo‘p hollarda o‘z hatti-harakatlarini rejalashtirmaydilar. Qulay, tanish muhitda bo‘lib o‘tadigan past darajadagi faoliyatda ular yuqori natijalarini ko‘rsatishga qodir, ayni paytda, mas'uliyatli keskin va kutilmagan startlarda ular o‘z imkoniyatlaridan sa-

marali foydalanadilar. «Frustratsiya» omili (10,50-11,51) past bo‘lgan faoliyatda sust bo‘lib, eng muhim va mas'uliyatli holatlarda o‘zlarining eng yaxshi xususiyatlarini namoyish etadilar. Shuningdek, 1-kurs bo‘lajak muhandislarning ruhiy stresslari ma'lum sharoitlarda aqliy zo‘riqishlarga olib kelishi mumkin. Xavf guruhiga tashvish darajasi yuqori bo‘lgan bo‘lajak muhandislar ish faoliyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Shuningdek, bo‘lajak muhandislar faoliyatida stress va depressiyaga moyillik tashvish darajasining oshishiga va natijada faoliyat natijalarning yomonlashishiga olib keladi. Ayni paytda, bo‘lajak muhandislar dinamik monitoring, shuningdek profilaktika choralari va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning individual shakllarini rivojlantirish hamda psixologik yordam choralarini qo‘llash zarurligini anglatadi.

Bo‘lajak muhandislar psixologik salomatlik muammosinining dolzarbligi uning ilmiy jihatdan aniq bir tizimga ega emasligi, nazariy jihatdan ma'lum darajadagi ilmiy tahlillarning taqchilligi, amaliy jihatdan muammo bo‘yicha alohida empirik tadqiqotlar pedagogik-psixologiyada olib borilmaganligi kabi holatlarning mavjudligini isbotladi.

Bo‘lajak muhandislar psixologik salomatlikni pivojlanishida emotsional intellekt muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda empatiya, emotsional bilimdonlik, emotsiyalapni boshqapish, boshqalapning emotsiyalapini tushunish bilan bog‘liq yetakchilik tendentsiyasi anqlandi hamda ushbu omillar psixologik salomatlikni pivojlanishini ta'minlashi asoslandi. Shuningdek, sportchilar psixologik salomatligini shakllantirishda ularning shaxs xususiyatlari hamda o‘ziga xos pedagogik -psixologik, bilimlariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Собиров.А.А. «Виды психологической защиты личности в спорте и в жизни»
2. Sobirov.A.A Bo’lajak muhandislarda psixologik salomatlikni shakllantirish
3. Гринь Е. И. Личностные ресурсы преодоления психического выгорания у работников: автореф. дис. ... канд. психол. наук. Краснодар, 2009. 24 с.
4. Карпов В. Е. Совершенствование средств саморегуляции психического состояния хоккеистов высшей квалификации в игровой деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Челябинск, 2002. 21 с.
5. Sobirov A. Психическое здоровье //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

Shoniyazova Iroda Muradullayevna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
"Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi.

O'SMIRLARDA AFFILIATSIYA MOTIVINI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada affiliatsiya motivining ("to affiliate" – "birlashtirmoq", "birlashmoq", "insonning boshqa odamlar davrasida bo'lishga intilishi") nazariy tadqiq qilish, uni kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarining nazariy tahlillar bayon qilingan. Xorijda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar ham affiliatsiya motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xodisa ekanligini tasdiqlaydi va uning guruhiy jarayonlar va unda faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Bundan biz ham o'z tadqiqotimiz uchun nazariy-metodologik xulosa chiqardik.*

Kalit so'zlar: *kreativ tafakkur, ehtiyojlar, tanqidiy motivatsiya, maqsad, psixologik muloqot,qobiliyat, streotip,guruh, ratsionalizm va irratsionalizm.*

Актуальность. *В статье описывается теоретическое исследование мотива аффилиации («присоединяться» - «объединять», «объединять», «стремление человека находиться в кругу других людей»), теоретический анализ социально-психологических факторов, влияющих на формирование учащихся младшего школьного возраста. Многие исследования, проведенные за рубежом, также подтверждают, что мотивация аффилиации является социально-психологическим феноменом и доказывают, что она положительно влияет на групповые процессы и эффективность деятельности в ней. Из этого мы также сделали теоретико-методологический вывод для нашего исследования.*

Ключевые слова: *творческое мышление, потребности, критическая мотивация, цель, психологическая коммуникация, способность, стереотип, группа, рационализм и иррационализм.*

Практическая обусловлена возможностью использования полученных в нём результатов при написании обобщающих трудов по истории таджикской и узбекской музыки, в специальных лекционных курсах по истории культуры и искусства таджикского и узбекского народа, по основам макомов в высших учебных заведениях. Результаты исследования могут быть использованы также Академией макома, Национальной консерваторией, Институтом искусств и средними специальными учебными заведениями республики в преподавании музыкальных дисциплин и пропаганде музыкального творчества таджиков и узбеков.

Актуальность проблем и тем, решаемых в этой диссертации, играет важную роль в науке о хороводстве. Также ожидается, что он будет рекомендован в качестве практического и методологического подхода в высших и специальных учебных заведениях, для студентов художественных школ.

Двенадцать статус макома: Исторические источники утверждают, что в XIV-XVII веках в Средней Азии, Хорасане и Азербайджане было двенадцать макамов (дувоздах макомов). Наджмиддин Кавкаби Бухари и Дарвеш Али Чанги, ученые XVI и XVII веков, представили подробную информацию о двенадцати циклах в своих работах. В их брошюрах представлена информация о двенадцати макомах, исполнявшихся во времена Бухарского ханства, а также о мелодиях и песнях, сочиненных ими на их основе. Из этого можно сделать вывод, что двенадцать циклов использовались до восемнадцатого века. К середине XVIII века можно было с полным основанием говорить о том, что шашмаком образовался на основе двенадцати макомов. Потому что названия двенадцати позиций покрыты на основе методического пособия Исака Раджабова «Основы макома». Ташкент - 1992. Редактор Р. Юнусов, также можно сделать вывод, что не все категории исполнительного статуса могли выжить, потому что у большинства из них не было записей. В ветвях двенадцати макомов мы находим названия всех ветвей Шашмакома. Наджмиддин Кавкаби сравнивает формирование двенадцати циклах с 12 созвездиями на основе солнечных созвездий и дает следующий порядок:

1. Хамал – jadiy
2. Савр - Зангула
3. Джавзо – Бузург
4. Рак – Хусейни
5. Асад – Ушшак
6. Сунбула - Зирофканд
7. Мезон - Рост
8. Акраб - Хиджаз
9. Каус - Ирак
10. Джади-Бусалик
11. Дальв - Наво
12. Худ - Исфахан

Выше упомянутые созвездия - это названия звезд, которые находятся на пути движения солнца по небу, при этом солнце проходит через луну в течение одного месяца в году. Наступление месяца Хамал в начале знака зодиака объясняется тем, что Новый год начинается с Наврузом и в этот день приходит солнце по зодиаку.

ШАШМАКОМ (Шесть позиций): Шашмаком - таджикское слово, означающее шесть макомов. Шашмаком - это продукт древних композиционных традиций и творчество народных (Бастакоров) композиторов. Слово композитор означает соединитель на основе персидского термина -Мусандиф. Все разделы серии макомов были созданы определенным композитором и стали достоянием народа, потому что пользовались популярностью. В результате статуст стал богаче. Эта традиция продолжается и сегодня.

Шашмаком занимает уникальное место в узбекской музыкальной культуре и является основой музыкального наследия нашего народа. Он состоит из около 250 музыкальных инструментов и прозы (песен), которые связаны между собой на основе определенных настроений и стилей. Шашмаком состоит из больших групп, называемых Бузрук, Рост, Наво, Дугох, Сего[и Ирак. Каждый из них состоит из 20–45 больших и малых путей статуса. Каждая серия в Шашмакоме исполнялась и исполняется музыкантами, певцами и ансамблями в виде сольных мелодий и песен. Каждый маком состоит из двух частей, которые разделены наинструментальную и вокальную «Бозгуй» означает «возвращение», которое повторяется и завершается после исполнения мелодии. Опять же, мелодии «пешрав» играют важную роль в улучшении исполнения. Пешрав означает «вперед» и повторяется несколько раз на разной высоте мелодии и соединяется с бозгой. Филиалы отдела прозы (пения) Шашмакома также являются продуктом композиции. Это более 200 песен разных жанров, на основе которых композиторами созданы сотни мелодий и песен. Поющие части Шашмакома делятся на две отдельные группы, которые состоят из более сложных ветвей.

Первый - это часть Сарахбора, Талкина, Насра и Уфара. Второй - в основном савто-монгольский. Виды играют важную роль в исполнении вокального отделения. «Намуд» означает появление, что означает сходство и повторение одной части песни в другой. Типы распространены в вокальной части шашмакома. Это Дугох, Сегох, Баёт, Наво, Уззол, Ушшок, Ораз, Насруллойи, Мухайяри Чоргох, и можно узнать, из какой ветви статуса они происходят. Когда часть, производная от одного статуса, используется в другом статусе, он адаптируется к методам движения мелодии, структуры и круга этой ветви статуса. Типы встречаются и в народных песнях в большом количестве.

“Зебо пари авжи” - используется во всех позициях, кроме сегоҳ мақома, и является популярным авж. Его создал знаменитый Хафиз Зебо пари из Исфары, прославившийся в исполнении макома и традиционных песен. Так называемая Турецкая вершина была древней и использовалась в ответвлениях макомов Бузрук и Сегох. Он также используется как столь необходимый аккомпанемент при исполнении традиционных песен. Эти типы и высота адаптированы к характеристикам законного развития мелодических структур, духу мелодии, внешнему виду завесной структуры основания и круговому методу. Их поют по-разному с неповторимым тоном.

Как упоминалось выше, первая группа ветвей Шашмакома включает Сарахбор, Талкин, Наср, их мелодии и части Уфара. Каждая статусная серия начинается с Сарахбор.

Сарахбор в переводе с таджикского означает «сар», что означает голова, а ахбор - арабское слово, означающее «сообщение» и означает вступление. И на узбекском «Бошланғич ахборот». В каждом из шести макомов они сочетаются с названиями макомов и называются Сарахбор, Бузрук, Сарахбори Рост, Сарахбори Наво, Сарахбори

Дугох, Сарахбори Сегох и Сарахбори Ирак. Они исполняются в темпе по 11-14-15 слогов.

Талкин означает «объяснение» на арабском языке, и эта ветвь встречается во всех позициях, кроме Ирака, и называется Талкини Уззал, Талкини Ушшак, Талкини Баёт, Талкини Чоргох, Талкини Сегох. Мелодии интерпретации выполняют ту же функцию, что и в Сарахборе. Фойлатун- фойлатун-фойлатун-фойлун исполняется с поэтическим ритмом.

Проза означает голосы, и в Шашмакоме их называют четырнадцатью именами:

В Бузруке - Насруллой, Наср Уззол;
В Росте: НасрУшшак, Навруз Саба;
В Наво - Насри Баёт, Орази Наво, Хусейни Наво;
В Дугох- Насри Чоргох, ОразиДугох, Хусейни Дугох;
В Сегох - Насри Сегох, Навруз Хоро, Навруз Аджам;
В Ираке - Мухаяри Ирак.

По иследованиям профессора С. Саидий как искусствоведа, «Слово мухайяр по-арабски означает сломанный, потому что в Бухаре название Ирака означает название страны, а слово (ир) по-арабски означает петь, а слово (рок) означает танцевать.). Эта проблема показывает, что возможно, дело не в статусе Ирак, а в статусе Ирака- (Ir-raq). Если уделить больше внимания вопросу, то произведение из бухарского шашмакома исполняется в современном Ираке, не кажется ли им эта традиция чуждой или далекой от своей абсолютной идентичности и настроения? Иракцы ничего не знают о бухарском шашмакоме. С одной стороны, удивительно, что вышеупомянутые прерванные выступления в Ираке можно рассматривать как реалистичный пример, учитывая сарвиноз сакийномайи савти Кашкарчаи сакийномаи его уфари савти сарвиноз, где можно попасть под Мухайяри Ир-рок а не (Ирок). Что можно скажать в Бухарском Шашмакоме где называют Ирок а не Иррок пропушено одно буква (Р) ».[8.44-47]

Они исполняются на основе увесистой поэтической серии мафойилун - мафойилун - мафойилун.

Уфар является завершающей частью представлений макома и исполняется в стиле весёлой-дойри. Ветви каждого макома и их мелодии испольняются последовательно, заканчивая уфаром и заканчивая последним испольнением. В танцевальный часть «Уфар» используются стихи разного ритма.

Вторая группа традиционных рамз-(наследственный)-это савтские и могольские песнопения. Вторая группа состоит из пяти частей, в основном песен. Также есть статус Талкинча, Кашгарча, Сакийнома, Уфар. Они проводятся с Рамал, Камил, Музоре, Раджаз, Мутраки. Среди ветвей второй группы Рок, Бухарский Ирак, Мустахзоди Наво отличаются от могольских ветвей савта по своему строению, а их основные партии исполняются методами Сарахбора и Талкина.

В XX веке многие занимались сбором статусных образцов, транскрибируя их в современную европейскую музыку. В частности, по инициативе уроженца Бухары профессора Абдурауфа Фитрата, занимавшего пост министра образования Бухарской Народной Республики, из Ташкента в Бухару был приглашен известный фольклорист В.А. Успенский и впервые получил шашмаком. Этот сборник был издан в Москве 1924 году в 100 эгзимпляров. А Фергана-Ташкент, написанная В.А. Успенским в 1930-е гг, Составила отдельную коллекцию заметок. Позже, в 1950-1967 годах, таджикские музыканты Бобокул Файзуллаев, Шоназар Сохибов и Фазлиддин Шахобов подготовили пяти томный шашмаком и издали его в Москве.

В 1966-1975 годах вышла шеститомная записка «Шашмаком», переработанная Юнусом Раджаби с огромными ошыбками которого непризнають Бухарци доцих пор.

Макомние статусы Хорезма и Фергана-Ташкент были записаны А. Беляевым в 1930-е годы и перепечатаны Юсуповым в 1980–1987 годах.

В результате усилий первого Президента Узбекистана И.А. Каримова 1 сентября 1991 года Узбекистан был провозглашен независимым государством. Интересно, что Шашмаком, охватывающий 2400-летнюю историю развития нашей независимости, в которой были свои взлеты и падения, стал всемирно известным в 2005 году и неоднократно снимался на видео и архивировался со стороны ЮНЕСКО.

Эмпирическим точки зрении наше традиционное достижение и гордость - то, что бухарский «Шашмаком» навсегда займет 1-е (первое) место в центре мировой традиционной музыки, как в области инструментальной (Мушкулот), так и вакальной (Наср). Второе место в исполнении заняла индийская «Рага», а итальянская «Опера» в направлении Ашула навсегда запечатлена третим со сторони ЮНЕСКО.

Основная цель - научить студентов и молодежь истории и исследованиям шашмакома и макомов, которые являются нашим древним искусством и символом, а также потребовать от будущих поколений сохранить свое наследие в качестве образцов нашей родины.

Литература:

1.Авеста. Хордэ Авеста (Младшая Авеста) /Подготовка авестийского текста, перевод, предисловие, комментарий М. В. Чистякова. – СПб., 2005.- 351с.

2.Атригул Ризвоншоева**.** //Шашмаком - уникальное явление в мире музыки. 12.05.2021 14:47 Т/В.Тадж.

3.Барри Лейн. Проект по сохранению классической музыки центральной Азии - Шашмаком// Шашмаком сабоқлари. (Сб. ст) Ч. 1.-Тошкент, 2005. -С.

4.Болтаев Р. “Хоразм Танбур ва дутор мақомларининг муносабатларига доир” // Шашмақом сабоқлари (маъруза ва мақолаларнинг иккинчи тўплами) – Тошкент: 2005. – Б.134.

5.Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода . 48-57 бетлар.

12. 20. 21.Ибрагимов О.А. Фергано-Ташкентские макомқ.–Тошкент:2006.–176 б.

6.Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.,1994. –Б.93-94.

7.Муминовна Ф.Н., Саидий С.Б.Подготовка специалистов по прикладной музыке. Методы в преподавании музыкально-теоретических дисциплин на основе сольфеджирования макомов. Science and education. Scientific journal.issn 2181-0842.volume 3, issue 3.march 2022 924-стр.

8.С.Саидий Ўзбек мусиқа тарихи./ дарслик-1-2 қисм/ С.Салим Бухорий нашр. Бухоро-2021. 1-қисм

9.Шаинская Э.Н. Дебердеева С.Ф.Глиндеман И.С Мадрахимова Х. Узбекская классическая профессиональная музыка устной традициимаком на уроках музыкальной культуры в 5-7 класс. Ташкент “Мехнат”-2002



Abdulloyev Asliddin Junaydulloevich,
BuxDU, "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, professor, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY AGROKLASTERLARNING BOShQARIShNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada agroklasterlar faoliyatini boshqarishga bag'ishlangan ilmiy qarashlar tahlil qilinib, uning rivojlanishiga xos xususiyatlar aniqlangan. Jumladan, agroklaster iqtisodiy kategoriyasiga takomillashtirilgan mualliflik tarifi ishlab chiqilgan*

Kalit so'zlar: *klaster, agroklaster, boshqaruv, klasterli boshqaruv, raqobatbardoshlik, global raqobatbardoshlik, ixtisoslashuv, integratsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi*

Аннотация. *В статье анализируются научные взгляды на управление деятельностью агрокластеров и выявляются особенности его развития. В частности, разработано усовершенствованное определение экономической категории агрокластера*

Ключевые слова: *кластер, агрокластер, управление, кластерное управление, конкурентоспособность, глобальная конкурентоспособность, специализация, интеграция, продовольственная безопасность, сельское хозяйство*

Annotation. *The article analyzes scientific views on the management of agroclusters and identifies the features of its development. In particular, an improved definition of the economic category of an agrocluster has been developed.*

Keywords: *cluster, agrocluster, management, cluster management, competitiveness, global competitiveness, specialization, integration, food security, agriculture*

Jahon bozoridagi raqobat kurashining tobora jadallashuvi, mamlkatlar milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Jumladan, mamlakat aholisini sifatli va arzon narxlardagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, milliy oziq-ovqat xavfsizligiga erishish har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bugungi kunda jahondagi 38,2 mln.dan ortiq aholi to'yib ovqatlanmaydi, mamlakatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini samarali qondirishga qaratilgan islorhotlar ishlab chiqilib, ularni amaliyotga joriy etilmasa, yaqin yillarda ularning soni 80,0 mln.dan ortib ketishi mumkinligi prognoz qilingan. Ushbu holat har qanday mamlakat amaliyotida qishloq xo'jaligini boshqarishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish zaruriyatini kuchaytiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Agroklasterlarfaoliyatini tashkil etish va uni boshqarishga oid ilmiy-nazariy qarashlarning rivojlanish bosqichlari, agroklasterlar boshqaruvida innovasion loyihalardan foydalanish samaradorligini oshirish va unga ta'sir etuvchi omillar, agroklaster boshqaruvining uslubiy asoslarini takomishllashtirishning ustuvor yo'nalishlari uzoq xorijlik R. Klaudio, R.G. Kuper, M. Delgado, D. Doloreuks, I. Laur, G. Linden kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topadi.

Tadqiqot usullapi.

Tadqiqot japayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o‘rganish, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil usullari qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar

Jahon amaliyoti tahliliga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, jumladan, sohaga innovasion loyihalarni joriy etish orqali global raqobat kurashidagi mamlakatlarning tutgan o‘rnini mustahkamlashda agroklasterli boshqaruv amaliyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar boshqa mamlakatlarga nisbatan samarali natijalarga erishib kelmoqdalar. Shu bilan birgalikda, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lgan yoki unga a’zo bo‘layotgan mamlakatlar amaliyotida qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda aynan agroklasterli yondashuvga o‘tilganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy adabiyotda klasterli boshqaruvning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning turli tarmoqlararo kompleslarni shakllantirishdagi aahamiyati, jumladan, agroklasterli boshqaruv asosida qishloq xo‘jaligini innovasion rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirilishi borasidagi ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-80 yillaridan boshlab amalga oshirila boshlagan. 1990-2000-yillarda jahonda global iqtisodiy munosabatlarning jadal sur’atlarda o‘zgarishi mamlakatlarning innovasion rivojlanishga bo‘lgan intilishlarining kuchayishining ortishi taraqqiy etgan va jadal sur’atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jaligida agroklasterli boshqaruv amaliyotiga tobora ixtisoslashuvning kuchayishiga olib keldi. Natijada, agroklasterli boshqaruv iqtisodiy adabiyotda qishloq xo‘jaligining innovasion boshqarishda integrasion munosabatlarni chuqurlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish imkonini beruvchi innovasion boshqaruv usuli sifatida baholana boshladi.

AQSh, Germaniya, Fransiya, Finlandiya, Avstriya, Niderlandiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Malayziya, Indoneziya, Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar va Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Vengriya, Sloveniya kabi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar amaliyotida milliy qishloq xo‘jaligining global raqobatbardoshligi daraajasini oshirishda agroklasterli boshqaruv uslubiyotidan foydalanish kelinmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bugungi kunda jahon mamlakatlarining 50,0 foizidan ortiq qismi qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirish, milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlashda aynan agroklasterli boshqaruv amaliyotidan keng foydalanib kelmoqdalar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlantirish, uning global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichlarini yaxshilash, sohaga innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini sifat jihatdan takomillashtirishda agroklasterli boshqaruv amaliyotiga o‘tish zamon talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda, degan xulosaga kelish mumkin. Bunda iqtisodiy adabiyotda klaterli yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi borasidagi ilmiy tadqiqotlarni chuqur tadqiq etish talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligini agroklasterli boshqaruvi amaliyotining tub mohiyatini tushunib yetish uchun avvalo uning asosini tahlil qilish lozim. Umuman olganda agroklasterli boshqaruv “klaster” atamasi bilan bog‘liq holda shakllangan. Klaster atamasi kelib chiqishi ingliz tilidagi “cluster” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan turli o‘zaro bog‘liq va aloqadorlikda bo‘lgan elementlarning birlashishi, ularning bir nuqtada (yoki joyda) to‘planishini anglatadi. Shu bilan birgalikda, ma’lum bir darajadagi umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan turli guruhlarni ham anglatadi.

Fan sohasida “klaster” atamasi dastlab aniq va tabiiy fanlarda qo‘llanilgan bo‘lib, XX asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiy adabiyotga kirib keldi. Bunda shved iqtisodchilari K. Fredrikson va L. Lindmarklar tomonidan o‘tkazilgan hududiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot jarayonida ushbu olimlar tomonidan bir hududda joylashgan turli korxon-

alar faoliyatini tahlil etishda, o‘zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishgan, ya’ni bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishda turli korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorliklarning tashkil etilganligi aniqlanib, ular faoliyatining umumiy natijasini baholashda klaster atamasidan foydalanilgan.Bu esa iqtisodiy adabiyotda klasterli yondashuvning shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Ilk bor iqtisodiy adabiyotda XIX asrda yashab o‘tgan V. Laundxardt, A. Veber va A. Marshallar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda klasterli boshqaruv uchun xos bo‘lgan xususiyatlar namoyon bo‘lgan. Mazkur olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ob’ekti sifatida industrial hududlar tanlab olinib, bunda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqarishning geografik lokalizatsiyasi o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi borasidagi ilmiy xulosalar olingan. Ammo ular ushbu jarayonlarni klasterli yondashuv sifatida emas, balki korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi integrasion munosabatlarni mavjud ekanligiga e’tibor qaratganlar. Shu bilan birgalikda, bir hududda ma’lum bir turdagi tovar ishlab chiqarish va yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni maxalliylashtirish dasturlarining samarodorligini oshirishda unda ishtirok etuvchi korxona tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro integrasion munosabatlarni chuqurlashtirish lozim, degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, B. Yonson va B. Laundvallar tadqiqotlarida ham klasterli boshqaruv nazariyasi bilan bog‘liq hisoblangan ilmiy qarashlar uchraydi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan “rivojlanish bloklari” konsepsiyasida ham hududiy ishlab chiqarish birlashmalari (uyushmalar) bilan ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi muassasalar faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlanishi milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va global darajadagi raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini kengaytirishi to‘g‘risida ilmiy qarashlar mavjud.

XX asrning 80 yillariga kelib, M. Porter tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda klaster atamining iqtisodiy kategoriya sifatidagi tub mohiyatini yoritishga harakat qilingan. Uning fikricha, “ma’lum bir sohada, geografik jihatdan bir hududda joylashgan korxona, tashkilot va institutlar xo‘jalik faoliyatining tarmoqlararo birlashuvida namoyon bo‘lishi klaster hisoblanadi”. Mazkur yondashuvda klasterli boshqaruv bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi turli korxona va tashkilotlar o‘rtasidagi chuqur integrasion munosabatlarga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

M. Porter tadqiqotlari o‘zidan avvalgi tadqiqotlarda integrasion munosabatlar borasidagi ilmiy qarashlarning afzalliklarini umumlashtirgan holda ularni klasterli boshqaruv xususiyatlari sifatida baholaganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, olim tomonidan jahonda yetakchi 10 ta mamlakat milliy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari o‘rganilganda, klasterlashtirish milliy raqobat afzalliklaridan foydalanish samaradorligini oshirishi va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini kafolatlovchi jarayon ekanligi aniqlangan.

Qishloq xo‘jaligi rivojlanishini agroklasterlar faoliyatini tashkil etish orqali boshqarish samaradorligini oshirish xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ham o‘z aksini topadi. Jumladan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti eksperti E. Galvez-Nogales fikricha, agroklasterlar qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi turli korxona va tashkilotlarning umumiy iqtisodiy manfaatdorlikka erishishida o‘z imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida rasmiy yoki norasmiy tarzda qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, ilmiy tadqiqot institutlari, xizmat ko‘rsatish kabi sohalar o‘rtasidagi o‘zaro integrasion munosabatlarga kirishishi bilan birgalikda tarmoqlararo munosabatlarni o‘rnatilishi natijasida shakllanadi. Mazkur ilmiy qarash agroklasterlar har qanday vaziyatda ham shakllanishi mumkinligini anglatadi. Ya’ni olim tomonidan berilgan tarifda “rasmiy yoki norasmiy tarzda” deb ta’kidlanishi, qishloq xo‘jaligi faoliyatini yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi mahsulot ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan o‘zaro hamkorlik munosabatlari rasmiy klaster tashkil etilmagan taqdirda ham, integrasion munosabatlarga kirishishi natijasida ular faoliyatini boshqarilishida klasterli yondashuv shakllanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Shuningdek, V.V. Demichev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda agroklasterlarni tashkil etish orqali klasterli boshqaruv asosida raqobat ustunligiga erishish mumkinligi isbotlangan. A.S. Xuxrin fikricha, qishloq xo‘jaligini rivojlanishi sharoitida klasterlar mustaqil ravishda shakllanadigan yaxlit tuzilma hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarga asoslangan holda, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda agroklaster faoliyatini tashkil etilishi tabiiy hol ekanligi haqidagi xulosalarga kelish mumkin bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida agroklasterlarni shakllanishi uni boshqarish amaliyotini tubdan takomillashtirish zaruriyatini uyg‘otadi. Shu o‘rinda T.V. Sixan tadqiqotlariga e’tiborni qaratish zarur. Olim agroklasterlar faoliyatini tashkil etish orqali qishloq xo‘jaligidagi o‘zaro aloqador bo‘lgan xo‘jalik yuritish shakllari faoliyatini birgalikda boshqarilishi ularning iqtisodiy faoliyati samaradorligini keskin oshirish bilan birgalikda, raqobat ustunligiga erishishi kafolatlanadi, deb hisoblaydi. Jumladan, agroklasterlar namoyon bo‘lishining quyidagi uch xususiyatini ajratib ko‘rsatadi:

- agroklasterlar yuqori agregatlashuv darajasiga ega bo‘lgan tarmoqlararo integrasion birlashma sifatida namoyon bo‘ladi;
- agroklasterlar qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq holda ilmiy faoliyat yurituvchi ilmiy tadqiqot muassasalari, shuningdek, turdosh va sohaga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlardagi iqtisodiy faoliyatning hududiy jihatdan chegaralangan shakli hisoblanadi (bunda bir hududda tashkil etilgan hududiy agroklasterlar faoliyati nazarda tutilmoqda);
- vertikal tarzda tashkil etilgan agroklasterlar – bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni iste’molga yaroqli holatga kelgunga qadar bo‘lgan barcha ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etuvchi turli tarmoq vakillari manfaatlarining birlashuvi nazarda tutiladi.

Shuningdek, A.A. Migranyan tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham klasterlar faoliyatini tadqiq etishda quyidagi uch xil yondashuv ajratib ko‘rsatilgan:

- ma’lum bir hududda yirik korxona atrofida jamlangan xo‘jalik sub’ektlari klaster sifatida namoyon bo‘ladi;
- iste’molga tayyor holatdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha bo‘g‘inlar, jumladan, ilmiy tadqiqot, hom-ashyo ta’minoti, ishlab chiqarish, tijorat va undan keyingi xizmat ko‘rsatish kabi sohalarni o‘zida mujassamlashtirgan korxona va tashkilotlarning vertikal shakldagi texnologik tizimdagi jamlanmasi;
- soha yoki tarmoq klasteri.

Maxalliy iqtisodchi olimlardan, Ch. Murodov fikricha, “agroklaster – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish va yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilma majmuini shakllantirish va rivojlantirish, qishloq aholisini ish bilan bandligi darajasini oshirish hamda kelajakda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va ekologik muhitni yaxshilashda faoliyatyuritadigan xo‘jalik yuritish sub’ektlaridan tarkib topadi”. Olim tomonidan agroklasterlarga nisbatan berilgan tarif uning keng ma’nodagi mohiyatini tushuntirishga xizmat qiladi. Jumladan, olim agroklasterlar faoliyati uchun xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatadi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha hududiy ixtisoslashuv va maxalliylashtirish;
- tarmoqning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar;
- turli tarmoqlar o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o‘zaro aloqalarning shakllanishi.

Shu bilan birgalikda, U. Saidaxmedov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda “klasterlar – bir xil yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan sohalarda faoliyat yuritayotgan va geografik jihatdan o‘zaro yaqin joylashgan korxonalaar guruhidir. Bu korxonalar texnologik jihatdan

o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, ushbu korxonalar bitta umumiy maqsad uchun – raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun birlashgan bo‘lishi zarur”. Ushbu tarifda klasterli boshqaruv raqobatbardoshlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozimligiga ustuvorlik qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shunga o‘xshash ilmiy qarash R.I. Isroilov tadqiqotlarida ham o‘z aksini topadi. Uning fikricha, “klaster – aniq bir sohada texnologik zanjirga birlashgan, bir geografik hududda joylashgan, bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik sub’ektlari va rivojlanish institutlari guruhi hisoblanib, bir maqsad uchun raqobatbardoshligini ta’minlash yo‘lida o‘zaro birlashtiruvchi jarayondir”.

Maxalliy iqtisodchilardan yana biri Q. Mamadaliev o‘z ilmiy tadqiqotlaridaa “klaster o‘zida lokalizatsiya qilingan iqtisodiy tuzilmalar majmuini ifodalaydi” degan g‘oyani ilgari suradi. Mazkur tarifda agroklasterlar faoliyatini rivojlantirish orqali amalga oshirilayotgan maxalliylashtirish dasturlarining samaradorligini oshirishga erishilishiga ustuvorlik qaratilgan. Ushbu yondashuv yuqorida keltirilgan Ch. Murodov tomonidan agroklasterlar uchun xos bo‘lgan xususiyatlarning agroklasterli boshqaruvda namoyon bo‘lishini anglatadi.



1-rasm. Agroklaster faoliyatini boshqarishning texnologik zanjiri

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterli boshqaruv sohasiga oid bo‘lgan ilmiy qarashlarni tizimli tahlil qilish asosida qishloq xo‘jaligini klasterli yondashuv asosida boshqarish 1-rasmda keltirilgan tartibdagi texnologik zanjirni shakllanishi orqali namoyon bo‘ladi degan xulosaga kelindi.



2-rasm. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy agroklasterlarning tarkibiy tuzilishi

Ishlab chiqilgan agroklasterlar faoliyatini boshqarishning texnologik zanjiri qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan tortib, uni sanoat tarmoqlarida qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotni saqlash, yetkazib berish, qadoqlash kabi xizmatlar bilan birgalikda, uni iste’molchiga yetib borgunga qadar davrni o‘z ichiga olganligi bilan xarakterlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu texnologik zanjir agroklaster faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish siklini ham o‘zida mujassamlashtirgan holda, doimiy ravishda takrorlanish xususiyatiga ega hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida agroklasterlarni tashkil etilishi sohaning global darajadagi raqobatbardoshligini oshirishi, milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkoniyatini kengaytirishi bilan birgalikda, innovasion rivojlanish samaradorligini ta’minlayotgani borasidagi ilmiy qarashlarga asoslangan holda, zamonaviy agroklasterlarning tarkibiy tuzilishi 2-rasmda keltirilgan tartibda bo‘ladi, degan xulosaga kelindi.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda agroklasterli boshqaruvning rivojlanishiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish asosida uning namoyon bo‘lishiga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlar mavjudligi aniqlandi:

- agroklaster tarkibiga kirgan korxona va tashkilotlarning geografik jihatdan bir hududda joylashishi;
- ma’lum bir turdagi mahsulotni yaratish bo‘yicha tarmoqlararo integrasion munosabatlarning kuchayishi;
- maxalliylashtirish dasturlari samaradorligini oshirish;
- agroklaster tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda agroklaster tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlar manfaatlarining birdek ko‘zlanishi;
- agroklaster tashkil etilgan sohaning innovasion faolligi darajasining keskin ortishi;
- agroklasterlarning kapitalizatsiyalashuv darajasining yuqoriligi;
- moliyaviy imkoniyatlarning kengligi;
- xalqaro bozorlarga chiqish, jumladan, yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatining ortishi va h.k.

Iqtisodiy adabiyotda agroklasterlar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish asosida unga mualliflik tarifi ishlab chiqildi. Fikrimizcha, agroklasterlar – zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi hom ashyo bazasi hisoblangan sanoat tarmoqlari, ilmiy tadqiqot institutlari, moliyaviy tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari, jamoatchilik tashkilotlari, qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlariga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar, maxalliy va xorijiy investorlar o‘rtasidagi integrasion munosabatlarga asoslangan ma’lum bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha turli korxona va tashkilotlar majmuasidan tashkil topgan hududiy birlashgan xo‘jalik yuritish shakli hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligini agroklasterli boshqaruv esa unga a’zo bo‘lgan tarkibiy korxonalarning umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda xo‘jalik faoliyati yuritish bo‘yicha qarorlarni qabul qilinishida o‘z aksini topadi. Shu bilan birgalikda, agroklasterli boshqaruv qishloq xo‘jaligida innovasion faollik darajasini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda agroklasterli yondashuvga asoslangan boshqaruv amaliyotiga o‘tish milliy va global darajada iqtisodiy munosabatlarning tobora murakkablashib borishi sharoitida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish salohiyatidan samarali foylanish uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1.COVID-19: Vvedenie ekonomicheskix stimulov s selyu sglajivaniya dolgovremennix negativnix posledstviy dlya urovnya goloda.
http://www.fao.org/news/story/ru/item/1273496/icode/

2.Falkovich Ye.B., Kotlyarov D.A. Agrarniy klaster kak innovasionnoe napravlenie integrasii v APK stran tamojennogo soyuza i Yedinogo ekonomicheskogo prostranstva // Vestnik universiteta kooperasii, ekonomiki i prava. 2014. № 1 (49). s. 340-346

3.Kleyner G.B., Kachalov R.M., Nagrudnaya N.B. Sintez strategii klastera na osnove sistemno-integrirovannoy teorii // Otraslevie rinki. 2008. № 5-6 (18) s. 31

4.Falkovich Ye.B. Teoreticheskie aspekti klasterizasii agrarnoy sferi. // Vestnik Tambovskogo universiteta. Seriya. Gumanitarnie nauki. 2014. № 5 (133). s. 73-79

5.Murodov Ch., Hasanov Sh., Murodova M. Agroklaster: tashkil etishning nazariy asoslari. // Iqtisod va moliya ilmiy jurnali. 2014. № 2. 19-25 betlar.

6.Spatial analysis, industry and the industrial environment. Progress in research and applications. Vol. 1. Industrial systems / Edited by F.E.I. Hamilton and Linge G.J. R. Chichester, N.Y. Brisbane, Toronto: Wiley, 1979.

7.Wilhelm Launhardt. The theory of the Trace: Being a Discussion of the Principles of Location. Nabu Press. January 2010. 358 p.

8.Alfred Weber. Theory of the Location of Industries. University of Chicago Press. 1929. 256 p.

9.Alfred Marshall. Principles of Economics (Great Minds). Prometheus. May 1997. 320 p.

10. Abdulloev A.J.Priority Dirtctions of Development of Cooperative Relations in Agriculture Journal of Ethics and Diversity in International Communication JEDIC e-ISSN: 2792-4017 Volume: 2 Issue: 3 B.25-28 , 2022

11. Abdulloyev A.J.,Qobilov J. Qishloq xo‘jaligini klasterlashtirishning xorijiy tajribasi. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnal.- Toshkent, 2023.№ 1- B.13-14.

MEHRIDARYO USTOZGA TA’ZIM

Annotatsiya. *Maqola Hamidulla Ikromovning ma’naviy-ma’rifiy ishlarining yo‘lga qo‘yilganligi, reyting ballari bo‘yicha yangiliklarni jamoaga tushuntirishlari, yo‘nalishlarning o‘quv rejalarini tuzishda, barcha fanlarning o‘quv dasturlarini tartibga keltirishda, bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiya mavzularini to‘g‘ri tanlash, ularni yozishda plagiatga chek qo‘yish, tadqiqotni chin dildan ishlash kabi o‘ta mas’uliyatli, og‘ir ishlarni o‘z zimmasiga olib ishlaydigan raxbarligi haqida yozilgan. Domla juda jiddiy edi. Bir kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor bo‘lib ishlaganida meni huzuriga chaqirib, San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida Alisher Navoiyga bag‘ishlab ilmiy, adabiy-badiiy tadbir o‘tkazishga yo‘l ko‘rsata oladigan ustoz.*

Kalit so‘zlar*: ustoz, o‘qituvchi, fidokor arbob, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, o‘quv reja, bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiya mavzulari, ilmiy-tadqiqot instituti, rahbar.*

Аннотация. *В статье идет речь о начале духовно-просветительской работы Хамидуллы Икрамова, разъяснении им новости о рейтинговых баллах коллективу, составлении учебных планов направлений, составлении учебных планов по всем предметам, выпуске квалификационная работа, написано о руководстве, которое берет на себя чрезвычайно ответственные и сложные задачи, такие как выбор правильных тем для магистерской диссертации, пресечение плагиата при их написании, добросовестное проведение исследований. Учитель был очень серьезен. Однажды, когда он работал проректором по духовно-просветительской работе, он позвал меня к себе и направил на проведение в НИИ искусствознания научно-литературно-художественного мероприятия, посвященного Алишеру Навои.*

Ключевые слова: *преподаватель, самоотверженный деятель, духовно-просветительская работа, учебная программа, выпускная квалификационная работа, темы магистерских диссертаций, научно-исследовательский институт, руководитель.*

Annotation*. The article deals with the beginning of the spiritual and educational work of Khamidulla Ikramov, explaining to them the news about the rating points to the team, drawing up curricula for directions, drawing up curricula in all subjects, issuing a qualifying work, it is written about the leadership, which takes on extremely responsible and complex tasks such as choosing the right topics for a master's thesis, preventing plagiarism in writing them, conscientiously conducting research. The teacher was very serious. Once, when he worked as vice-rector for spiritual and educational work, he called me to his place and sent me to hold a scientific, literary and artistic event dedicated to Alisher Navoi at the Institute of Art History.*

Key words*: lecturer, lecturer, selfless worker, spiritual and educational work, curriculum, final qualifying work, topics of master's theses, research institute, leader.*

Sochlari o‘ngdan chapga qarab taralgan, boshiga kelishtirib qiya holda o‘ziga yarashtirib beretka kiyib olgan, egnida uzun plash, ichidan oq ko‘ylak, qora kostyum shim, bo‘ynida qora galstuk va uning ustidan gilamnusxa chiroyli sharf taqib, qo‘lida jigarrang portfel ko‘tarib viqor bilan qomatini tik tutib yuradigan Hamidulla Ikromovni institut fayesidami, koridordami ko‘rib qolsak, biz yosh o‘qituvchilar “institutga kelgan yangi domla shu ekan”, deb bir-birimizga pichirlab qo‘yar edik. Keyin bilsak, H.Ikromov yangi domla emas, azaldan o‘zini institut kelajagi, ravnaqi uchun fido qilib kelayotgan mehridaryo ustoz ekan.

Institutda ishga hammadan erta kelib, hammadan kech ketadigan Hamidulla Ikromov ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yo‘lga qo‘yilishida, reyting ballari bo‘yicha yangiliklarni ja-

moaga tushuntirishda, yo‘nalishlarning o‘quv rejalarini tushizda, barcha fanlarning o‘quv dasturlarini tartibga keltirishda, bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiya mavzularini to‘g‘ri tanlash, ularni yozishda plagiatga chek qo‘yish, tadqiqotni chin dildan ishlash kabi o‘ta mas’uliyatli, og‘ir ishlarni o‘z zimmasiga olib ishlaganini guvohi bo‘lganman.

Domla juda jiddiy edi. Bir kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor bo‘lib ishlaganida meni huzuriga chaqirib, San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida Alisher Navoiyga bag‘ishlab ilmiy, adabiy-badiiy tadbir o‘tkazilayotganini va u tadbirda “Alisher Navoiy” dramasidan Guli monologini aytishimni topshiriq qilib berdi. To‘g‘risi, bu asardagi Guli monologi mening yodimdan chiqib ketgan, topshiriq o‘ta mas’uliyatli, uning ustiga vaqt bir kun. Avvaliga domlaga bu gaplarni aytishga qo‘rqdim, “qanaqa o‘qituvchisan!”, deb urishib berishlari mumkin edi. Nima bo‘lsa bo‘ldi, deb hayajonimni ichimga yutib, “domla, bu asar mening yodimdan chiqib ketgan, Guli monologini qaysi birini aytaman, olimlar oldida monolog aytishim uchun meni tayyorlang!”, deb yuboribman, xuddi domlaga buyruq berganday. Domla avvaliga menga g‘alati qarash qildi, keyin miyig‘ida kulib, ko‘zoynagini oldida, menga asarni tushuntira boshladi. Domla menga asar voqealarini so‘zlar ekan, dramadan sahnama-sahna yoddan misollar keltirar edi. “Tushundingmi endi, lauriat qiz”, deb ikki varaq qo‘lda siyoh ruchkada yozilgan qog‘oz berdi. Ochib qarasam professor Lola Xo‘jaevaning yozuvlari, darrov tanidim. Lola opa dramaning aynan Guli monologigi montaj qilib, tayyor qilib qo‘ygan ekan. Bir kunning ichida tayyorlanib, tadbirda ishtirok etdim. Monolog muvaffaqiyatli ijro qilingan shekilli, ertasi kuni meni domla tabriklab qo‘ydi.

Shu shu men juda ko‘p tadbirlarga domlaning topshirig‘i bilan badiiy so‘z ichrochisi, boshlovchi sifatida qatnasha boshladim. Yosh pedagog bo‘la turib, “Xalqlar do‘stligi”, “Turkiston” san’at saroylarida, mahallalarda va O‘quv teatri sahnasida hamma tadbirlarni olib boradigan bo‘lib ketdim. Shuni xursand bo‘lib aytishim kerakki, Hamidulla Ikromov mening har bir chiqishimdagi yutuq va kamchiliklarimni yo‘l-yo‘lakay aytar edi. Men bundan kerakli xulosa chiqarar edim albatta.

Bir yili 8-Mart bayramiga boshlovchi qilib men va Ramziddin Qodirov tayinlandik. Bayramni shou qilib o‘tkazdik. O‘zimiz ham maza qilib tadbirni olib bordik. Tadbirdan so‘ng, domla meni huzuriga chaqirib, chiqishlarimiz yoqmaganini, bizga shou yo‘nalishida emas, jiddiy professional tarzda boshlovchilik yarashishini aytdi. Shundan keyin men bu borada jiddiy ishlashga qaror qilgandim. O‘sha jiddiylik meni aspiranturaga kirishimga ham sabab bo‘ldi.

H.Ikromov rektor vazifasini bajarishga kirishgan vaqtida barcha kafedralarda o‘quv rejalar, fan dasturlari tartibga keltirildi. Professor Hamida Mahmudovani yoniga olib, tinmasdan o‘quv reja va dasturlarni hijjalab ishlaganlarini guvohi bo‘lganman. “Ishga qo‘lni cho‘ntakka solib kelib ketaverish hammaga ham yoqadi, ammo bu kamchiliklarni kim to‘g‘irlaydi? Men ham olimman, bu ishlarning o‘rniga doktorlik dissertatsiyamni yozib, haftada ikki marta kelib ketsam bo‘ladi. Tezda akademik ham bo‘lishim ham mumkin, lekin mustaqillik davrida barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tartibga keltirmasak, institut kelajagi nima bo‘ladi?”, deb kuyinib gapirar edi domla.

“San’atshunoslik” kafedrasiga mudir qilib tayinlanganida qator yoshlar o‘sib chiqdi. Yoshlarga hujjatlar bilan ishlashni erinmasdan o‘rgatdi. O‘zi rahbarlik qilayotgan bakalavr va magistr talabalar bilan birga boshqa talabalarning ilmiy ishlarini sinchkovlik bilan tekshirib chiqar edi. Kafedradagi tartib-intizom barcha kafedra mudirlariga namuna edi.

2004 yili nomzodlik dissertatsiyamni himoyasi arafasida yetakchi tashkilot sifatida O‘zbekiston davlat san’at instituti belgilandi. Ishni olib kelsam, meni “Teatrshunoslik” kafedrasiga yuborishdi. Kafedrada san’atshunos olimlar Hamidulla Ikromov, Sotimboy Tursunboev, Toir Islomov bor ekan. Xulosani ham o‘zim yozsam kerak, deb tursam, gap qilmay olib qolishdi. Boshqa ishlarimni tezroq bajarishimni aytishdi. Bir haftaning ichida dissertatsi-

ya sinchkovlik bilan o‘qib, xulosa yozib berishdi. Taqriz juda sinchklab o‘rganib yozilgan. Aniq va lo‘nda fikrlar keltirilgan. Juda xursand bo‘lib xulosani olib ketdim.

Institutda “Aspirantura va magistratura” bo‘limi boshlig‘i, Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor lavozimlarida ishlagan vaqtimda hujjatlar bilan ishlashda, ilmiy ishlarni yo‘lga qo‘yishda, magistrlar va aspirantlarning ishmiy mavzularini to‘g‘ri tanlashda, himoya qilish-ida, har bir ishni sinchiklab o‘qishda to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar bergan Hamidulla Ikromovday olimlar borligi uchun unchalik qiynalmadim. Davlat grantlarini yutishda global masalalarning yechimini topishda, san’atshunoslik muammolarini o‘rganishda, chuqur analitik fikrga ega bo‘lishda jiddiylik, qitob o‘qishlik, olimlar tadqiqotlari bilan tanishish, tarixni o‘tganish eng muhim ekanini o‘rgandim.

H.Ikromov shogirdlari bilan birga spektaklt tomosha qilishga borar edi. Talabalarni mutaxassislikka spektakl muhokamalarida qatnashib fikr bildirishga o‘rgatish orqali olib kirar edi. Domla professionalizmdagi kemtiklarni darrov ilg‘ab olar, ilmiy anjumanlarda so‘zga chiqib, ularni o‘z vaqtida bartaraf qilish choralarini sanab berar edi. Ijodiy potensial nima deb savol berganimda “Ijodiy potensial – bu spektaklni sahnada mahorat bilan jonlantirishni ta’minlaydigan barcha soha mutaxassislarining teatrda mavjudligi va o‘z vazifalarida yuqori malakada bajara olishini tushunish kerak”, deb javob bergandi.

Men bu bo‘lgan voqealarni nima uchun keltiryapman, institutda ishlaydigan har qaysi pedagog ham har dom o‘quvchiga, shogirdiga yordam beravermaydi. Hamidulla Ikromov o‘z safdoshlari, zabardast olimlar qatorida yoshlarni doimo qo‘llab-quvvatlar, ularga goh qattiqqo‘llik bilan, gohida mehr bilan bilim olishga undar edi.

Hamidulla Ikromov 80 bahorni qarshilar ekan, hamon ijoddan to‘xtamaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda ham faol. Ilmiy maqola, esdaliklar yozib hamon shogirdlarini izlanishdan to‘xtamaslikka chaqirib turadi. Noyob manbalarni e’lon qilib, o‘zining auditoriyasiga qiziquvchilarni jalb etadi.

Men domlaga uzoq umr ko‘rishni, farzandlari, nabiralari va shogirdlari baxtiga sog‘-salomat bo‘lishlarini tilab qolaman. Qutlug‘ yoshingiz muborak bo‘lsin aziz Ustoz!

Adabiyotlar:

1. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь. Ташкент-2007

2. Г.Е. Халикулова. Народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф-певец родного края и любви. Международная конференция, стр. 154-159

3. Г.Е. Халикулова. Актуальные проблемы подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров в институте. Театр// – Ташкент: 2014, стр. 9-10.

4. Г.Е. Халикулова. Проблемы создания персонажей в театральных постановках. Роль искусства и культуры в формировании духовности человека / Республика...

5. Г.Е. Халикулова. Проблемы гармонии речи и движения в создании пьесы. Творчество Мукарамы Тургунбаевой и развитие ее узбекской сценической хореографии...

6. Г.Е. Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Университет культуры и искусств в мировом образовательном пространстве: Российский...

7. Г.Е. Халикулова. Новые стилистические исследования, совершенствующие дыхание в овладении навыками сценической речи актера. Сохранение национальности в области хореографии в условиях глобализации...

8. Г.Е. Халикулова. Современный руководитель озабочен повышением профессиональной речи женщины. "Женщина - расцвет духовности" ЖизПи., 4-я Республиканская научно-практическая конференция...

9. Г.Е. Халикулова. Роль искусства в развитии страны, процветании народа и воспитании зрелого поколения. «Подготовка образованного и интеллигентного зрелого поколения» прошла в Ташкенте

10. Г.Е. Халикулова, Шодиев Х.Х. Повышение качества подготовки кадров и развитие отрасли в Государственном художественном институте Узбекистана. Проблемы создания образа героя времени в искусстве и культуре Узбекистана...

11. Г.Е. Халикулова. Духовная зрелость является обязательным требованием. ЖизПИ, сборник, стр. 363

12. Г.Е. Халикулова. Мастер деликатных слов. Статья к монографии «Мухсин Гамидов (Мастер художественного слова)» УзГСИ, стр. 8

13. Г.Е. Халикулова. Искусство на пути к развитию. Калдиргоч, Ташкент

14. Г.Е. Халикулова. Вопросы повышения активности молодежи в музыкальном исполнительстве и ее развития. Ташкентский ТДМИ, (Топлам)

15. Г.Е. Халикулова. Личные комментарии о современном театре. Калдиргоч, г. Ташкент, стр. 2

16. Г.Е. Халикулова. Сцена - историческая сцена. Театр, Ташкент, стр. 20-21

17. Г.Е. Халикулова. Поэзия Навои в речи актеров. Театральная, 10-11

18. Г.Е. Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссер узбекского театра и мастер сценической речи. Институт литературы и искусства, Алматы, 59-60

19. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь и язык. Мулагот, Ташкент, 35

20. Г.Е. Халикулова. Сцена актера пуста. Театр, Ташкент, стр. 22-23

21. Г.Е. Халикулова. Преподавание воспитательного процесса по укреплению не сильных педагогов студентов - будущих педагогов. наука и образование 3 (4), 484-491

22. Г.Е. Халикулова. Спецновелла Ойбекнинга "Навои". наука и образование 3 (4), 300-307

23. Г.Е. Халикулова. Особенность поздравительной речи. наука и образование 3 (4), 769-776

24. Г.Е. Халикулова. Язык и стиль оммабопа. наука и образование 3 (4), 759-765

25. Г.Е. Халикулова. Речь Мирзо Улугбека в спектакле. наука и образование 3 (4), 353-358

26. Г.Е. Халикулова. Улучшить разговорные навыки женщин-ученых и руководителей. наука и образование 3 (4), 343-353

27. Г.Е. Халикулова. Алишер Навои драмаси олтин мерос. наука и образование 3 (4), 334-343

28. Г.Е. Халикулова. Ёш навкирон Навои сиймоси актерлар назарида. наука и образование 3 (4), 328-334

29. Г.Е. Халикулова. Интерпретация образа Мирзо Улугбеком - сцена школьной речи. наука и образование 3 (4), 317-328

30. Г.Е. Халикулова. Описание Алишером Навои тона и речи образа. наука и образование 3 (4), 307-312

Xalikulova Go‘zal Erkinovna,
san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor.

ИЗ ЖИЗНИ УЧЕНЫХ - ПСИХОЛОГОВ



Shoumarov G`ayrat Baxramovich

O`zbekiston psixologiya maktabining yetakchisi va oila psixologiyasi maktabining asoschisi sifatidagi taniqli olim, o`nlab fan doktorlarining sevimli ustozi, yuzlab ilmiy maqolalar, darsliklar va monografiyalar muallifi.

G‘ayrat Shoumarov 1947-yili Toshkent shahrining Balandmachit mahallasi (hozirgi Xadra maydoni, Alisher Navoiy ko`chasi hududi)da shifokor oilasida tavallud topgan.1963-1967 yillari Yangiyo`l tibbiyot bilim yurtida o`qib,feldsher kasbini egallagan.1967-1968 yillari Navoiy shahridagi harbiy kasalxonada feldsher bo`lib ishlagan.1968-1970 yillarda O`zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida,1969-1973 yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti defektologiya bo`limida tahsil olgan. 1973-yildan shu institutning assistenti sifatida pedagogik mehnat faoliyatini boshlagan.1973-1974 yillari Polsha Respublikasida harbiy xizmatni o`tagan.1977-yildan 1980-yilgacha Moskva shahridagi Sobik Ittifoq Pedagogik fanlar akademiyasi qoshidagi ilmiy-tekshirish institutida maxsus psixologiya ixtisosligi bo`yicha akademik,psixologiya fanlari doktori Vladimir Ivanovich Lubovskiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini 1980-yili himoya qilgan.Dissertatsiya mavzusi intellektual test metodikalarining diagnostik imkoniyatlarini aniqlashga bag`ishlangan edi.

1980-1987 yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining “Umumiy psixologiya” kafedrasida assistent, dotsent lavozimlarida ishlagan. Katta ilmiy xodim lavozimiga o‘tkazilgach, 1988-1989 yillari doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlash uchun ikki yilga Moskva shahriga yuborilgan. Doktorlik dissertatsiyasining mavzusi nomzodlik ishining mantiqiy davomi bo`lmasdan,mutlaqo boshqa yo`nalish,ya’ni yosh oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolarini tadqiq etishga bag`ishlangan edi.1990-yili doktorlik dissertatsiyasini **Moskva shahrida** muvaffaqiyatli himoya qilgan. Umuman olganda,uning olim sifatida shakllanishida Moskva ilmiy muhiti alohida o`rin tutgan.

1991-1996 yillari Avloniy nomidagi Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish markaziy instituti **rektori**, 1996-1998 yillari Respublika ta’lim markazi **direktori** lavozimlarida ishlagan.1998-2002 yilgacha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida ye**takchi konsultant**, **bosh konsultant, monitoring guruhi rahbari** lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2002-2008 yillari O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti **rektori**, 2008-2010 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi **Xalq ta’limi vaziri** lavozimlarida ishlagan.

G‘ayrat Shoumarov bir necha yillardan beri sog`lom turmush targ`ibotchisi bo`lib, a’zolari turli bo`g`indagi rahbarlardan iborat futbol komandasiga sardorlik qilib kelmoqda. Yana bir jihatni ta’kidlash lozimki, uning kasbiy qiziqishlari doirasida tibbiyot sohasining alohida o`rni bor.U yillar davomida (1970-1980 yillar) Toshkent shahar tez tibbiy yordam markazi (03) va Moskvadagi hozirgi Sklifosovskiy nomidagi tez tibbiy yordam markazida o`rindoshlik asosida tibbiyot xodimi (feldsher) bo`lib ishlagan.

U ikki yil davomida Respublika komissiyasi kotibi bo`lib “**Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar**”fani ta’lim tizimiga joriy etilishiga o`z hissasini qo`shgan. Barcha ta’lim turlarida birinchi bor davlat ta’lim standartlari (DTS) tasdiqlanishida monitoring guruhi rahbari sifatida uning ham alohida o`rni bor. Ta’lim tizimiga psixologik

xizmatning joriy etilishida, respublika maktablari shtat jadvallariga psixolog shtati kiritilishida uning katta hissasi bor.

Hech mubolag`asiz aytish mumkinki, G`ayrat Shoumarov psixologiya fani yo`nalishida **O`zbekistonda oilani o`rganish bo`yicha shakllangan ilmiy maktabning asoschisidir**.

G‘ayrat Shoumarov maktab o‘quvchilari uchun mo`ljallangan, sog`lom turmush tarzi, salomatlik, oila masalalariga bag`ishlangan qator o`quv qo`llanmalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o`qitiladigan “**Oila psixologiyasi**” va “**Sharqona oila**” o`quv qo`llanmalari, “1001 savolga psixologning 1001 javobi” uslubiy qo`llanma (1994-2023 yillar) O`zbekistonda ilk bor “**O`zbekiston geografik atlasi**” (1999-yil), “**Sog`lom turmush tarzi asoslari va oila**” uslubiy qo`llanma (2004), “**O`zbek milliy ensiklopediyasi**”, “**Ayollar ensiklopediyasi**”, “**Bolalar ensiklopediyasi**” (2000-yil), “**Sog`lom turmush tarzi asoslari va oila**” uslubiy qo`llanma

(2007- yil), “**Psixologlarning onalarga maslahati**” (2012-yil), amaliy qo`llanma, “Teoretiko-metodologicheskie osnovi sochial’no-psixologicheskix espektov innovasionnogo menedjmenta v obrazovanii” monografiya (2013-yil), «**Oilaga psixologik yordam ko`rsatish asoslari**» o`quv qo`llanma (2014-yil), “**Oila**” ensiklopediyasi (2016-yil), “**Psixologik atamalar ruscha – o`zbekcha izohli lug`ati**” (2019-yil), “**Suisid holatlarini tadqiq etish: muammo va yechimlar**” uslubiy qo`llanma (2020-yil), “**Sirt el izertlawlerinde jaslardi shanaraqliq turmisqa tayarlaw**” (2021-yil), “**T43.0-T43.9 guruhi dori vositalaridan o`tkir zaharlanish (antidepressantlar, neyriliptiklar, psixostimulyatorlar va normomimetik dori vositalar)**” qo`llanma (2023-yil) singari kitoblarning muallifi hisoblanadi.Uning rahbarligi va hammuallifligida psixologiya bo`yicha qator ilmiy-ommabop kitoblar tayyorlangan. Umuman olganda, olim 400 dan ortiq ilmiy ishlar muallifidir.

Psixologiya sohasiga oid masalalar bo`yicha ko`p yillar davomida “Oila”, “O`zingni er bilsang”, “Inson va qonun”, “Yuzma-yuz” singari va boshqa ko`rsatuv hamda eshittirishlarda faol ishtirok etgan. Respublikada chop etilayotgan jurnallar, jumladan, “Korreksionnaya pedagogika” (**Moskva**), “Zamonaviy ta’lim”, “Psixologiya”, “Xalq ta’limi”, “Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila” singari jurnallarda tahrir hay’atlari raisi va a’zosi sifatida faoliyat yuritmoqda.

G`ayrat Shoumarov bir necha yillar davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda O`zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy kengashlarda raislik qilgan va O`zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tashkil etilganda psixologiya va pedagogika fanlari bo`yicha besh yil davomida **ekspert kengashining raisi o`rinbosari** bo`lgan.

G`ayrat Shoumarov O`zbekiston Respublikasi ta’limi va psixologiya fani yutuqlarining dunyo miqyosida targ`ib-tashviq etilishida ham o`z hissasini qo`shib kelmoqda. Hozirga qadar MDH davlatlarini hisoblamaganda, 13 yetakchi xorijiy davlat (Gresiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Gollandiya, Yaponiya, Filippin, Shveysariya, Turkiya va h.k.) da xizmat safarlarida bo`lib, xalqaro miqyosdagi turli konferensiyalar, seminar va simpoziumlarda ishtirok etgan.U 2009-yili Fransiyaning Parij shahrida bo`lib o‘tgan YUNESKO Bosh Assambleyasida O`zbekiston Respublikasi delegatsiyasiga rahbarlik qilgan va Assambleyada o`z ma’ruzasi bilan ishtirok etgan.

G`ayrat Shoumarov 19980-yilda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tashkil etishda ishtirok etgan, jamiyatda o`ta dolzarb bo`lgan oila institutini mustahkamlash hamda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo`yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan.

G‘ayrat Shoumarov bugungi kunga qadar oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga yetarli hissa qo`shgan. Xususan, 60 ga yaqin fan nomzodi (PhD) ga ilmiy rahbarlik, 15 nafar fan doktori (DSc) ga ilmiy maslahatchilik qilgan.Hozirgi vaqtda ham

o`nlab tadqiqotchilar uning rahbarligida doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash ustida ish olib borishmoqda.

Uning rahbarligida o`zbek, tojik, qoraqalpoq, qirg`iz oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari, ayollarda o`ziga o`zi o`t qo`yish, bolalarda o`z joniga qasd qilish, jinsiy qoniqishning nikoh mustahkamligiga ta'siri, respublikada psixologik xizmatni tashkil etish, badiiy ijodiyot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, deviatsiya masalalari tahlili va shu kabi yo`nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. O`zbekistonda birinchi marta **oliy ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish** yo`nalishida Fan va texnologiyalar markazi tomonidan moliyalashtirilgan amaliy loyiha rahbari sifatida O`zbekiston davlat jahon tillari universitetida psixologik markazning ishga tushirilishi va faoliyat yuritishida uning xizmati kattadir.

G`ayrat Shoumarov jamoat ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Uning tashabbusi bilan 2000-yili tashkil etilgan O`zbekiston psixologlar assotsiatsiyasiga o`n yil mobaynida rahbarlik qilgan. Bundan tashqari 2003–2010 yillari "**O`zbekiston-Turkmaniston**" do`stlik jamiyati raisi bo`lib ishlagan.

G`ayrat Baxramovich ilmiy faoliyati davomida jami 4 ta ilmiy, amaliy va fundamental loyihalarda ya'ni **2006-2008 yillar** "O`zbekiston oliy ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha, **2011-2014 yillar** "O`zbekistonda oilaviy psixologik xizmatni tashkil etishning ilmiy-nazariy va metodologik muammolari" deb nomlangan F1-052 raqamli fundamental loyiha, **2021-2022 yillar** "Og`ir ijtimoiy ahvolda qolgan, zo`rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxsni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o`z joniga qasd qilishning oldini olish faoliyatini kuchaytirish" mavzusidagi loyiha va **"Oila va xotin-qizlar"** ilmiy-tadqiqot institutida **JHBL-17-**"Mahallalarda qonuniy nikohdan o`tmay yashayotgan oilalarning paydo bo`lishiga sabab bo`layotgan omillar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish" nomli qisqa muddatli loyihalarda rahbar va ijrochisi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan va bormoqda.


G`ayrat Shoumarov tomonidan **300 ga yaqin** ilmiy ishlar (monografiya, darslik, enseklopediya, lug`atlar, o`quv-metodik qo`llanmalar, risolalar, dasturlar) Respublika va xalqaro jurnallar, ilmiy to`plamlarda maqolalar nashr etilgan.

Shuningdek,institutning ilmiy salohiyatini oshirish, respublikamizda ijtimoiy pedagog olimlar safini yanada kengashtirishda institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2021. Ped/S.127.01 raqamli Ilmiy Kengash huzuridagi 19.00.05-Ijtimoiy psixologiya.Etnopsixologiya.19.00.06 - Yosh va pedagogik psixologiya.Rivojlanish psixologiyasi ixtisosliklari bo`yicha Kengash a'zosi sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur Ilmiy Kengashda oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishiga samarali ulush qo`shib kelmoqda.

G`ayrat Baxramovich oila institutini mustahkamlash hamda yosh oilalarni borasidagi ijtimoiy-ma'naviy islohotlar bo`yicha ("O`zbekiston", "Madaniyat va ma'rifat", "Oilaviy", "Mahalla", va b.q.) tele-ko`rsatuv, radio eshittirishlarda targ`ibot chiqishlari qilmoqda.

Shuningdek,vazirlik va idoralar, hokimliklar, mahalliy va xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlarning 200 dan ortiq faxriy yorliqlari, tashakkurnomalari va esdalik sovg`alari bilan taqdirlangan.

G`ayrat Baxramovich qayerda va qaysi lavozimda ishlamasin hukumatimizning fan, ta'lim, yoshlar, oila ma'naviyatini takomillashtirish, qonunchilikni rivojlantirishga oid davlat siyosatini ijro etishda ushbu sohaning jonkuyari sifatida halol mehnati, chuqur bilimi, salohiyati, tashabbuskorligi, kompetentli rahbarligi, talabchanligi, ijtimoiy faolligi bilan nafaqat shogirdlar jamoasini balki, respublikada keng jamoatchilik o`rtasida ham na'munali olim ekanligi, tajribali hayot yo`li o`sib kelayotgan yoshlar, oila a'zolari, hamkasblari uchun juda katta hayot maktabidir.



Джой Пол Гилфорд - Один из основателей психологии творчества

Джой Пол Гилфорд (7 марта 1897, Маркетт, штат Небраска, США - 26 ноября 1987, Лос-Анджелес) (90 лет)

Гражданство: США. Категория: Учёные. Род деятельности: Прикладная психология, Психология творчества, Психологи. Уникальное отличие: Автор трехмерной модели интеллекта и концепции дивергентного мышления. Один из основателей современной психологии творчества.

Достижения: Профессиональная, социальная позиция: Американский психолог, 59 президент Американской психологической ассоциации

Основной вклад (чем известен): Автор трехмерной модели интеллекта и концепции дивергентного мышления. Один из основателей современной психологии творчества. Усовершенствовал методы психометрии в прикладной психологии.

Вклады:

1. Структура интеллекта (SOI) или (SI): трехмерная модель.

Гилфорд предположил, что интеллект не является единой концепцией и представил трехмерную теоретическую модель структуры интеллекта, согласно которой он может быть представлен тремя сторонами:

операции (познание, запоминание, дивергентные решения, коныергентные решения, оценивание;

продукты (элементы, классы, отношения, системы, преобразования и применения (6);

содержание (зрительное, слуховое, символическое, семантическое, поведенческое (5).

Модель 5 х 6 х 5 (1955) представляет 150 возможных способностей. Окончательный вариант модели SOI (1988) был представлен в виде куба с 3 измерениями и 6 х 5 х 6 - ячейками. В этой модели Гилфорд ввел новые операции (познание, записывание данных в памяти, сохранение данных, дивергентные решения, конвергентные решения и оценивание). Данная репрезентация позволила выделить 180 возможных взаимосвязанных уникальных способностей.

2. Творчество. В 1950 году Гилфорд в своем президентском послании Американской психологической ассоциации (APA) подчеркнул ключевую роль, которую играет творческий потенциал личности в промышленности, науке, искусстве и образовании, а также необходимость проведения дополнительных исследований природы творчества. Он разработал теорию творчества, в котором он описал творчество как чувствительность к проблемам (1950); как дивергентное мышление и возможность генерировать различные идеи (1959), как создание новых моделей, трансформацию знаний и смыслов и открытие новых функций объектов (1962, 1967).

3. Дивергентное мышление. В 1950-х годах Гилфорд впервые предложил концепцию дивергентного мышления, а затем представил его усовершенствованную модель, в которой оно понималось как сущносную составляющую творчества (1976). Таким образом, он напрямую связал дивергентное мышление с творчеством, предложив его ряд характеристик:

1. Беглость (способность производить большое количество идей или решений проблемы).

2. Гибкость (способность одновременно предлагать различные подходы к конкретной проблеме).

3. Оригинальность (способность производить новые, оригинальные идеи).

4. Разработка (способность систематизировать и детализировать идеи и реализовывать их).

Гилфорд также подчеркивал различие между конвергентным и дивергентным мышлением.

4. Психометрическое исследование человеческого интеллекта. Гилфорд является одним из лидеров психометрического направления в исследованиях интеллекта, творчества и личности. Он является пионером в разработке системы психологических тестов направленных на изучение продуктивного мышления и творческих способностей личности. Он разработал многочисленные тесты, которые измеряют дивергентное или творческое мышление и интеллектуальные способности творческих людей.

Методы Гилфорда широко используются в практике с целью выявления творческого потенциала инженеров, научных работников и одаренных студентов.

Методы Гилфорда широко используются в практике с целью выявления творческого потенциала инженеров, научных работников и одаренных студентов.

Почётные звания, награды:

Президент Психометрического общества (1938), Президент Западной психологической ассоциации (1946); Президент Американской Психологической Ассоциации (1949), Доктор права (Университет Небраска, 1952), Доктор социологии (Университет Южной Калифорнии, 1962), Золотая медаль Американского психологического фонда (1983).



ГАЛИНА МИХАЙЛОВНА АНДРЕЕВА (13 июня 1924, Казань — 31 мая 2014, Москва) —российский социальный психолог и социолог, доктор философских наук. Действительный член РАО с 17 марта 1993 года по Отделению психологии и возрастной физиологии.

С именем Галины Андреевой связывают организацию и развитие социологии и социальной психологии, после длительного перерыва исследований в этих областях.

Биография

Родилась в Казани в семье врачей. Отец был профессором и заведовал кафедрой психиатрии Казанского медицинского института. Мать работала врачом-невропатологом в городской больнице. Школу Галина Михайловна Андреева окончила с отличием и в 1941 году послала документы в университет, на отделение гидрологии северных морей факультета физики. Однако начавшаяся война изменила планы. Так в 17 лет Галина Андреева ушла добровольцем на фронт, пройдя курсы радистов. До самого июня 1945 года Галина Андреева находилась в действующей армии. Имеет боевые награды: ордена Красной Звезды, Отечественной войны II степени, медали «За боевые заслуги», «За победу над Германией в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг.» и др.

После демобилизации поступила на философский факультет МГУ имени М. В. Ломоносова (окончила в 1950 году). Кандидатская диссертация была посвящена проблемам воспитания в духе идеологии. В1965 году защитила докторскую диссертацию «Методологические проблемы эмпирического социального исследования». В 1969 году

создала на философском факультете МГУ кафедру методики конкретных социальных исследований. В 1971 году перешла на работу на факультет психологии МГУ, где в 1972 году организовала и возглавила кафедру социальной психологии и являлась её заведующей до 1989 года. В 1989 году стала профессором кафедры.

Читала на факультете психологии МГУ курс лекций «Социальная психология» и спецкурсы «Зарубежная социальная психология XX столетия», «Психология социального познания» и «Методологические проблемы социально-психологического исследования»

Публикации

• Критика современных буржуазных и ревизионистских теорий классов. — М.: Знание, 1959.

• Классы и классовая борьба. — М.: Московский рабочий, 1961 (в соавт. с Угриновичем Д. М.).

• Коммунизм и личность. — М.: Политиздат, 1964.

• Современная буржуазная эмпирическая социология. — М.: Мысль, 1965.

• Буржуазная социология в поисках теории. М.: Знание, 1966.

• Из истории буржуазной социологии XIX—XX вв. [Сборник, отв. редактор] — М.: Изд-во МГУ, 1968.

• К вопросу об отношениях между микро- и макросоциологией. — М.: Изд-во МГУ, 1970.

• Актуальные проблемы развития конкретных социальных исследований. [Сборник статей, ответственный редактор] — М., 1971.

• Лекции по методике конкретных социальных исследований. [Редактор] — М.: Изд-во МГУ, 1972.

• Социальная психология [Учебник для факультетов психологии университетов]. — М.: Изд-во МГУ, 1980. (М.: Аспект-пресс, 1996).

• Межличностное восприятие в группе. — М.: Изд-во МГУ, 1981.

• Современная зарубежная социальная психология. [Редактор] — М., 1984.

• Общение и деятельность. [На русском и чешском языках] — Прага, Издательство Карлова университета, 1984. (совм. с Я. Яноушеком).

• Социальные и методологические проблемы повышения эффективности науки. — М., 1985.

• Общение и оптимизация совместной деятельности. [Редактор, совм. с Я. Яноушеком] — М.: Изд-во МГУ, 1987.

• Актуальные проблемы социальной психологии. [МГУ им. М. В. Ломоносова. Факультет повышения квалификации. Факультет психологии] — М.: Изд-во МГУ, 1988.

• Психология социального познания. М., 1997, 2000, 2005.

• Социальное познание: проблемы и перспективы. М., 1999.

• К проблематике психологии социального познания // Мир психологии. — 1999, № 3.

• Социальная психология сегодня: поиски и размышления. М., 2009.

USTOZGA TA’ZIM

HIKMATULLO BOBOMIRZAYEV - 80 YOSHDA



Dunyoda kasblar ko’p, har bir kasbning fidoiylari bo’lmish zahmatkash insonlar ham ko’p. Ular tufayli minglab kasb-korlar ulug’lanadi, asrlar davomida bardavom bo’lib, qadrlanib kelinadi. Lekin u yoki bu kasb, professional yo’nalish doirasida yangi tashabbuslar, innovatsion g’oyalar bilan yashab, uni hayotga tadbiq etib, jamiyatga manffatli ekanligini isbot qilib yashovchilar nisbatan kam. Fikrimcha, bunday shaxslarga psixologik nuqtai nazardan ta’rif berilganda, avvalo o’z millatining va jamiyat ma’naviyatining ilg’or vakillariga taalluqli bo’lmish fazilatlar majmui bo’ladi. Shundaylardan biri haqida o’z mulohazalarimni bayon etmoqchiman.

XXI asrni innovatsion g’oyalar, axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot asri deb e’tirof qilar ekanmiz, aynan shunday birov bosmagan yo’lni tanlovchi, yangi tashabbuslar va g’oyalar bilan yashovchi insondarga bo’lgan talab kun sayin emas, balki soat sayin ortib borishi tabiiy. Yangiliklarga o’chlik, kreativ fikrlash, qo’rqmay yangi tashabbuslarni ilgari surish, nafaqat surish va bu to’g’risida gapirish emas, ularni amlaiyotda joriy etish kabi sifatlarga afsuski, har kim ham qodir emas. Lekin ming shukur bundaylar oramizda bor. Men aynan shunday bir mehnatkash, zahmatkash va intiluvchan bir, olim haqida fikrimni bildirishni istardim. Bu insonning yutug’i shundaki, u barcha ijobiy milliy va ma’naviy fazilatlarini o’zida ifoda qilish bilan birga atrofiga shunady kreativ fikrlovchi yoshlarni birlashtirganki, menimcha, uning yutug’i va tarix oldidagi ado etilayotgan insoniy va ma’naviy burchi, shandan ko’proq qadrlanishga loyiq.

Ustoz – sofdil, kamtarin, ma’naviy boy, axloqan pok insondir. Ustozlar – butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarini, qalb - qo‘riyu mehrlarini shogirdlariga baxshida etishdan baxtiyor insonlardir.

Mavlono Abdulla Avloniy: “Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir,” – degan edilar. Demak, ustozlarning zimmasida juda ham buyuk mas’uliyatli vazifa yuklangan. Bu ham bo‘lsa, kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama yetuk va barkamol, ma’nan va axloqan pok, vatanparvar va insonparvar insonlarni tarbiyalab chiqarish vazifasi yuklatilgandir.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam ham o‘z hadisi shariflarida ustozning maqomini ta’riflab, shunday marhamat qilganlar: “Albatta, Alloh taolo, Uning farishtalari, osmonlaru - yerlar ahli, hatto inidagi chumoli va hatto dengizdagi baliq ham insonlarga yaxshilikni ta’lim beruvchi insonga salovot aytadilar”.

Albatta, yuqoridagi e’tiroflarga loyiq ajoyib ustozlarimizdan biri bu - Hikmatullo Bobomirzayevdir.

Ustoz 1943-yil 13-oktabrda Samarqand viloyati Nurota tumani tug‘ilgan. 1950-yilda Nurota tumaniga qarashli Xamza Xakimzoda Niyoziy nomidagi 17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabiga 1-sinfga o‘qishga qabul qilingan va 1957-yilda ushbu maktabni 8-sinfini tugatib, 1957-yildan 1959-yilgacha Nurota tumani Voroshilov nomidagi 16-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qishini davom ettirgan.

1959-yilda Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on shahrida sobiq Buxoro davlat Pedagogika institutining Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti fakulteti sirtqi bo‘limiga talabalik safiga qabul qilindi. Ushbu o‘quv yili yakunida yoshini hisobga olib 1-kurs kunduzgi bo‘limiga qabul qilingan va 1960-yildan 1965-yilgacha Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti fakultetining to‘liq kursini a’lo baholarga tugatib, Navoiy stipendiyasi sohibi sifatida talabalar va ustozlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

1965-yildan Buxoro davlat pedagogika institutining Pedagogika va psixologiya kafedrasiga psixologiya fani o‘qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilindi.

Mazkur kafedradagi ish faoliyati davomida Umumiy psixologiya, Yosh davrlari psixologiyasi, Pedagogik psixologiya fanlaridan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib bordi. Shu bilan birga Buxoro viloyat tumanlari ijroya komiteti rahbar xodimlari o‘rtasida 2 yillik Ijtimoiy psixologiya fani bo‘yicha asosiy lektor sifatida mashg‘ulotlar olib borgan.

1985-yildan Xalq ta’limi vazirligining Buyrug‘i bilan Navoiy davlat pedagogika institutining Ijtimoiy fanlar kafedrasiga katta o‘qituvchi lavozimida ish faoliyatini boshladi.

Akademik Radjabov Siddiq Radjabovich aspirantlar va stajyorlarning nomzodlik dissertatsiyalari mavzularini tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqib Hikmatullo Bobomirzayevga “O‘zbek bolalar folklorining ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etishning pedagogik mohiyati” (boshlang‘ich sinflarda) mavzusi berildi. Ilmiy rahbar qilib Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining pedagogika kafedrasi professori Zokir Fayziyevich Mirtursunov tayinlandi.

Shundan so‘ng nomzodlik dissertatsiyasini tugallash ishlari, himoyaga chiqish va yakunlash maqsadida 1989-yilda nomzodlik dissertatsiyasi yuqoridagi nom va mavzu bilan himoya qilindi. Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti qoshidagi pedagogika bo‘yicha ilmiy daraja beruvchi kengashining qarori bilan nomzodlik diplomi berildi.

Psixologiya fanlari bo‘yicha qator o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar chop ettirishi natijasida 1992-yilda O‘zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan dotsentlik ilmiy unvonini olishga muvaffaq bo‘lgan.



2016-yilda Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan Xalqaro konferensiyada Xalqaro psixologiya fanlar akademiyasining muxbir a’zosi diplomi bilan taqdirlandi.

Darhaqiqat, biz ustoz Bobomirzayevni o‘zlarining uzoq yillar faoliyati davomida psixologiya fanlari targ‘iboti bo‘yicha yuzlab ilmiy maqolalar, o‘nlab o‘quv qo‘llanmalari yaratib, butun ilmiy jamoatchilik orasida o‘ziga xos ilmiy nufuzga ega bo‘lgan va o‘nlab shogirdlar tayyorlab ustozlik maqomini eng yuksak cho‘qqilariga chiqara olgan ajoyib inson sifatida bilamiz, hurmat qilamiz, yuksak e’tiqod ila e’tirof etamiz.

Aziz ustozimiz 80 yillik yoshingiz qutlug‘ bo‘lsin! Ayni paytda psixologiya ilmi osmonida 90 yillik, 100 yillik yubileylaringizni nishonlash baxtiga sazovor bo‘lishni Ollohdan so‘rab qolamiz.

Jurnal tahririyati va shogirdlari.

Mundarija /Содержание/Contents

PSIXOLOGIYA FANLARI	
5	***Козлов В.В.*** Основные характеристики эвристических состояний сознания
	Main characteristics of heuristic states of consciousness
10	***Fayziyeva M.X.*** Psixologik himoya mexanizmlari shakllanishining dasturiy ko`rsatkichlari
	Program indicators of the formation of psychological defense mechanisms
18	***Jabborov X.X.*** Milliy tarbiya myetodlarining ijtimoiy - psixologik ta`sirchanligi
	Social and psychological effectiveness of national education methods
26	***Qosimov U.A.*** Tasaffuv ta`limotining zamonaviy o`quvchi shaxsini ma`naviy rivojlantirishida va ular ongidagi qadriyatlar transformatsiyasidagi roli
	The role of mysticism in the spiritual development of a modern student's personal-ity and the transformation of values in their mind
30	***Olimov L.Y.***
	Sud psixologik eksperti ijtimoiy psixologik kompetentligi psixodiagnostikasi
	Psychodiagnostics of social psychological competence of forensic psychological expert
40	***Maxmudova Z.M.*** Socio-psychological factors pf the employee`s professional competence
	Xodimning kasbiy kompetentsiyasining ijtimoiy-psixologik omillari
48	***Murodova D.T.*** O`smirlar ma`naviyatini yuksaltirishning o`ziga xos xususiyatlari
	Specific features of raising the morale of teenagers
52	***Xasanova Sh.J.*** Oila barqarorligini ta`minlashda er - xotin munosabatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari
	Social and psychological characteristics of husband-wife relations in ensuring family stability
56	***Ro'ziyeva Munisa Zubaydulloyevna.*** O`quvchi yoshlarni tarbiyalashda ta`lim tarbiyaning o`ziga xos o`rni
	The unique role of education in educating young students
63	***Raximova X.D.*** Yosharga mafkuraviy ta`sir ko`rsatishning g`oyaviy psixologik usullari
	Ideological psychological methods of ideological influence on young people
66	***Davlatova R.A.*** O`smirlarda xavotirlanish va deppresiya yolg`izlik holatini keltirib chiqaruvchi omil sifatida
	Anxiety and depression as factors causing loneliness in adolescents
70	***Haydarov Sh.Sh.***

	Bo`lajak muhandislarda psixologik salomatlik omillari bilna emotsional xususiyatlari o`rtasidagi munosabatlarning nomoyon etilishi
	Obscuration of relationships between psychological health factors and emotional characteristics in future engineers
74	***Shoniyazova I.M.*** O`smirlarda affilatsiya motivini shakllanishining ilmiy - nazariy asoslari
	Scientific-theoretical bases of the formation of affiliation motive in teenagers
78	***Yaxyaeva U.Sh.*** Kreativlik tafakkurining shakllanishi psixologik aspektlari
	Psychological aspects of the formation of creative thinking
83	***Мухамадиева Р.У.*** Основы современно психологического творчества профессионального мастерства в истории компетентности хормейстера
	Fundamentals of modern psychological creativity of professional mastery in the history of choirmaster competence
87	***Нурматова Ф.М.*** Современные методы в преподавании музыкально-теоретических дисциплин на основе сольфеджирования макомов
	Modern methods in teaching musical theoretical disciplines based on makom solfeging
	IQTISOD FANLARI
93	***Abdulloyev A.J.*** Qishloq xo`jaligida zamonaviy agroklasterlarning boshqarishning nazariy asoslari.
	Theoretical foundations of management of modern agroclusters in agriculture.
	MEHRIDARYO USTOZGA TA’ZIM
100	***Xalikulova G.E.***
	ИЗ ЖИЗНИ УЧЕНЫХ - ПСИХОЛОГОВ
104	***Shoumarov G`ayrat Baxramovich***
107	***Джой Пол Гилфорд***
108	***Галина Михайловна Андреева***
	USTOZGA TA’ZIM
110	***Hikmatullo Bobomirzayev-80 yoshda***

“Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi” jurnalida maqola chop ettirish tartiblari haqida

UMUMIY QOIDALAR

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 5-10 sahifagacha iborat bo‘lishi lozim.
2. Maqolaning matnning kamida 60-70 % i muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).
3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft Word** (2003-2019 versiyasida) dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.
4. Windows asosidagi matn dasturi redaktorining parametrlari:

2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak; shrift Times New Roman, kegel – 12; satrlar orasidagi interval – 1 sm.; matnni kengligi bo‘yicha tekislash; abzas 1 sm; sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;

MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbasi ko‘rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar rangli formatda bo‘lishi zarur.

Ilmiy maqolani chop etish uchun qo‘yilgangan talablar:

1. Maqolaning nomi 12 so‘zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo‘lishi lozim.
2. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (tashkilot)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, telefon raqami, elektron pochtasi (qisqartmalar ishlatilmasin!). Mualliflar bir nechta bo‘lsa ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

Material matni IMRAD talablari asosida berilishi shart.

Maqolalar @buxpxti_ilmiy_axborotnoma_bot orqali qabul qilinadi.

О порядке публикации статьи в журнале

«Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков»

ОБЩИЕ ПРАВИЛЫ

1. Научные статьи должны быть объемом 5-10 страниц.
2. На основе статьи должно быть основано не менее 60-70% текста на результатах личных изысканий автора (переданные статьи проверяются с помощью системы «Антиплагиат»).

3. Текст статьи, формулы и таблицы следует подготовить с использованием Microsoft Word (в версии 2003-2019).

4. Параметры редактора текстовой программы на базе Windows:

• От 2 см должны оставаться стандартные поля; шрифт Times New Roman, кегель - 12; интервал между строками - 1 см.; выравнивание текста по ширине; абзац 1 см; ориентация для выбора страницы - книжная;

• Изображения, выполненные с помощью MS Word, не принимаются. Все изображения и таблицы должны быть переименованы, названы и указаны источник.

5. Графика и диаграммы должны быть в цветном формате.

Требования к составлению научной статьи:

1. Название статьи не должно превышать 12 слов и должно содержать номера УДК.

2. Ф.И.О. автора (ов), ученая степень, звание, название высшего образовательного учреждения (организации), место работы, занимаемая должность, номер телефона, адрес электронной почты (без использования сокращений!). Авторы обязаны предоставлять полную информацию о каждом из них, если их

2023-12-04 11:18:56

my.gov.uz

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси

№4383-6765-6d6f-5113-c473-0003-7681
Ҳужжат яратилинган сана: 2023-12-04
Ариза рақами: 100497662

Ҳужжат берилган: "BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 308196898

Даврий нашрларга ISSN халқаро стандарт рақамини бериш

МАЪЛУМОТНОМАСИ

ГОСТ 7.56-2002 "Серияли нашрларнинг халқаро стандарт рақамланиши" давлатлатаро стандартлари талаблари асосида бўлишини тўлиқ таъминлаш мақсадида, Алишер Навроий номидаги Ўзбекситон Миллий кутубхонаси O'rnatilgan tartibda raqam berildi асосан даврий нашрларини ISSN тартиб рақами билан белгилаш учун қўйдаги рақам тақдим этилади:

Журнал номи	Берилган ISSN тартиб рақами
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	3030-3095

RAXMEDOVA GULBAXOR TULKUNOVNA

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

8762

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

№ 3, 2023



Buxoro-2023



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI
ilmiy jurnal
2-son
Buxoro – 2023. -189 b.
Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков
научный журнал
Выпуск 2.
Бухара – 2023. – 230 с.

Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi.

Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi
Qog`oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shatrli bosma tabog`i - 15 Buyurtma №112. Adadi – 60
Bahosi kelishilgan narxda.
"Sharq Buxoro" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel:0(365)222-46-46


BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI